


MAMATOV M.A.

**MINTAQА IQTISODIY
XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH
MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Monografiya



«IQTISODIYOT»

91:33(575.)	122915
M 23	Mamatov M.A.
Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini...	
T.,2023	109 821

81! 33(545,1)

M 23

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI


TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI



Mamatov M.A.

**MINTAQА IQTISODIY XAVFSIZLIGINI
TA'MINLASH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

Monografiya



**ТОШКЕНТ
“ИQTISODIYOT”
2023**

UO'K: 330.05 (076.2)

KBK: 65.01 Ә401

Mamatov M.A. “Mintaqa iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish” Monografiya. – T.:“IQTISODIYOT”, 2023. - 144 bet.

Ushbu monografiyada mamlakatimiz mintaqalarida (Qashqadaryo viloyati misolida) iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy konsepsiyalari, iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish mexanizmi va instrumentlari, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash omillari va ularning tasnifi, Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlanish holati tahlili, aholining kambag‘allik darajasi bilan bog‘liq ijtimoiy tahdidlar va uni mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri, raqamli iqtisodiyotga o’tish sharoitida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash omillari tadqiq etilgan.

Ma’sul muharrir:

*Rasulev Alisher Fayzievich -- Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori
Fundamental iqtisodiyot kafedrasи*

Taqribchilar:

*Bababekova Dilfuza Sherqulovna – Toshkent Moliya instituti
Iqtisodiyot kafedrasи professori*

*Mamaraximov Bekzod Erkinovich – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Fundamental iqtisodiyot kafedrasи mudiri*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashining
9-may 2023 yil 9-sonli qaroriga asosan nashrga tavsija etilgan.*

ISBN 978-9910-9695-3-9

© “IQTISODIYOT”, 2023.
© Mamatov M.A., 2023.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida global beqarorlik davrida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va barqaror iqtisodiy o'sish salohiyatini oshirish uchun yangi tashkiliy modellar va boshqaruv yondashuvlarida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni taqozo etmoqda. "Raqamlashtirish global iqtisodiy o'sishning asosiy omillaridan biridir. «McKinsey Global Institute» tadqiqotlar instituti hisob-kitoblariga ko'ra, Xitoyda 2025-yilda yalpi ichki mahsulotni 22 % gacha o'sishi internet texnologiyalari hisobidan sodir bo'lishi mumkin. Amerika Qo'shma Shtatlarida 2025-yilda raqamli texnologiyalar hisobidan yaratilgan qiymatning kutilayotgan hajmi 1,6-2,2 trln. AQSH dollarini tashkil etishi mumkin". Bugungi kunda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda raqamlashtirish jarayonlarni rivojlantirish va resurslardan oqilona foydalanish bo'yicha yangi yondashuvlarni ishlab chiqish tobora dolzARB ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodiy raqobat nihoyatda kuchayib, tobora keskin va shafqatsiz tus olmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatimiz iqtisodiyotining muntazam takomillashib borishini ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish, barqaror iqtisodiy taraqqiyot bilan bog'liq vazifalarни puxta belgilab olish masalasi dolzARB ahamiyat kasb etmoqda. Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida "2022-2026-yillarga mo'ljallangan hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha dasturlar asosida har yili barcha tuman va shaharning muammo va imkoniyatlarini chuqr o'rgangan holda hududlar kesimida taraqqiyot dasturlari ishlab chiqish hamda yirik sanoat itarmoqlari va hududiy korxonalar o'tasida sanoat kooreratsiyasini rivojlantirish" vazifalari belgilab berilgan. Shu bilan birga, mintaqaviy darajada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash sohasida qarorlar qabul qilish va ijro etishni institutsional qo'llab-quvvatlash tizimida yangi global muammolarni hisobga olgan holda ularning turli xususiyatlari va maqomidan kelib chiqib tashqi muhitdagi tahdidlarni aniqlashda sezilarli dərajada to'siq bo'lmoqda.

Mamlakatimiz va xususan Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ko'rsatkichlari: jon boshiga YaIM, aholi darromadlari darajasi, qashshoqlik darajasi, aholi turmush sifati bo'yicha,

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari o‘rtasidagi farq keskin ortib bormoqda. Respublika mintaqalari o‘rtasida raqamlashtirish, ijtimoiylashtirish, resursli va infratuzilmali rivojlanishda tengsizlik muammolarini keskinlashuvi mamlakatning hududiy yaxlitligi va uning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid solmoqda. Bu milliy xo‘jalikda va uning mintaqalari iqtisodiyoti oldida turgan ichki va tashqi iqtisodiy taxidilar bilan bog‘liq bo‘lib, ular iqtisodiy o‘sishni ta’minalash, raqobatbardoshligini oshirish, jahonning yetakchi rivojlangan davlatlaridan texnologik orqada qolishni bartaraf etish, iqtisodiy suverenitetni saqlab qolish va milliy iqtisodiy manfaatlarni himoya qilish uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatdagi mavjud iqtisodiy xavfsizlik tizimini transformatsiyalash zarurligini belgilaydi.

Monografiyada mintaqalarning o‘z iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash uchun ma’suliyati va javobgarligini hisobga olgan holda, yuqori moslashuvchan mobillik va iqtisodiy sohada manfaatlarni himoya qilishning samarali mexanizmiga ega bo‘lgan mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalash tizimini shakllantirish zarurligi ochib berilgan.

Monografiyada mamlakatimiz mintaqalarida (Qashqadaryo viloyati misolida) iqtisodiy xavfsizligini ta’minalashning ilmiy konsepsiyalari, iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish mexanizmi va instrumentlari, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash omillari va ularning tasnifi, Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalish holati tahlili, aholining kambag‘allik darjasini bilan bog‘liq ijtimoiy taxidilar va uning mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga ta’siri, raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash omillari tadqiq etilgan.

Monografiya ilmiy xodimlar, oliy o‘quv yurtlarining magistrant talabalari, professor-o‘qituvchilar, katta ilmiy xodim-izlanuvchi va mustaqil izlanuvchilar, shuningdek “Iqtisodiy xavfsizlik” hamda boshqa soha mutaxassislariga mo‘ljallangan.

I BOB. MINTAQANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMINI TADQIQ ETISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy konsepsiyalari

Mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligi muammolari, unda iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyot bilan bog'liqligi qadim zamonlardan beri iqtisodchi olimlarni qiziqtirib kelgan. Iqtisodiy xavfsizlik har doim subyektiv-obyektiv munosabatlarining turli darajalarda: hudud, korxona va shaxsga nisbatan tadqiq etilgan. Shu munosabat bilan birga, tadqiqotchilarining ilmiy ishlarida har doim mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligini tadqiq etish ustuvorlik qilgan.

"Iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingen va institutsional jihatdan qayd etilgan, chunki uzoq vaqt davomida davlat suveren huquqlarning yagona egasi sifatida qabul qilingan edi. 1934— yil iyun oyida AQSh Prezidenti F.D.Ruzvelt dunyoda birinchi marta "Iqtisodiy xavfsizlik qo'mitasini tashkil etdi. Biroq, XX asr yakunida globallashuv va mintaqalashtirish kabi qarama-qarshi tendensiyalar bu yondashuvni shubha ostiga qo'ydi. Bugungi kunda globallashuv jarayonlarining chuqurlashuvi iqtisodiy xavfsizlikning mintaqaviy tashkil qiluvchisini istisno qilmaydi, aksincha, uni faol rivojlantirishga yordam beradi¹.

Bugungi kunda Rossiya Federatsiyasida mamlakat va mintaqalar darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha tadqiqotlar olib borayotgan uchta Moskva, Sankt-Peterburg va Yekaterinburg maktablarini ajratib ko'rsatish mumkin. Moskva olimlari uchun ushbu muammoni tadqiq etishda iqtisodiy xavfsizlikni: – umumdavlat darajasidan, korxona darajasigacha qarab ko'rib chiqish yondashuvi bilan tavsiflanadi. Sankt-Peterburglik olimlar tor ixtisoslashgan yondashuvni afzal ko'rishadi, unda iqtisodiy xavfsizlikni kriminal sohaga nisbatan ko'proq yondashgan holda tahdidlarni iqtisodiy va huquqiy tadqiq etish ustuvorlik tashkil qiladi. Rossiya Federatsiyasining Ural qismidagi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida mintaqaviy yondashuv ustunlik qiladi, ammo iqtisodiy xavfsizlik nafaqat hududiy jihatdan emas, balki tarmoq kontekstida ham baholanadi. Ural markazi olimlarining yana bir xususiyati shundaki ular iqtisodiy xavfsizlik

¹ Bersenev, V.L. Vedushie sentri issledovaniya problem ekonomicheskoy bezopasnosti v Rossii / V.L. Bersenev. // Ekonomika regiona. - 2019. - T. 15, vip. 1. - S. 29-42.

muammolarini tadqiq etishda iqtisodiy va matematik modellashirish usullaridan keng foydalanishadi. Iqtisodiy xavfsizlik kategoriyasining mazmun, mohiyatini ifoda etuvchi asosiy ilmiy yondashuvlar tavsifi (1-ilovada keltirilgan).

M.Ya.Kornilov, xulosasiga ko'ra "Iqtisodiy xavfsizlik" kategoriyasini talqin etishida muammoli joylar mavjud, bu "deyarli barcha talqinlarda ularning deklarativligi taajjubga solishi ta'kidlanadi. Ularda semantik jihatdan "xavfsizlik" so'zi, xavf-xatarning yo'qligi yoki boshqacha qilib aytganda, kimnidir, kimdandir himoyalanganligini anglatishi butunlay e'tibordan chetda qoldiradilar. Xuddi shunday talqinlardan iqtisodiyotni nimadan va nimani himoya qilish kerakligini tushunish mutlaqo mumkin emas².

A.I.Tatarkin³, Ye.A.Oleynikov⁴, V.V.Krivorotov⁵ va boshqalarning ilmiy asarlarida "xavfsizlik" atamasi obyektni salbiy ta'sirlardan himoya qilish yoki himoyalanganligini anglatadi", bu esa mualliflarning tadqiqot mavzusiga yondashuvlari o'xshashligi haqida gapirishga imkon beradi. Salbiy ta'sirlar deganda turli darajadagi ehtimollik bilan himoya obyektiga ma'lum darajada zarar yetkazishi mumkin bo'lgan jarayonlar va hodisalar majmui tushuniladi. Ushbu fikrga asoslanib ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'sirlarni differensatsiyalashni taklif qiladi, bu bizga himoya obyektini nimadan himoya qilish kerakligini aniqlash to'g'risida umumiyl fikrni shakkantirishga imkon beradi.

V.K.Senchagov iqtisodiy xavfsizlikni "... ichki va tashqi jarayonlarni rivojlantirish uchun eng noqulay sharoitlarda milliy manfaatlarni kafolatli himoya qilish, umuman olganda mamlakatning barqaror ijtimoiy yo'naltirilgan rivojlanishi ta'minlangan iqtisodiyotning holati"⁶ deb

²Kornilov, M.Ya. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: osnovi teori metodologii issledovaniya: uchebnoe posobie / M.Ya. Kornilov; Rossiyskaya akademiya gosudarstvennoy sluzhi pri Prezidente Rossiyskoy Federatsii. - 2-e izd., stereotip. - Moskva: Izd-vo RAGS, 2011.-S.18.

³Tatarkin, A.I. Kompleksnaya metodika diagnostiki sotsialno-demograficheskoy bezopasnosti regiona: kollektivnaya monografiya / pod red. A.I. Tatarkina, A.A. Kuklina. - Yekaterinburg: Institut ekonomiki UrO RAN, 2007. - 155 s.

⁴Oleynikov, Ye.A. Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: uchebnik / Ye.A. Oleynikov; pod red. Ye.A. Oleynikova. - Moskva: Ekzamen, 2004.-768 s.

⁵Krivorotov, V.V. Ekonomicheskaya bezopasnost gosudarstva i regionov: uchebnoe posobie dlya studentov vuzov, obuchayushixya po napravleniyu «Ekonomika» / V.V. Krivorotov, A.V. Kalina, N.D. Eriashvili. - Moskva: YuNITI-DANA, 2012. - S.65.

⁶Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: uchebnik / pod red. V.K. Senchagova. - 3-e izd., pererab. i dop. - Moskva: BINOM. Laboratoriya znanii, 2016. - S.28.

ta'kidlab o'tadi. Obyektning atrof-muhit bilan o'zaro ta'siri jarayonida yuzaga kelgan xavfning oldini olish uni himoyalanganlikning kafolati va jamiyatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash imkoniyatini yoki oldini olishga iqtisodiy mexanizm xizmat qiladi. Shuning uchun jamiyatning iqtisodiy sohadagi manfaatlarini ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmalar faoliyati uchun zarar yetkazishi yoki salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jarayonlar va hodisalar majmuidan himoya qilish kerak.

Iqtisodiy xavfsizlik davlatning milliy xavfsizligini asosiy tashkil etuvchilaridan biridir va mamlakatning iqtisodiy ehtiyojlari kafolatlanishi va uni ta'minlashning yo'llari, instrumentlari va dastaklariga asos soluvchi qarashlarning yig'indisidir. Konseptual ko'rinishda u davlatning iqtisodiy salohiyati holatidan kelib chiqadigan iqtisodiy xavfning asosiy omillarini tahliliga asoslangan. Davlatning xavfsizligi kuchsiz va samarasiz iqtisodiyotda ta'minlanishi mumkin emas, ayniqsa globalлаshuv jarayonidagi ijtimoiy nizolarga to'la jamiyatda, chunki hammasi o'zaro bog'langan va biri ikkinchisini to'ldiradi⁷.

Iqtisodiy xavfsizlik mavzusida chuqur tadqiqotlar olib borgan olim X.P.Abulqosimov: "Ushbu fikrlarga asoslangan holda "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi⁸, deb ta'kidlaydi. Respublikamizda chop etilgan boshqa bir o'quv qo'llanmada " iqtisodiy xavfsizlik tushunasini milliy iqtisodiyot mustaqbilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va o'z-o'zidan takomillashib borishga qodirligini ta'minlovchi shart-sharoitlar va omillar yig'indisi"⁹deb baho berilgan.

Boshqa mualliflar iqtisodiy munosabatlар va milliy manfaatlar iqtisodiyotda himoya obyekti deb hisoblaydilar. Birinchi holda, atrof-muhitning mavjudligi va ahamiyatini hisobga olmagan holda, faqat o'zaro ta'sir shakllari o'rganiladi, bu ham jamiyatga tahdid manbai bo'lib xizmat qiladi. Ikkinci holatda milliy manfaatlar iqtisodiy xavfsizlik obyektining umumiyl qabul qilingan chegaralarini sezilarli darajada kengaytiradi, chunki ular jamiyat hayotining barcha sohalarini o'z ichiga oladi.

⁷ Ishmuhamedov A.E. Iqtisodiy xavfsizlik. O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, T., 2004 y. 10 b.

⁸ Abulqosimov H.P. Mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning nazariy jihatlari. XXI asr: fan va ta'lim masalalari" ilmiy elektron jurnali. №3, 2018 yil.

⁹ Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma.-T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi, 2021-. -B.15.

Fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlik bu - mamlakatni xavf va tahdidlardan himoyalanganlik bilan bog'liq uning iqtisodiy salohiyatining izchil rivojlanishini belgilaydigan va jamiyatning barcha a'zolarining turmush farovonligini barqaror o'sishini ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlar deb ta'kidlab o'tish mumkin. Uning obyekti ma'lum tarixiy, geografik, etnik, ma'naviy, siyosiy va iqtisodiy chegaralarga ega bo'lgan mamlakat va uning mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimi bo'lishi mumkin.

Mintaqalar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning yangi mexanizmlari va instrumentlarini joriy etish maqsadga muvofiqligi "mintaqa" va "mintaqaviy iqtisodiyot" kabi tushunchalarning mohiyatini to'la asoslash orqali erishish mumkin. Shuni ta'kidlash kerakki, mavjud "mintaqa" tushunchasining o'zgaruvchanligi, ko'p variantliligi, O'zbekiston Respublikasining barcha subyektlarida, yagona mintaqaviy va shu jumladan mintaqaviy xavfsizlik sohasidagi muvaffaqiyatli siyosatni olib borishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Olimlarning e'tirof etishicha, "mintaqa" tushunchasining yagona ta'rifi yo'q. Rus olimi N.V. Manoxina "Mintaqa - qarama-qarshi murakkab tashkil topuvchi va transformatsiyalashuvchi kategoriya bo'lib, moddiy asosi turli konfiguratsiyadagi, insonlarning faoliyat turlaridagi o'ziga mos xususiyatlari va sifatlari asosida shakllangan u yoki bu sohalarda, faoliyat turlaridagi faolligi bilan to'ldirilgan va shakllangan hududlar akvatoriyalar maydoni¹⁰" deb baholangan.

Rossiyaning mintaqashunos ilmiy maktabining asoschisi R.I. Shniper "mintaqa" atamasi "ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlarining yagona tizimining ajralmas qismidir, u xalq xo'jaligi bilan to'g'ridan-to'g'ri va teskari ishlab chiqarish va iqtisodiy, resurs, moliyaviy - kredit va ijtimoiy aloqalarga ega¹¹. A.I. Dobrinin xulosasiga ko'ra, mintaqqa "mamlakat xalq xo'jaligining bir geografik jihatdan ixtisoslashgan bir qismi hisoblanadi va tavsiflanadi¹².

Mintaqa tushunchasiga nisbatan O'zbekistonlik olimlarning ham o'ziga xos yondashuvi shakllangan. "Mintaqa - bu masshtab va tarkib jihatdan turlicha noodatiy reallikni o'z ichiga olgan, aniq belgilangan maydon tushunchasidir. Mintaqaviy iqtisodiyot, odatda, mamlakat ichida

¹⁰Ekonomicheskaya bezopasnost: uchebnoye posobiye / N.V. Manoxina, M.V. Popov, N.P. Kolyadin, I.E. Jadan; pod red. N.V. Manoxinoy. - Moskva: INFRA-M, 2017. - S.303..

11 Shniper, R.I. Region: ekonomicheskiye metody upravleniya / R.I. Shniper; otv. red. D.M. Kazakevich. - Novosibirsk: Nauka: Sib. otd-niye, 1991. - 380 s.

12 Dobrinin, A.I. Regionalnie proporsii vosproizvodstva / A.I. Dobrinin. - Leningrad: Izd-vo Leningr. un-ta, 1977. - 127 s.

ajratiladigan iqtisodiy rayonlar yoki viloyatlar darajasiga mos keladi”¹³. Boshqa bir o‘quv qo‘llanmada “Mintaqa - bu ma’lum hudud bo‘lib, u boshqa hududiardan qator belgilar bo‘yicha farq qiladi va o‘ziga xos bir butunlik, tarkibiy elementlari o‘rtasida o‘zaro aloqadorlik mavjudligi bilan ifodalanadi”¹⁴, deb baho beriladi. Respublikamizning bir guruh mintaqashunos olimlari “Mintaqa - bu o‘ziga xos tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy xususiyatlarga ega bo‘lgan hududiy birlikdir¹⁵ deb ta’rif berishadi. Bundan ko‘rinadiki, hudud geografik makon haqida fikr yuritishning o‘ziga xos usullarini o‘z ichiga oladi va hududlarning o‘zi hududiy amaliyot natijasi sifatida qaralishi mumkin.

Mintaqa tizimli xususiyatlarga ega bo‘lib, ko‘plab o‘zaro bog‘liq quyi tizimlardan va ular orasidagi tobora murakkab aloqalardan tashkil topgan murakkab, ochiq, nochiziqli tizim, ierarxik tuzilma va elementlarning dinamikasi bilan tavsiflanadi. Shu munosabat bilan bizning fikrimizga ko‘ra mintaqabu ichki yaxlitlik va o‘ziga xos integratsiyaning maxsus turi bilan ajralib turadigan murakkab hududiy-ishlab chiqarish majmuasi sifatida o‘z iqtisodiyotida sezilarli darajada iqtisodiy nomutanosibliklarni yuzaga kelmasligi va mustaqil ravishda dinamik rivojlanishni amalga oshirish qobiliyatini saqlab qolish asosida mavjud resurslardan (tabiiy, mehnat, moliyaviy) har tomonlama samarali foydalangan holda mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini barqaror rivojlanishini ta’minlaydi deb baho berishimiz mumkin.

Milliy darajada, ya’ni mamlakat iqtisodiy xavfsizligining eng muhim bo‘g‘inlaridan biri - bu mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligi hisoblanadi. Chunki, mintaqalar iqtisodiy xavfsizligining ta’milanishi mamlakat darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minalashga va barqaror iqtisodiy o‘sishga zamin yaratadi¹⁶. Shuning uchun “mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik” atamasi va uning mintaqabu rivojlanishidagi roli mohiyati haqidagi g‘oyalarni shakllantirishda yangi konseptual yondashuvlar va yechimlarni izlashga ehtiyoj ta’llab qiladi. Masalan, rus olimi M.V.Rossinskiy mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi tushunchasini “iqtisodiy mustaqilligini, samaradorligini, raqobatbardoshligini, barqarorligini va mintaqabu iqtisodiyotini faollashtirish va uni rivojlanishidagi qobiliyatini ta’minlaydigan tartibli, o‘zaro bog‘liq, uyg‘unlashgan tizimning

13 Soliyev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.: -T. O‘zMU.2003-y.-B.9.

14 Qayumov A., Nazarova H., Egamberdiyev F., Yakubov O’. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma.: - T. O‘zMU. 2004 -y. - B.4.

15 Alimova G.A., Islamov A.A., Kazakov A.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. Toshkent: 2020 -y. -B. 34.

16 Olimov M.K. Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash:o‘ziga xos jihatlar va asosiy omillar. Iqtisodiyot va ta’lim / 2019 № 1. –B.144.

mavjudligi¹⁷ deb tushungan. Biroq, fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlikning bunday talqini juda cheklangan ko'rindi, chunki u yalpi ichki va tashqi xavf-xatarlar va tavakkalchiliklarni to'la ifoda etmaydi.

N.V.Dyujenkov va uning hamkasblari mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi yalpi holatda mintaqada iqtisodiyotni "samarali boshqaruv asosida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash boshqa mintaqalarga va butun davlatga nisbatan tahdidlarni vujudga keltirmagan holda mintaqada aholisi uchun imunosib turmush darajasi ta'minlash va ichki va tashqi tahdidlarning ta'siriga mintaqani qarshi tura olish qobiliyati"¹⁸ deb baho beradi. O.V.Damaskinning ta'rifidagi kamchiliklarga "iqtisodiy xavfsizlik" tushunchasini faqat ichki omillar bilan cheklashni o'z ichiga oladi, bu tashqi omillarni kiritish va hisobga olish orqali ta'rifini to'ldirish yoki kengaytirish va unga qo'shishni talab qiladi.

O'zbekistonda mintaqaviy fan vakillari turli mintaqalarni iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashda uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajalari va ulardagi mayjud muammolari ustida ishlaganlar. Jumladan: A.Abdusalyamov - mintaqaviy iqtisodiy siyosatni shakllantirish¹⁹, A.Soliyev - iqtisodiy geografiya va hududiy rivojlanishning qutblanishi, A.Atamirzayev, S.Zokirov - aholishunoslik va urbanizatsiya masalalari, T.Ahmedov - respublika hududlarini kompleks va mutanosib rivojlanirish²⁰, Sh.Imomov - hududiy rivojlanishni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari, Sh.Nazarov - hududlar raqobatbardoshligini oshirishning ustuvor yo'nalishlari²¹, A.Sodiqov - mintaqaviy rivojlanish nazariyasi²² va boshqalar. Ularning ilmiy tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiyot fanining metodologik asoslarini boyitish, hududiy siyosat tamoyillarini asoslab berish, hududlar rivojlanishini tartibga solishning nazariy-amaliy asoslarini ishlab chiqishni takomillashtirishga katta hissa qo'shdi.

¹⁷Rossinskiy M.V. Metodologiya obespecheniya ustoychivogo razvitiya territorii v ramkakh ekologo-ekonomicheskoy bezopasnosti: dis.d-ra ekon. nauk: 08.00.05 / M. V. Rossinskaya. - Rostov-na Donu, 2006. – S.16.

¹⁸ Burikin, A.D. Upravleniye ekonomicheskoy bezopasnosti regiona: teoriya i metodologiya: monografija / A.D. Burikin, N.V. Dyujenkova, G.E. Lyagushev. - Yaroslavl: Izd-vo YAAFEI, 2004. – S.20.

¹⁹Abdusalyamov M. O selyax i metodologicheskix osnovax regionalnoy politiki. Nauchno-issledovatel'skiy sentr "Nauchnie osnovi i problemi razvitiya ekonomiki Uzbekistana" pri TGEU. – T., 2015 g.

²⁰Axmedov T.M., Xasandjanov K.A., Xakimov N.X. Regionalnaya ekonomika. Uchebnoye posobiye. – M.: izd. REA im.G.V.Plexanova. 2006. – 231 s.

²¹ Nazarov SH.X. Metodologicheskiye aspekti povisheniya konkurentospособности regionov. –T.: IFMR, 2014. – 212s.

²² Sadikov A.M. Novaya strategiya razvitiya Uzbekistana: formirovaniye, prioriteti, realizatsiya. Monografija. – T., 2019. – 536 c.

Professor X.P.Abulqosimov "Mintaqaviy xavfsizlik mamlakat viloyatlari manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik o'z ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, va ijtimoiy xavfsizliklarni oladi"²³ deb baho bergen.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko'p jihatdan uning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatiga bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida raqobat ustunliklari va barqaror rivojlanish imkoniyatlarini belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining o'ziga xos xususiyatlari, farqlari tabiiy va moddiy-texnik resurslarning sezilarli darajada xilma-xilligi, aloqa tizimi, kommunikatsiya, infratuzilmani tizimini rivojlanganligi, innovatsion, sanoat salohiyatining rivojlanish darajasi va boshqalar bilan bog'liq. "Hududlarning yalpi hududiy mahsulot sifatidagi o'zgarishlar darajasi bo'yicha keskin farqlarning eng asosiy sababi, ular industrial rivojlanish darajasining turlicha ekanligidir"²⁴.

"Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi" kategoriyasining mohiyatini aniqlashda biz bir qancha ilmiy yo'nalishlarni fanlararo tadqiq etish va sintez qilishga qaratilgan ishlarga tayandik. Fikrimizcha, eng oqilonan tizim o'z-o'zini tashkiliy va institutsional-evolyutsion yondashuvlar hamda organik ravishda joylashtirilgan sinergetika va murakkablik nazariyasi metodologiyasiga asoslangan yondashuvdan foydalanishdir.

Bizning fikrimizcha, murakkablik va sinergetika nazariyasini mamlakat va uning mintaqalari iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mehanizmlari masalasining yechimini izlashda qo'llash nazariy jihatdan to'g'ri bo'ladi. Xavfsizlik - bu keng va doimiy ravishda amalga oshiriladigan murakkab majmuali mexanizmlar va harakatlar majmuidir. Iqtisodiy xavfsizlik-bu milliy xavfsizlikning bir qismi bo'lib, u barcha turdag'i resurslarning katta miqdorini va barcha subyektlarning iqtisodiy manfaatlarini doimiy muvofiqlashtirishni talab qiluvchi murakkab ko'p komponentli tuzilmadir.

Tizimli o'z-o'zini tashkil etuvchi yondashuv, fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlik muammolarni o'rganish uchun ishonchli uslubiy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin. Unga muvofiq, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining barcha tarkibiy elementlari o'zaro ta'sir va o'zaro bog'liqlikda ko'rib chiqiladi va uning har bir tarkibiy qismi maxsus

23 Abulqosimov X.P., Abulqosimov M.X. Iqtisodiy xavfsizlik: Nazariya va amaliyat. Darslik. T.2019 y.-B.455.

24 Mamatov M.A. Innovatsion investitsiyalarning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sirini oshirishning nazariy asoslarini takomillashtirish// Monografiya. – Tashkent: Iqtisod-Moliya, 2017. -65 b.

funksiyalarini tashuvchisi sifatida va ularning bajarilishiga qarab iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning ishonchliligini belgilab beradi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi murakkab tizimli tushuncha sifatida, bir qator muhim elementlarni o'z ichiga oladi:


- shartli ravishda iqtisodiy avtonomiya, ya'ni mintaqaviy ishlab chiqarish va mahsulot sifatining shunday samaradorligi darajasiga erishish lozimki, bu mintaqaning iqtisodiy raqobatbardoshligini ta'minlasin va bozor ishtirokchilariga kooperatsiya munosabatlarida, xalqaro va mintaqaviy ayirboshlashda tenglar qatorida ishtirok etishga imkoniyat bersin;

- O'zbekiston Respublikasi subyektlarida tadbirkorlik va innovatsion faoliyat uchun qulay shart-sharoitlar mavjudligi, shuningdek, salbiy omillarni hamda iqtisodiyot va jamiyatdagi vaziyatni beqarorlashtirishi mumkin bo'lgan to'siqlarni bartaraf etishni kafolatlovchi mintaqaviy iqtisodiy tizimning strategik barqarorligini ta'minlash;

- mintaqqa iqtisodiyotning o'z-o'zini rivojlantirish va taraqqiyotga, qulay investitsiya va innovatsiya muhitini yaratishga, sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiyalashga va mehnat unumdarligini oshirishga qodirligi.

Mintaqani iqtisodiy xavfsizligining mohiyati va mazmunini aniqlashga turli nuqtai nazar va yondashuvlarni tahlil qilish bizga "mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi" tushunchasiga mualliflik ta'rifini ishlab chiqishga imkon berdi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bu -O'zbekiston Respublikasi subyektlarining ijtimoiy-iqtisodiy tizimini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishning shunday holatini tushunish taklif etiladiki, unda mintaqqa iqtisodiyoti izchil va bosqichma-bosqich barqaror rivojlanishi ta'minlanadi, shuningdek iqtisodiyotdagi salbiy tendensiyalarni o'z vaqtida aniqlash, ularni oldini olish va neytrallash hamda noqulay tashqi va ichki tahdidlar sharoitida aholining hayotiy muhim ehtiyojlarini nisbatan to'laroq qondirishga erishish tushuniladi. "Mintaqa iqtisodiyoti rivojlanishini barqaror va muvozanatli darajasini tadqiq qilish muhim masala hisoblanadi. Bunda, mintaqaning barqarorligini qator ko'rsatkichlar holati bilan baholaymiz. Mazkur mezonlar tarkibida YaHM, uning aholi jon boshiga to'g'ri kelgan hajmi, soha va tarmoqlarda yaratilgan mahsulot hajmi, eksport hajmi, ularning o'sish tendensiyalari o'rganiladi"²⁵.

²⁵ Abdullayev I.S., Sapayeva N.K. Mintaqqa iqtisodiyotining rivojlanish tendensiyalari va barqarorligi tahlili. Logistika va iqtisod ilmiy elektron jurnalı. 2021-yil. №2 son. –B.56.



1.1.1-rasm. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik tizimi tarkibi²⁶

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bir qator tarkibiy qismlardan iborat, ya’ni: moliyaviy, ijtimoiy, kadrlar, resurs, sanoat, innovatsion xavfsizlik va boshqalarni o’z ichiga oladi. Mintaqa iqtisodiyotning o’zi asosiy tizimli xususiyatlarga ega va ko’plab o’zarob bog’liq kichik tizimlar va ular o’rtasida tobora murakkab aloqalardan tashkil topgan, ochiq, nochiziq tizim bo’lib, ierarxik tuzilma va dinamik elementlar bilan tavsiflanadi. Bu yuqorida rasmida ifoda etilgan.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, tizimli o’zini-o’zi tashkil etish nazariyasining asosiy qoidalarni qo’llash asosida mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash muammosini o’rganish bizga, uning barqaror faoliyat yuritishini qo’llab-quvvatlash qobiliyatini ifoda etuvchi, strategik maqsadlar va ustuvor yo’nalishlarga muvofiq rivojlantirish, aholining normal turmush shart-sharoitlarini ta’minalash, resurs salohiyatidan samarali foydalanish, iqtisodiy sohada milliy manfaatlarni himoya qilishda ifoda etuvchi mintaqani iqtisodiy xavfsizligi uning hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarini himoya qilishga hissa qo’shadigan instrumentlar to’plami va tizimning eng muhim sifat tavsifi sifatida baho berishga imkon beradi,

Raqamlı texnologiyalardan ommaviy foydalanishga o’tish natijasida yuzaga kelgan milliy iqtisodiyotdagi chuqur o’zgarishlar mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta’minalash muammolari ko’lamini sezilarli darajada kengaytiradi. Shu sababli, aynan mintaqaviy xavfsizlik tizimining

²⁶ Manba: muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

faoliyati, mintaqaviy iqtisodiyotga ichki va tashqi tahdidlarga qarshi kurashish, uni barqaror rivojlanishiga ko'maklashish choralariga asoslanib, O'zbekiston Respublikasi subyektlari va umuman butun davlatning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlari va istiqbollarini bevosita belgilaydi.

1.2-§. Mintaqani iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish mexanizmi va instrumentlarining mobiyati va mazmuni

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni tashqi va ichki tahididlardan himoya qilish jarayonida salbiy ta'sirlarga qarshi tura oladigan maxsus tanlangan mexanizm, instrumentlar va dastaklar yordamida ta'minlanadi. Iqtisodiyotda depressiv zonalarni kengayishi va mavjud boshqaruvin mexanizmi bo'yicha mintaqalararo differensatsiyani chuqurlashuvi xavfsizlik mexanizmini shakllantirishda iqtisodiyotning barcha darajalarida davlat hokimiyyati organlari tomonidan to'plangan muammolarni hal qilishda jiddiy kamchiliklar mavjudligini ko'rsatmoqda.

Texnologik taraqqiyot va axborot-telekommunikatsiya texnologiyalaridan ommaviy foydalanish davrida milliy iqtisodiyot va uning mintaqalari rivojlanishining o'ziga xos xususiyati, tashqi va ichki muhitning beqarorligi, bozor o'zgaruvchanligi va beqaror mintaqaviy dinamika, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmiga yanada chuqurroq ilmiy yondashuvlarni va uni bat afsil tahlil qilishni talab qiladi.

Bunday mexanizmlarni ishlab chiqishda bozor muhitidagi o'zgarishlarga tezroq javob bera olishini ta'minlaydigan, mintaqaning iqtisodiy tanazuli omillarini hisobga oladigan va iqtisodiy xavfsizlikning dolzarb muammolarini hal qila oladigan yuqori sifatli, ishonchli va o'z vaqtida olinadigan ma'lumotga asoslangan bo'lishi kerak. Iqtisodiy adabiyotlarda "mexanizm" atamasi obyektni harakatga keltiradigan o'zaro bog'liq va o'zaro hamkorlikda harakat qiluvchi qator elementlar majmui sifatida tushuniladi. Mexanizmi uchun eng muhim vazifa bo'lib harakatni o'tkazish va obyektning energiyasini qayta tashkil etish, unda harakat yo'naliishi uning qismlarini to'g'ri o'zaro bog'lash orqali erishiladi²⁷.

Mexanizm atamasining birinchi ko'rinishi sobiq tizim iqtisodiyotiga bag'ishlangan iqtisodiy adabiyotlarda XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Unda sobiq tizim mexanizmiga quyidagicha ta'rif

²⁷ Ekonomicheskiy slovar. Rejim dostupa: <http://abc.informbureau.com>.

beriladi: "sotsializm iqtisodiy qonunlari talablariga muvofiq sotsialistik iqtisodiyotning optimal faoliyat yuritishi va rivojlanishini ta'minlaydigan tashkiliy-iqtisodiy, boshqaruv, shuningdek, huquqiy va boshqa shakllari, instrumentlari va dastaklari tizimidir"²⁸.

Ko'pgina tadqiqotchilar ushbu turdag'i mexanizmni tizimli o'zaro ta'sir jarayonini tasvirlaydigan markazlashtirilgan mexanizmlari bilan bog'lashadi. Markazlashtirilgan mexanizm algoritmi tizimning elementlarining asosiy ishi - iqtisodiy rivojlanishning umumiy qonunlari va qonuniyatlarini, vektorlarini shakllantiruvchi va tartibga soluvchi markazni belgilaydi. Markaz xo'jalik yurituvchi subyektlarini majburlash yoki rag'batlantirish shaklidagi nazorat funksiyalarini bajaradi, obyekt rivojlanishining miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari bilan baholanadigan ijro natijasini nazorat qiladi.

Markazlashtirilgan mexanizmning o'ziga xosligi quyidagilarda ifodalanadi:

- iqtisodiyotni faoliyat yuritishida an'anaviy normalar va qonunlarni saqlab qoladi;
- xo'jalik faoliyatini amalga oshirishda tartibga solish va tashkilotchilik funksiyasini o'z zimmasiga olgan markazning asosiy dominant roli;
- ijtimoiy yo'nalishning mavjud emasligi, ya'ni xo'jalik yurituvchi subyektlarning mavjud va doimo o'zgarib turadigan manfaatlari hisobga olinmaydi;
- barqarorlik va aniq ketma-ketlik sharoitida optimal ishchanlik.

"Mexanizm" atamasi bozor iqtisodiyotida turli ijtimoiy va ishlab chiqarish jarayonlarni o'zaro aloqadorligini tavsiflashda keng ommalashmoqda. Keyinchalik bu iqtisodiy mexanizmning mohiyati va tamoyillarini tushunishning noaniqligiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda iqtisodiyotda "mexanizm" atamasi ko'pincha "milliy iqtisodiyotning rivojlanish mexanizmi", "moliviy mexanizm", "ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmi", "boshqaruv mexanizmi" kabi tushunchalar bilan ifodalanadi. Mexanizm deganda yalpi tizim holati yoki uning faoliyati va rivojlanishida asosiy rol o'ynaydigan tizim tuzilishining ayrim elementlari tushuniladi. Ushbu atamani talqin qilishning murakkabligi va noaniqligi xalq xo'jaligi darajasida, mintaqalar darajasida

28 Abalkin, L.I. Xozyaystvennyi mexanizm i ekonomicheskaya politika partii/ L.I. Abalkin. // Voprosy ekonomiki. - 1980. - №1. - S. 4-26.

ham qulay foydalanish uchun dinamik tashqi muhit sharoitida iqtisodiy mexanizm kategoriyasini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon fanida iqtisodiy mexanizmlar nazariyasidagi ikkita asosiy tendensiya, yo'nalish shakllangan. Birinchi yo'nalish iqtisodiyot bo'yicha 2007-yilgi nobel mukofoti laureatlari L.Gurvis, R.Mayerson va E.Maskin nomlari bilan bog'liq bo'lib ular, "iqtisodiy mexanizmlar nazariyasining fundamental asoslariga qo'shgan hissasi" uchun taqdirlandi²⁹. Ikkinchisi yo'nalish fransuz iqtisodiyot maktabi nomoyondasi A.Kulman nomi bilan bog'liq. 1993-yilda olim o'zining mashhur "Iqtisodiy mehanizmlar" nomli kitobini nashr ettirdi³⁰.

Iqtisodiy mexanizm konsepsiyasining asoschisi L.Gurvis, mexanizm tushunchasini va uning "rag'batlantiruvchi muvofiqlik shartlarini" aniqlagan, markazlashmagan mexanizmlarning ahamiyatini ko'rsatib, mexanizm bo'yicha tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlarini tadqiq etgan³¹. L.Gurvisning g'oyalari R.Mayerson va E.Maskin tomonidan amalda qo'llanildi va uni yanada rivojlantirildi.

L.Gurvis tomonidan ishlab chiqilgan mexanizm tushunchasiga berilgan mualliflik tavsifida markaz va subyektlar o'rtaSIDAGI o'zaro ta'sirning uch bosqichini o'z ichiga oladi. Birinchi bosqichda har bir subyekt markazga maxsus *m_L* xabarni yuboradi. "Markaz" barcha xabarlarni qabul qilib, mumkin bo'lgan natijani hisoblab chiqadi:

$$Y=f(m_L, \dots, m)$$

Yakuniy, uchinchi, bosqichda markaz *Y* natijani e'lon qiladi va zaruriyatlik me'yoriga qarab uni xayotga joriy etadi³².

Taklif etilgan markazlashtirilmagan axborot mexanizmlarning mohiyati mexanizm samaradorligining asosiy ko'rsatkichi uning ishtirokchilarini rag'batlantirishning muvofiqligi shartlari bo'lgan iqtisodiy subyektlar va markaz o'rtaSIDAGI o'zaro ta'sirning muayyan ketma-ketligini aniqlashdan iborat. Ushbu yondashuv iqtisodiy subyektlarning

²⁹ Manba: http://nobelprize.org/nobel_prizes/economics.pdf.

³⁰ Kulman A. Ekonomicheskiye mexanizmi / A. Kulman; per. s fr. Y.E.P. Ostrovskoy; obsh. red. N.I. Xrustalevoy. - Moskva: Progress: Univers, 1993. - 192 s.

³¹ Hurwicz, L. On informationally decentralized systems / L. Hurwicz. - Tekst: непосредственный // Decision and Organization / R. Radner, C.B. McGuire (eds.). - Amsterdam and London: North-Holland, 1972. - P. 297-336.

³² Izmalkov S.B. Teoriya ekonomiceskix mexanizmov S.B.Izmalkov, K.I. Sonin, M.M. Yudkevich. - // Voprosi ekonomiki. - 2008. - № 1. - S. 4-26.

axborot bilan ta'minlanganlik darajasini belgilaydigan axborotning rolini hisobga oladi.

Axborot assimetriyasi tushunchasi bozor ishtirokchilarining tovarlarning sifat xususiyatlari va bozorlarda ularni yetkazib berishning miqdoriy parametrлари haqidagi turlicha axborotlarga egaligi iqtisodiy muvozanatga, muvozanat narxlarini o'rnatishtga va bozorlarni muvozanat holatiga keltirishga imkon bermasligini anglatadi³³.

Ishtirokchilar manfaatlarining izchilligi kabi shartni joriy etish belgilangan maqsadlarga erishishning o'ziga xos kafolati bo'lib xizmat qiladi va mexanizmi xo'jalik yurituvchi subyektlarning o'zaro hamkorlik munosabatlari jarayoni sifatida tavsiflaydi.

O'zaro ta'sirning markazlashmagan mexanizmi faqat xo'jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlari sohasi bilan chegaralanadi, oldindan aniqlangan maqsadlarni ro'yobga chiqarishda markaz manfaatlari manfaatlar doirasidan tashqarida qoladi va unda iqtisodiy tizim o'zi mustaqillikga intiladi. Ijtimoiy faoliyatni muvofiqlashtirish yo'li o'z-o'zidan stixiyali shakllanadi, axborot iqtisodiy jarayonlarni tartibga soluvchi muayyan signallar orqali aniqlanadi.


Markazlashtirilmagan mexanizm moslashuvchan va o'zgaruvchan sharoitlarga juda tez moslashadi, ammo u asosiy yirik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni va tahdidlarni mustaqil ravishda hal qila olmaydi. Bunday mexanizm, turi markazlashtirilgan singari, faqat ma'lum xatoliklar yoki cheklolvar ostida mayjud bo'lishi mumkin, bu esa tadqiqot mavzusining chegaralarini sezilarli darajada toraytiradi.

A.Kulman tomonidan taqdim etilgan iqtisodiy mexanizmlar nazariyasidagi ikkinchi yondashuvga ko'ra, iqtisodiy mexanizm - bu obyektiv tafsifga ega bo'lgan o'zaro bog'liq iqtisodiy jarayonlarning ma'lum ketma-ketligidir³⁴. A.Yu.Chalenko, xulosasiga ko'ra iqtisodiy mexanizmning ish algoritmi bu boshlang'ich jarayonlar hech qanday qo'shimcha kuchlar ta'sirisiz, boshqa jarayonlar bilan o'zaro zanjir reaksiyasiga kirishib ketadi³⁵. Ta'kidlash kerakki, bu obyektiv

³³ Slepov, V.A. O Teorii ekonomicheskix mexanizmov / V.A. Slepov, V.K. Burlachkov, K.V. Ordov. // Finansi i kredit. - 2011. - № 24 (456). - S. 3.

³⁴ Kulman, A. Ekonomicheskiye mexanizmy / A. Kulman; per. s fr. YE.P. Ostrovskoy; obsh. red. N.I. Xrustalevoy. - Moskva: Progress: Univers, 1993. - S. 13.

³⁵ Chalenko, A.YU. O poniatiynoy neopredelennosti termina «mexanizm» v ekonomicheskix issledovaniyax / A.YU. Chalenko. - http://dspace.nbuu.gov.ua/bitstream/handle/.



munosabatlar tabiatini ijtimoiy institutlar o'rtasida shakllanadi, iqtisodiy jarayonlar o'rtasida emas.

A.Kulman o'z tadqiqot ishida ijtimoiy munosabatlarni va xulq-atvor madaniyatini reglamentlovchi iqtisodiy mexanizmlarni va institutlarni ajratib ko'rsatadi, ular ijtimoiy hamkorlikning muayyan turlarini normativ mustahkamlaydi va ularni ijtimoiy guruh yoki jamiyatning barcha a'zolari uchun majburiy qiladi. Ijtimoiy institutlarining asosiy maqsadi - ijtimoiy-iqtisodiy tizimning rivojlanishi davomida barqarorlikka erishishdir.

Hokimiyatning barcha darajalarida institutsional shart-sharoitlar ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza bilan belgilanadi va maxsus guruhlar manfaati tomonidan shakllantiriladi. A.Kulman bularning barchasini bir tushunchaga - iqtisodiy rejimga birlashtiradi. Shu munosabat bilan muallif iqtisodiy mexanizmlarning faoliyat yuritishiga ta'sir qiluvchi tashqi omillarning ta'sirini haqli ravishda to'g'ri qayd etadi va bu omillar xususiyatlariga qarab ijobiy va salbiy ta'sirga ega bo'lishi mumkin. Tashqi muhit omillarining ta'sirini ehtimolligini tahlil qilishda bizga muayyan sharoitlarda va iqtisodiy mexanizmlar doirasida turli signallar ta'siri ostida yuzaga keladigan hodisa va jarayonlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushunishga yordam beradi.

A.Kulman tomonidan iqtisodiy hodisa va jarayonlarga ta'sir qilish tamoyili bo'yicha taklif qilingan iqtisodiy mexanizmlarni tasniflash nuqtai nazaridan ochiq yoki yopiq turdag'i mexanizmlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Yopiq turga ta'sir natijasida boshlang'ich iqtisodiy hodisa va jarayonlarni turli miqyosda takrorlashga olib keladigan mexanizmlar kiradi. Ochiq-turdagi iqtisodiy mexanizmlarga ta'sir natijasida boshlang'ich, originalga nisbatan butunlay yangi bo'lgan, iqtisodiy hodisa va jarayonlar kiradi³⁶.

Mexanizmlarning xilma-xilligi va ularning iqtisodiy tizimdag'i kombinatsiyasi ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. Tizimda yuz beradigan barcha hodisa va jarayonlar o'zaro bog'liqdir. Tizimda kamida bitta parametr o'zgarganda, qolgan o'zgaruvchilar uchun zanjir reaksiyasi boshlanadi va vaqt oralig'ini hisobga olgan holda notejis o'zgaradi. Shunda tarkibiy tuzilmaning tuzilishi turlicha, ya'ni vaqtga va impulslerning intensivligiga qarab o'zgarib boradi. Shuning uchun funksional yoki o'z-o'zidan rivojlanayotgan mexanizm faqat ma'lum xatoliklar yoki cheklovlardan ostida mavjud bo'lishi mumkin.

³⁶ Kulman, A. Ekonomicheskiye mexanizmi / A. Kulman; per. s fr. YE.P. Ostrovskoy; obsh. red. N.I. Krustalevoy. - Moskva: Progress: Univers, 1993. – S.17.

Rus olimi M.P.Loginov tomonidan taklif etilgan kibernetik yondashuv tarkibiy tizimli yondashuvlarning rivojlanishi bo'lib hisoblanadi. Yondashuvning o'ziga xos xususiyati iqtisodiyotdagい mechanizmlar ierarxiyasini qurish va ularning uchta asosiy turini ajratishdir: iqtisodiy, xo'jalik va boshqaruv mechanizmlari. Yondashuv bizga iqtisodiyotdagい mechanizmlarning rasmiylashtirilgan konstruksiya modelini ko'rish imkonini beradi³⁷. Bir qator mualiflar mechanizmni iqtisodiy tizim va uning resurslarini boshqarish jarayoni deb tushunadilar. Iqtisodiy mechanizmlarning mohiyatini va ularni qo'llanilishini muammosini hal qilish uchun A.Yu.Chalenko "mekanizm" tushunchasini jarayon bilan bog'lashni, ya'ni iqtisodiy mechanizmni ko'rib chiqish uchun jarayonli yondashuv metodologiyasidan foydalishni taklif qiladi.

Jarayonli yondashuv metodologiyasi asosida, A.Yu.Chalenko "iqtisodiy jarayonning yalpi resurslari va ularni bog'lash, ulash yo'llari majmui" deb mechanizmi tavsiflangan³⁸. Bizning fikrimizcha iqtisodiy mechanizmning o'ziga xos xususiyatlari: mechanizm mustaqil ravishda mavjud bo'lmaydi, chunki u faqat jarayonli funksiyalarni bajaradi; mechanizm xarakatsizdir va u boshqarishga muxtojdir, chunki u jarayonning boshqariladigan birligi hisoblanadi; mechanizm ketma-ket, bosichma-bosqich boshqaruv bilan bog'lanishi uning ichki jarayonning mazmunini xarakatga keltiradi.

Iqtisodiy mechanizm kategoriyasini O'zbekistonlik iqtisodchi olimlar tomonidan ham keng tadqiq etilgan. Xar bir iqtisodiy tizimning o'ziga xos rivojlanish mechanizmi bo'ladi. Shu munosabat bilan O'zbekistonlik olimlar ko'proq darajada bozor mechanizmi kategoriyasi bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan. "Bozor mechanizmi - bu bozor tizimiga xos bo'lgan, bir-birini taqozo etuvchi va birgalikda amal qiluvchi iqtisodiy vositalardir. Bular jumlasiga talab, taklif, tovar narxlari, bozor kon'yunkturasi, pul, foyda, zarar, foiz, iqtisodiy majburiyat, raqobat kiradi"³⁹ deb ta'kidlanadi. "Har qanday bozor iqtisodiyotini tartibga solish mechanizmi asosan to'rtda tarkibiy qismdan iborat bo'ladi: narx, raqobat, talab va taklif"⁴⁰.

³⁷ Loginov, M.P. Ekonomicheskiye mekanizmi: sushnost, klassifikatsiya, kiberneticheskiy podxod / M.P. Loginov. - // Problemi teorii i praktiki upravleniya. - 2015. - № 9. - S. 94-102.

³⁸Slepov, V.A. O Teorii ekonomicheskix mehanizmov / V.A. Slepov, V.K. Burlachkov, K.V. Ordov. // Finansy i kredit. - 2011. - № 24 (456). - S. 3.

³⁹ O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. Iqtisod va moliya, 2014.-B.244.


⁴⁰ Jo'rayev T.T. Iqtisodiyot nazariyasi. O'quv qo'llanma. "Fan va texnologiyalar" nashriyoti. 2017- y. -B.121.

Mamlakat hududlarining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashdan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat va uning hududlari raqobatbardoshligini oshirishdan iborat⁴¹. Jarayonli yondashuvning mantiqidan kelib chiqib, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining asosiy modeli qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun subyektlarni o'z iqtisodiy resurslarini birlashtirishga yo'naltiruvchi rag'batlantiradigan impuls sifatida tavsiflanadi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining asosiy modelini yaratish uchun muayyan ketma-ketlikdagi quyidagi harakatlarni bajarish kerak:

- jarayonga jalb etilgan yalpi resurslar majmui sifatida jarayonli kirishlarni aniqlash va tahlil qilish;
- jarayondan chiqishlarni tahlil qilish, ya'ni instrumentlar tarkibi, ularning xususiyatlari, maqsadi, iqtisodiy samaradorligi va boshqalar;
- jarayonlarni boshqarish tartiblarini ishlab chiqish;
- strategiyalar, dasturlar, reglamentlovchi hujjatlar, ko'rsatmalar va boshqalar;
- jarayonni amalga oshirishni ta'minlovchi instrumentlarni aniqlash.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi tarkibiga element sifatida nafaqat jalb etilgan resurslar, balki ularni bir-biriga qo'shish, taqsimlash va ularndan foydalanish usullari, tizimning tartib-qoidalarni reglamentlovchi qonunlar va normalar va h.k. kiradi.



1.2.1-rasm. Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmining tarkibiy tuzilmasi⁴²

41 Olimov M.K. Hududlarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash:o'ziga xos jihatlar va asosiy omillar. Iqtisodiyot va ta'lim / 2019 № 1. –B.145.

⁴² Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Shunday qilib, mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi hal qilish uchun mintaqaga iqtisodiyotini rivojlantirishga to'plangan institutsional, iqtisodiy va boshqa muammolarni salbiy ta'sir qiluvchi omillar ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etishga imkon beruvchi yalpi resurslar, hamda shakllar, usullari, instrumentlari va ta'sir dastamlari majmui sifatida qaralishi mumkin.

Bizning fikrimizcha, mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun ikki turdag'i mexanizmlar harakatini hisobga olish kerak: o'z-o'zini tashkil etuvchi va tashkiliy. O'z-o'zini tashkil etish mexanizmi maqsad talab qilmaydi, chunki u hech qanday boshqaruv ko'rsatmalarsiz, tizim elementlari o'rtasidagi lokal o'zaro ta'sirlarning bir turi sifatida namoyon bo'ladi. Tashkiliy mexanizmdan farqli o'laroq, tashqi muhitning ta'siri natijasida yuz bergen sifat o'zgarishlari bo'lgan masalan, boshqariluvchi subyekt, haqida so'z borganda, tashkiliy jarayon to'grisida gap boradi.

Boshqaruvchi markaz iqtisodiy himoya mexanizmini yaratmaydi, balki faqat mintaqaviy iqtisodiy tizimdag'i eng barqaror aloqalarni aniqlab, ularni mintaqaviy tizimdag'i jarayonlarga ta'sir ko'rsatadigan yoki o'zgartirishi mumkin bo'lgan muayyan axborot impuls signali berish uchun optimal turini tanlaydi.

O'z-o'zini tashkil etish jarayoni murakkab bo'lgan nochiziqli tizimda mustaqil sodir bo'ladi va bu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimining ichki xususiyatlariiga bog'liq bo'ladi. O'z-o'zini tashkil etish mexanizmining algoritmi ishtirokchilarning jamoaviy xatti-harakati va ularning o'zaro ta'siri bilan amalga oshiriladi, markazning boshqaruvchi roli esa faqat iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarning tabiiy va obyektiv tavsifdagi munosabatlarini qo'llab-quvvatlovchi muvofiqlashtiruvchi funksiyadan iborat. Boshqacha qilib aytganda, ijtimoiy harakatlar uchun mumkin bo'lgan muayyan imkoniyatlari variantlari yaratiladi, bu o'z navbatida mintaqaviy muhitda qabul qilingan ijtimoiy-iqtisodiy me'yorlarga muvofiq tanlovini belgilaydi.

Murakkab tashkil etilgan mintaqaviy iqtisodiy tizimlar uchun doimiy o'zgaruvchanlik tabiiy qonuniyatlari holat bo'lib bu o'z-o'zini tashkil etishning konstruktiv mexanizmi natijasi hisoblanadi. Shu bilan birga, ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmaning tartibga solinishi uning ichki imkoniyatlari va tashqi ta'sirlar uning spontan o'z-o'zini tashkil etish jarayonini rag'batlantiruvchi omillar ta'sirida sodir bo'ladi. Buning natijasida, turli-tuman ichki endogen va tashqi ekzogen aloqalarni boshqarishni, iqtisodiy

tizimning elementlari va qismlarini izchil muvofiqlashtirishni ta'lab etadi va natijada ularning o'zaro hamkorligi mintaqaviy darajada iqtisodiyotda to'plangan muammolarni hal qilishga qaratiladi. Shunday qilib, tizimli o'z-o'zini tashkil etuvchi yondashuv mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmini shakllantirish uchun uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi, bu mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini mavjud ichki xususiyatlari va tashqi muhit bilan o'zaro hamkorligining shakllangan usuli tufayli sifatli va xavfsiz rivojlanishiga imkon yaratadi.

1.3-§. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillari va ularning tasnifi

Mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi qator elementlardan va ular o'rtaсидаги о'заро aloqadorliklardan iborat. Iqtisodiy rivojlanishning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bu tasodifiy omillarning o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan turli xil iqtisodiy subyektlar manfaatlarning qaramaqshiligidir. Mintaqaga darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammosining dolzarblii mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi xavfsizligiga ta'sir qiluvchi asosiy omillarning "arxitekturasini" o'rganish va ularni ma'lum bir mezonlarga muvofiq tizimlashtirish zarurligini belgilaydi.

Mintaqaning real va potensial ichki va tashqi tahididlari yoki iqtisodiy faoliyat sohasida jamiyat hayotiga ma'lum darajada zarar yetkazishi mumkin bo'lgan sharoitlar va xavf tug'diradigan omillar to'plami sifatida aniqlanadi. Tahididlар o'sib borayotgan beqarorlik sharoitida ichki va tashqi jarayonlarning doimiy rivojlanishi tufayli yuzaga kelganligi sababli, ularga javob berish uchun mintaqaga iqtisodiyotni, uning tashqi va ichki muhitini ma'lum darajada himoya qilinishini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak.

Mintaqasini iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashda yalpi ichki va tashqi omillarni tadqiq etishga bog'liq bo'lib hisoblanadi, chunki har bir omilning ta'sir samarasini iqtisodiy xavfsizlik tizimining turli elementlariga turli darajada ta'sir etadi. Shuning uchun biz mintaqaga darajasida iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi yalpi omillarni aniqlash va ularni tizimlashtirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. "Omil bu (lotincha so'z bo'lib "biror narsaning yaratuvchisi") - harakatlantiruvchi kuchi, biror-bir jarayonning sababchisi, uni keltirib chiqaruvchi yoki uning

xususiyatlarini tavsiflovchi "degan ma'noni anglatadi"⁴³. Tadqiqot doirasida biz mintaqal qitsodiy tizimning qitsodiy xavfsizligini ta'minlash yoki uning darajasini oshirish jarayoniga obyektiv ta'sir ko'rsatadigan harakatlantiruvchi kuchlar yoki omillarni tushunamiz.

Mintaqada qitsodiy xavfsizlikni ta'minlash va uni amalga oshirish omillari va shart-sharoitlarni farqlash lozim. Agar omillar asosan obyektiv holatda bo'lsa, shart-sharoitlar esa qitsodiy xavfsizlik darajasini ta'minlash va takomillashtirish natijasida o'zgarib turadigan turdosh shart-sharoitlardir. Agar omillar asosan iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilaydigan obyektiv holatlar bo'lsa, unda mintaqaviy tizimni ichki va tashqi tahdidlardan uzlusiz doimiy himoya qilish jarayonini ta'minlash uchun shart-sharoitlarni shakllantirish yoki yaratilishi lozim. Mintaqada qitsodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun tegishli shart-sharoit yaratish uchun iqtisodiy xavfsizlik omillarini aniqlash va ularni tizimlashtirish lozim.

Fikrimizcha, bugungi kunda amal qilayotgan omillar kelajak istiqbolda mintaqaning qitsodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga asos bo'lib xizmat qiladi. Bunday shart-sharoitlarga: sanoat, oziq-ovqat, kadrlar, energetika, innovatsiya, ijtimoiy, ekologik va hokazolarning mintaqal siyosatining ustuvor yo'nalishlarida resurslarni jamlash; qitsodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun mas'ul xodimlar tomonidan qo'shimcha ko'nikma va vakolatlarga ega bo'lish; tegishli axborot-kommunikatsiya muhitini shakllantirish, ma'lumotlar bazalarini yaratish va boshqalar. Shunday qilib, omillar kelajak istiqbolda qitsodiy xavfsizlik darajasini oshirish muammosini muvaffaqiyatli hal qilish uchun zarur shart-sharoitlarga aylanishi mumkin.

Iqtisodiy adabiyotlarda qitsodiy xavfsizlik omillarining tasniflari ko'pincha turli mezonlarga muvofiq beriladi, ammo kamdan-kam hollarda qitsodiy xavfsizlikni ta'minlash omillari va shart-sharoitlarini tarkibiy tuzilmasini shakllantirishga urinishlar mavjud bo'lgan. Ikkinchidan, ba'zi tadqiqotchilar turli xil xususiyatlarga ko'ra omillarni tizimlashtirishni yaxshi ko'radilar. Biroq barcha omillarni tasniflashning iloji boricha to'liq aks ettirish istagi ma'lum bir tadqiqot obyektiga nisbatan asosiy vazifalardan biri sifatida olingan emas.

Ba'zi tadqiqotchilar qitsodiy xavfsizlik muammolarini tahlil qilishda qitsodiy xavfsizlik omillarini boshqaruvchanlik, ustuvorlik, ta'sir qilish dastaklari, baholash va mahalliylashtirish kabi tasniflash belgilaridan

⁴³Tolkoviy slovar russkogo yazika / pod red. D.N. Ushakova. M. 2017 g. S. 764..

foydanishni tavsiya etadilar. Bir qator tadqiqotchilar esa iqtisodiy xavfsizlik omillarini harakat davri (uzoq muddatli, qisqa muddatli), namoyon bo'lish darajasi (mahalliy, mintaqaviy, milliy darajalar) va boshqa xususiyatlariga ko'ra tasniflashga xarakat qilishadi⁴⁴.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga turli xil ta'sir ko'rsatadigan ichki va tashqi omillarni taqdim etishning umume'tirof etilgan tizimlashtirilgan usulining yo'qligi iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun samarali instrumentlar va mexanizmlarni yaratish va ulardan foydanishga to'sqinlik qiladi. Tadqiqot ishida taklif etilgan mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik omillarining tasnifi, ularni respublika subyektlarining iqtisodiy xavfsizligini oshirish strategiyasi va dasturlarini ishlab chiqishda hisobga olish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonida qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga asos yaratadi hamda uni oshirish uchun jalg qilingan resurslardan yanada oqilona foydanishni ta'minlaydi.

Iqtisodiy xavfsizlikning tashqi va ichki omillariga bo'lish bilan bog'liq tasniflar Rossiyalik Ye.A.Oleynikov⁴⁵, V.V.Krivorotov, A.V.Kalin, N.D.Eriashvili⁴⁶, V.K.Senchagov⁴⁷ va boshqa ko'plab olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida keltirilgan. Ta'sir sohalari bo'yicha omillarning tasnifi V.K.Senchagovning umumiy tahriri ostida yozilgan ilmiy monografiyada tavsiya etilgan. Bu yerda mintaqaning tashqi va ichki omillari makro va mezo - iqtisodiy darajalar bilan ifodalanadi. Bir tomonidan, bo'linish mintaqaviy asosda, ya'ni mamlakat darajalari bo'yicha, ikkinchi tomondan - ijtimoiy-iqtisodiy subyektlarning tarmoq faoliyat turlari bo'yicha ham amalga oshirilgan⁴⁸.

Ushbu tadqiqot ishida iqtisodiy xavfsizlik omillarining ko'p belgilari bo'yicha tasnifi taklif etilgan bo'lib uning har bir bo'g'ini darajasida

⁴⁴ Ekonomicheskaya bezopasnost regionov Rossii: monografiya /S.N. Mityakov, D.N. Lapayev, YE.S. Mityakov i dr. - 3-e izd., pererab. i dop. - Nijniy Novgorod: Nijegorodskiy gosudarstvennyy tehnicheskiy universitet im. R.E. Alekseyeva, 2019. - 299 s.


⁴⁵Oleynikov, YE.A. Ekonomicheskaya i natsionalnaya bezopasnost: uchebnik / YE.A. Oleynikov; pod red. YE.A. Oleynikova. - Moskva: Ekzamen, 2004..

⁴⁶ Krivorotov, V.V. Ekonomicheskaya bezopasnost gosudarstva i regionov: ucheb. posobiye dlya studentov vuzov, obuchayushchisa po napravleniyu «Ekonomika» / V.V. Krivorotov, A.V. Kalina, N.D. Eriashvili. - Moskva: YUNITI-DANA, 2012. - 351 s. - Tekst: neposredstvenniy.

⁴⁷Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshy kurs: uchebnik / V.K. Senchagov. - 2-e izd. - Moskva: Delo, 2005. - 896 s. - Tekst: neposredstvennyy.

⁴⁸ Senchagov, V.K. Ekonomicheskaya bezopasnost Rossii: Obshiy kurs: uchebnik / pod red. V.K. Senchagova. - 3-e izd., pererab. i dop. - Moskva: BINOM. Laboratoriya znanii, 2016. - 97-113 s. - Tekst: neposredstvennyy.

tanlangan iqtisodiy xavfsizlik omillari to'plamini tizimlashtirish imkonini beradigan shakli taklif etilgan. Bu, fikrimizcha, mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash darajasini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni shakllantirish va ularni asoslash, shuningdek mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasini ishlab chiqishda xavf va cheklovlarni hisobga olish uchun zarur bo'lib hisoblanadi.



1.3.1-rasm. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligining kompleks omillari

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagi mezonlarga muvofiq tasniflash taklif etiladi:

- boshqaruv darajalari bo'yicha:

- mikro darajada faoliyat yurituvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;
- mezo darajasida faoliyat yurituvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;
- makro darajasida shallanuvchi va namoyon bo'luvchi iqtisodiy xavfsizlik omillari;

-mintaqaviytizim tashkil qiluvchi elementlari bo'yicha (tizim sifatida):

- resursli;
- jarayonli;
- natijaviy omillar;

-mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga nisbatan:


- ichki muhit omillari;
- tashqi muhit omillari;

-mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga ta'sirining tabiatи bo'yicha:

- mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beruvchi omillar (rag'batlantiruvchi);

- iqtisodiy xavfsizlik darajasining oshishiga to'sqinlik qiluvchi omillar.

Tadqiqot ishida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash omillarining mualliflik tasnifi ishlab chiqilgan (1.3.1-rasm). Mintqa ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida iqtisodiyotning mezo-darajasidir. Shu bilan birga, uning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga bir qator omillar ham ta'sir qiladi: makro, mezo va mikro daraja.



1.3.2-rasm. "Mintaqaviy tizim elementlari" belgisi bo'yicha gurublashtirilgan iqtisodiy xavfsizlikning mezodaraja omillari⁴⁹

⁴⁹ Manba: muallif tadqiqotlari asosida ishlab chiqilgan.

Mikro darajadagi omillar - bu mintaqada faoliyat yuritayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy xavfsizlik darajasini belgilaydigan holatlardir. Mezo-darajali omillarni tasniflashda, yuqorida aylib o'tilganidek, turli xil belgilar, shu jumladan ishda foydalanan "tizim hosil qiluvchi elementlarning tarkibi" xususiyatidan foydalanan mumkin. Tizim hosil qiluvchi elementlar (kirishlar, jarayon elementlari, chiqishlar) tarkibi va mazmuniga qarab tuzilgan mezo-darajali iqtisodiy xavfsizlik omillar to'plami 1.3.2-rasmida keltirilgan.

Mintaqaning hududiy va iqtisodiy majmuasi - bu bir-biridan sezilarli darajada farq qiladigan, notejis ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanish, hududning xususiyatlari, tabiiy resurslarning xilma-xilligi, inson kapitalining sifati va boshqalar bilan ajralib turadigan milliy iqtisodiy tizimning quyi tizimidir.

Bu barcha omillar mintaqaning iqtisodiy siyosatini, uning xavfsizlik siyosatini va hokazolarda hisobga olishda turli kuch va ta'sir darajasidagi xavflar, tahdidlarning mavjudligini aniqlashda uslubiy asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu holatlarni hisobga olgan holda omillarni ta'sir xususiyatiga ko'ra makro darajadagi iqtisodiy xavfsizlik omillarining dekompozitsion tizimini ishlab chiqdik (1.3.1-jadval).

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning tavsiya etilgan tasnifi mintaqqa iqtisodiyotini xavfsiz va barqaror faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni shakllantirish, shuningdek mintaqqa darajasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning mavjud mexanizmining zaif tomonlarini aniqlash uchun xizmat qilishi mumkin. Rus olimi S.I.Ojegovning lug'atida "shart-sharoit" atamasi biror narsaga bog'liq bo'lgan muhim holat sifatida ishlatiladi⁵⁰ va ko'rib chiqilayotgan hodisaning tegishli holatining sababi hisoblanadi. Bundan tashqari, "shart-sharoit" tushunchasi o'rganilayotgan jarayonlarning har qanday sodir bo'ladigan muhitini ham o'z tarkibiga oladi.

⁵⁰ Ojegov, S.I. Tolkoviy slovar russkogo yazika <http://www.classes.ru>.

1.3.1.jadval⁵¹

"Ta'sirning tabiatи" bo'yicha iqtisodiy xavfsizlikning makrodarajadagi omillarining dekompozitsiyasi

Makrodarajadagi omillar	Mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasining oshishiga to'sqinlik qiluvchi omillar	Iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga yordam beradigan omillar
Umumiqtisodiy	Iqtisodiyotning turg'unligi; noqulay investitsiya muhit. Yashirin iqtisodiyotining sezilarli darajadagi ko'lami va uning turli faoliyat sohalariga integratsiyasi. Katta miqdordagi tashqi qarz va biznesga soliq yukining yuqori darjasи. Ijtimoiy tabaqalanashuvning yuqori darjasи va x.k.	Xalqaro savdoda va investitsiya oqimlarida faol ishtirok etish (xalqaro ishlab chiqarish kooperatsiyasi) O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasining mavjudligi Import o'mini bosuvchi dasturlarni ishga tushirish, klasterlash, milliy loyihamlar va boshqalar.
<i>Texnologik</i>	Iqtisodiyotning fuqarolik sektorlarining texnologik qoloqligi, sanoat sektorida mashina va uskunalarining ma'naviy va jismoniy eskirishi. Ishlab chiqarishning xorijiy komponentlar, uskunalar va texnologiyalarga bog'liqligi	Faoliyatning turli sohalarida yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish. Xorijiy mamlakatlarning milliy akademiyalari va ilmiytadqiqot markazlari bilan hamkorlik
Tashkiliy-boshqaruв	Hokimiyatning haddan tashqari markazlashuvi Bir qator iqtisodiyot sohalari monopollashtirish IT sohasida malakali kadrlar tanqisligi. "Aqlлarni ko'chishi" Mehnatga nisbatan rag'batlantirishni yo'qligi. Barcha darajadagi menejerlarning mehnat faoliyati maydoni mas'uliyatining zaifligi	Hokuniyatni markazlashtirish va nomarkazlashuvining mutanosibligi. Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirishni rag'batlantirish va ITTKI natijadorligi. Kadrlar malakasini oshirish. O'z-o'zini tashkil etuvchi jarayonlarini rag'batlantirish
Huquqiy	Qonunchilik bazasining nomukammalligi Iqtisodiy jinoyatlarining yuqori	Biznesni innovatsion faolligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi

51 Manba: jadval muallif tadqiqotlari asosida tuzildi.

	<p>darajasi</p> <p>Axborot resurslari va axborot tizimlarini kiber hujumlardan kuchsiz huquqiy himoya qilinishi</p> <p>Korrupsiyaning yuqori darajasi</p>	Raqamli iqtisodiyot subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish tizimini takomillashtirish
Ijtimoiy madaniy	<p>Ijtimoiy tabaqlanish va mulkiy tengsizlik.</p> <p>Sog'liqni saqlash tizimini taraqqiyot darajasini rivojlangan davlatlar darajasidan orqada qolishi.</p> <p>Davlat hokimiyyati organlari faoliyatidan aholi (yoshlarning) ishonchining yo'qligi.</p> <p>Ijtimoiy islohotlar natijasida ijtimoiy tanglik. OAVlarning dezinformatsiyasi. Aholining yangiliklarga va keskin o'zgarishlarga tayyor emasligi.</p> <p>Aholi uchun raqamli xizmatlarning mavjud emasligi yoki ularni noqulayligi.</p>	<p>Aholini sifatli axborot va kompyuter savodxonligi oshirish chora-tadbirlari.</p> <p>Nodavlat tashkilotlar, biznes tuzilmalari va boshqalar ishtirokida talabalar, maktab o'quvchilari o'rtasida ko'ngilli (volonterlik) faoliyatni rag'batlantirish.</p> <p>Axborotlashgan jamiyatni rivojlantirishda davlatning faol ishtiropi</p>
Tabiiy-geografiq	<p>Mintaqaning hududiy maydonining kattaligi va uning tumanlarining uzoqligi.</p> <p>Noqulay iqlim sharoiti.</p> <p>Yomon ekologik holat.</p> <p>Seysmik faoliik zonasasi</p>	<p>Foydali geografik joylashuv</p> <p>Tabiiy resurslarning mavjudligi.</p> <p>Rivojlangan yo'l-transpoort tarmog'i. Rekreatsion zonalar va alohida muhofaza etiladigan hududlar</p>

Mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash va uni rivojlanishi uchun real imkoniyatlarni yaratadigan va uning iqtisodiy xavfsizligini oshiradigan muayyan shart-sharoitlar zarur. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun shart-sharoitga ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar bo'lib hisoblanadi. Sanoat sohasida eng so'nggi yuqori fan sig'imli asbob-uskunalarini, texnologiyalarini ishlab chiqarish va sotib olish, ilmiy-tadqiqot va ta'lim sektorini transformatsiyalash, yetarli intellektual va moliyaviy resurslarning mavjudligini ta'minlash, aholini, biznesni va hukumatning umumiy va yuqori innovatsion madaniyatini va boshqalar.

Biz yuqorida shunga o'xshash sharoitlarni mintaqarining iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishga hissa qo'shishi yoki unga to'sqinlik qilishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan edik. Agar biz omillarning umumiy qabul qilingan tashqi va ichki omillarga bo'linishini asos qilib olsak, hamda unga ularning vujudga kelish obyektivligi belgisini⁵² va iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir qilish tabiatini qo'shsak, biz mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini aniqlaydigan omillarning ko'p omilli modelini olamiz. Bu mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun zarur bo'lgan yalpi shart va sharoitlar to'plamini aniqroq aniqlash uchun foydalanish mumkin.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishni sarhisob qilar ekanmiz, shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy xavfsizlikning ko'plab omillarning amal qilishi va ularning ta'siri obyektiv bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va takomillashtirish jarayonlariga ularning ta'sir qilish juda qiyin. Tegishli siyosatni amalga oshirish va xavfsizlik sohasida samarali choralarни ko'rish orqali turli xil boshqaruв instrumentlari yordamida ularning faoliyatini barqarorlashtirish yoki muvofiqlashtirish mumkin. Iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning strategik vazifalarini hal qilish uchun qulay shart-sharoitlarda tegishli resurslarni ajratish va hk uchun maxsus dasturlarni ishlab chiqish muhim va zarurdir.

Shunday qilib, mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi yalpi omillar mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha ishlab chiqilayotgan strategiyalar, dasturlarning asosini tashkil etishga xizmat qiladi. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar va yo'nalishlarni tanlash ko'p jihatdan iqtisodiy xavfsizlikka ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilish sifatiga bog'liq. Shuning uchun mintaqaviy davlat boshqaruв organlari mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlash, hisobga olish va ularning faoliyatini bashorat qilishi maqsadga muvofiqdir.

⁵² Makina, S.A. Analiz faktorov, vliyayushix na innovatsionnuyu aktivnost rossiyskix predpriyatiy / S.A. Makina, YE.N. Maksimova. - // Audit i finansoviy analiz. - 2010. - № 5. - C. 368-372.

II BOB. QASHQADARYO VILOYATINING IJTIMOIY- IQTISODIY TARAQQIYOT DARAJASI VA UNDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLANISH HOLATI TAHLILI

2.1-§. Qashqadaryo viloyatining mintaqaviy jihatlari va unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlanish holati tahlili

Qashqadaryo viloyati 1943-yilda tashkil topgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy birligi hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasining janubiy qismida joylashgan bo'lib, maydoni 28 567,0 km². Viloyatda 18 ta QFY va 779 ta MFY joylashgan va uning hududida 3408,3 ming aholi istiqomat qiladi, aholi zichligi 1 km² ga 119,3 kishiga to'g'ri keladi.

Qashqadaryo viloyati ma'muriy hududiy tarkibi bo'yicha 2 ta viloyatga buysunuvchi shahar va 15 ta tumanga bo'lingan. Qashqadaryo viloyati Turkmaniston va Tojikiston davlatlari bilan chegaradosh, umumiy davlat chegarasi 313,2 km, hamda Samarqand viloyati bilan (276 km), Buxoro viloyati bilan (98,3 km), Navoiy viloyati bilan (12,5 km), Surxondaryo viloyati bilan (193,8 km) chegaradosh.

Qashqadaryo viloyatning ma'muriy markazi Qarshi shahri. Respublika poytaxti Toshkent shahridan 460 km uzoqlikda joylashgan. Qarshi shahridan eng yaqin tuman markazi Qarshi tumani 10 km, eng uzoq tuman markazi Kitob tumani 130 km uzoqlikda joylashgan. Bu mintaqa aholisini Toshkent shahar va mintaqaga tumanlari bo'yicha harakatida temir yo'l va boshqa turdag'i transport xarajatlari bilan bog'liq muammolarni vujudga keltiradi. Hisob-kitoblarga ko'ra, transport sektoriga kiritilayotgan sarmoyalarning 1 foizga oshirilishi yuk tashish hajmining 0,94 foizga ortishni ta'minlaydi⁵³. Bu mintaqada xizmatlar sifatini oshirish hamda yuk tashish uchun transport yo'nalishlarining yanada diversifikatsiyalanishini, transport logistika tizimi boshqaruvini yanada maqbullashtirishni ta'lab etadi.


Qashqadaryo viloyati hududi shimol va shimoli-g'arbda Qarshi cho'lidagi qiya tekislikda (balandligi g'arbda 200 metrdan sharqda 450-500 metrgacha) joylashgan bo'lib, janubi-sharqda G'uzor vodiysiga, janubda Nishon cho'liga, janubi-g'arbda Sandiqli qumliklariga tutashib ketadi. Viloyatning sharqiy qismi Kitob-Qamashi tog'oldi tekisligidan (balandligi 450-500 metrdan 900-950 metrgacha) joy olgan. Tog'lar

⁵³ Fayzullayev J.S. Zamonaviy transport-logistika tizimining boshqaruv samaradorligini oshirish. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017-yil.

viloyatning shimoli-sharqi va sharqida, shuningdek janubi-sharqi va janubida joylashgan. Iqlimi keskin kontinental, qisman subtropik va quruq.

Mintaqa cho'l, yarim cho'l hamda tog' va tog'oldi hududlarga bo'linadi, umumiy maydonining 31 foizga yaqinini tog' va tog' oldi tumanlari tashkil etib, bu yerlarda aholining 42,2 foizi istiqomat qiladi. Viloyatning g'arb va janubi-g'arbiy qismi cho'l va yarim cho'l hududiga kiradi. Cho'l hududlarida neft, gaz, gaz kondesati, bentonit tuproqlari, g'isht xom-ashyolari va qurilish materiallari ishlab chiqarish uchun zarur qazilma boyliklar aniqlangan.

Viloyatning umumiy yer maydoni 2856,8 ming hektardan iborat bo'lib, uning 81,8 foizi (2316,1 m.ga) dan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi yerlarining 28,8 foizi haydar ekin ekiladigan maydonni tashkil etib, uning 62,7 foizi sug'oriladigan yerlardan iborat. Viloyatda umumiy holatda 47,7 % yerlar sho'rlangan bo'lib, shundan 72,4 % past, 22,8 % o'rta va 5,5% yuqori darajada sho'rlangan⁵⁴. Cho'l hududlari hissasiga viloyat hududining 2/3 qismi to'g'ri keladi. Sug'oriladigan yerlar barcha cho'l hududining 20% ni tashkil etadi. Cho'l hududida neft, gaz, qurilish materiallarining katta zaxiralari aniqlangan va bu yerda 1 mln.ga yaqin kishi istiqomat qiladi.



2.1.1-rasm. Qashqadaryo viloyatining tabiiy-geografik xaritasи

⁵⁴ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil. B.31-33.

Qashqadaryo viloyatida 61 turdag'i foydali qazilma boyliklarining zaxiralari mavjud. Shundan Marganes - 813,4 ming tonna; kvarsit - 1735,4 ming m3; Chinni toshi - 853,9 ming tonna ; pegmatita - 1617,1 ming tonna; Kaliy 400 mln. tonna miqdorda; Glaukonit va bentonit - 15,7 mln. tonna ; Marmar - 2717,0 ming tonna; dolomit - 10038,0 ming tonna; Ohak - 8862,0 ming tonna; Qurilishda fodalaniladigan toshlar - 5936,8 ming m3; sement ashyosi- 265,5 mln. Tonna; keramzit - 14,5 mln.tonna; Oyna ashyosi - 10,0 mln.tonnadan ortiq; va boshqa foydali qazilma boyliklari zaxiralari. Respublikamizda qazib chiqariladigan nefstning 88% va tabiiy gazning 93% viloyatimiz hissasiga to'g'ri keladi⁵⁵. Muborak gazni qayta ishslash zavodi, Ko'kdumaloq neft koni mamlakatimiz yoqilgi energetikasi majmuasida muhim o'rinni tutadi.

Qashqadaryo viloyati agrar-industrial mintaqasi bo'lib, respublika yonilg'i-energetika sohasida yetakchidir. Viloyatning agrar sohaga ixtisoslashuvi uning mamlakat ishlab chiqarish kuchlarini hududiy tashkil etishdagi o'rni va ahamiyatini belgilab beradi.

2021-yil yakunlari bo'yicha Qashqadaryo viloyatida O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotning 6,0 %, sanoat mahsulotlarining 4,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarning 9,2 %, chakana savdo tovar aylanmasining 6,5 %, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 6,6 %, qurilish ishlari hajmining 5,7 %, xizmatlar ishlab chiqarish hajmining 4,7 %, eksportning 1,6 % va importning 1,5 % Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

Mintaqada 2010-2021-yillarda YaHMxajmi, Respublika YaIMni o'sish sur'atlaridan ortda qolmoqda. Respublika YaIM xajmi 2010-2021-yillarda 206,6%ga o'sgan bo'lsa, ushbu davrda Qashqadaryo viloyat YaHM 138,4%ga o'sdi. YaHMning respublikadagi ulushi 2010-yilda 7,5%dan 2021-yilga kelib respublika ko'rsatkichining 6,0%ni tashkil etmoqda⁵⁶. Bunga 2017-2021-yillarda mintaqaning yirik sanoat korxonalarida mahsulot ishlab chiqarish xajmini pasayishi natijasida yuz berdi⁵⁷.

E'tiborli jihat shundaki, 2010-2021-yillar davomida yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish tarkibida sanoat mahsulotidagi ulushi 13,0 foizdan 4,1 foizga kamaygan. Ushbu holat mintaqada sanoatlashish jarayonlarini sezilarli tarzda ortda qolayotganini ko'rsatadi.

⁵⁵ Qashqadaryo viloyatinining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil -B.10.

⁵⁶ Qashqadaryo viloyatinining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil. -B.18.

⁵⁷ O'sha joyda. -B.21.

2.1.1-jadval

O'zbekiston iqtisodiyotida Qashqadaryo viloyatining makroiqtisodiy ko'rsatkichlarini tutgan o'rni⁵⁸

Yillar	2010	2013	2016	1919	2021
O'zbekiston Respublikasida YaLM o'sishi	107,3	107,6	106,1	105,7	107,4
Qashqadaryo viloyatida YaHM o'sish sur'ati	99,9	103,4	103,3	101,8	107,6
Yalpi investitsiyalarda chet el investitsiyasining ulushi (O'zbekistonda %da)	26,4	18,1	20,7	45,8	42,7
Yalpi investitsiyalarda chet el investitsiyasining ulushi (Qashqadaryoda %da)	10,9	15,1	17,4	12,4	6,6
YaHM ulushi	8,9	8,1	7,9	6,1	5,95
Jami aholi soni					
Jami aholi sonidagi ulushi	9,3	9,5	9,6	9,6	9,7
Aholi jon boshiga YaHM respublika ko'rsatkichiga nisbatan	100,5	90,4	74,2	63,3	61,8
Yalpi sanoat mahsulotidagi ulushi	13,0	9,7	8,6	5,4	4,1
Kichik biznesning ulushi	55,0	51,4	64,9	60,1	69,0
Yalpi investitsiyalardagi ulushi	11,0	12,0	14,2	12,4	6,6
Tashqi savdo aylanmasida eksport ulushi	70,5	43,8	31,3	44,2	40,9
Tashqi savdo aylanmasida import ulushi	29,5	56,2	68,7	55,8	59,1

Qashqadaryo viloyat mintaqasining iqtisodiy xavfsizlik darajasiga asosiy fondlarning eskirish darajasi katta ta'sir qilmoqda. Bozor islohotlari sharoitida Qashqadaryo viloyatida asosiy fondlarning eskirish darajasi juda sust darajada kamaydi: 2010-yildagi 52,7% dan 2021-yilning oxirida

58 O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plami. 2010-2018-yillar. -B 250., O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2021-yil. -B.239., Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil. -B.18.

38,4% gacha. Bunday tendensiya asosiy fondlarning yangilanish koifsentini tadqiq etilayotgan davrda 17,1%dan 2021-yilga kelib 12,5%ga tushib qolishi va eskirgan asosiy fondlarni ahamiyatsiz darajada chiqib ketishi 2010-yilda 1,1%dan, 2021-yilga kelib 1,6%ni tashkil qilishi bilan bog'liq. Natijada mintaqaning texnologik qoloqligi quyidagi jadvalda keltirilgan ko'rsatkichlari dinamikasi bilan tavsiflanadi.

2.1.2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinaridiki tadqiq etilayotgan davrda Qashqadaryo viloyatida mashina va uskunalarining eskirish darajasi hamon yuqoriligicha (38,4 foiz) qolmoqda. Bu esa, o'z navbatida mintaqaga YaHM tarkibida yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ulushining past darajada saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda. Aynan mana shu salbiy holatlар mintaqada modernizatsiyalash va ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish jarayonlarini anada jadallashtirish zarurligini taqozo qiladi. Chunki jahonda raqamli iqtisodiyotni rivojlanishi natijasida kompyuter texnologiyalar sohalarida asosiy fondlarning to'la yangilanish muddati 2-2,5 yilni tashkil qilmoqda.

2.1.2-jadval

Qashqadaryo viloyati sanoatini modernizatsiyalash samaradorligining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi, (foizda)⁵⁹

№		2010	2014	2016	2018	2021
1.	Asosiy fondlapning yangilanish koeffisiyenti	17,1	15,6	15,7	16,0	12,5
2.	Asosiy fondlapning chiqib ketish koeffisiyenti	1,1	7,1	1,1	2,1	1,6
3.	Asosiy fondlapning jismoniy va ma'naviy eskirish dapajasi	52,7	50,1	44,6	42,2	38,4
4.	Asosiy fondlarning xizmat qilish yili	35	14	12	11,1	10,2

O'zbekiston Respublikasida Qashqadaryo viloyati mintaqasi xom ashyo eksport modeli xos bo'lib hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatining eksport tarkibida tovarlar va xizmatlar guruhlari bo'yicha 13,6%, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar 19,6%ni tashkil etdi⁶⁰. Bundan ko'rinaridiki Qashqadaryo viloyati eksportining 33,5%dan ko'prog'ini

⁵⁹O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Yillik statistik to'plami. 2010-2018-yillar. –B 250. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati 2021-yil. –B.239.
⁶⁰Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. 2021-yil. 2022-yil B.86.

xomashyo mahsulotlari tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkich mintaqada qo'shilgan qiymatga ega bo'lgan tovarlar hajmi va uning raqobatbardoshligining pastligidan dalolat beradi”⁶¹. Bularning barchasi Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizligiga jiddiy tahdidlarning butun majmuasini yaratadi.

Mintaqada xomashyo eksport modelining ustunligi, uning o'ziga xos bir qator muammolarini aniqlash imkonini beradi:

1. Qashqadaryo viloyatida makroiqtisodiy barqarorlikning jahon xomashyo, energetika narxlariga bog'liqligi, bu esa eksport tarkibida xomashyo, energetika ulushining oshishiga bevosita mutanosib ravishda ortib boradi.

2. Tabiiy resurslarning cheklangan zaxiralari tufayli xomashyo eksport modelini uzoq muddatli rivojlanishning mumkin emasligi. Ba'zi ekspertlarning hisob-kitoblapiga ko'ra, O'zbekistonning nefting geologik zaxiralari-5 mlrd. tonna va tabiiy gazning geologik zaxiralari – 5 trln. kub metr dan ortiq. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, resurs iste'molining hozirgi tendensiyalari va hajmlari davom etsa, Qashqadaryo mintaqasida tabiiy gaz va ko'mir zaxiralari keyingi 20-30-yil davom etadi, neft zaxiralari esa deyarli yaroqsiz holatga kelishi mumkin⁶².

Mintaqaning investitsion jozibadorligi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda tabiiy-iqtisodiy, ishlab chiqarish, ijtimoiy-demografik salohiyatiga bog'liq bo'lgan investitsion faolligiga bog'liqdir⁶³. “Jahon banki tomonidan har yili e'lon qilinadigan «Doing Business» hisobotiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi 2021-yilgi hisobotda 186 ta mamlakatlar orasida 58,3 ball bilan 108-o'rinni egallab, 6 ta pog'onaga ko'tarilgan”⁶⁴. Qashqadaryo viloyatida 2021-yil investitsiya dasturi bo'yicha viloyatda umumiyligi qiymati 3,5 trln. so'mlik 984 ta loyihibar ishga tushirilgan va 8,6 mingdan ziyod yangi ish o'rinnari yaratildi. Xususan, dastur doirasida:

- Kitob tumanida “Kitob-ip-yigiruv” AJ tomonidan qiymati 264,6 mlrd. so'm bo'lgan ip-kalava va mato ishlab chiqarish (ish o'rni 425 ta);

⁶¹Asabayev A.S. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xavfsizligi: integratsiyalashuv va tahidlar. “Iqtisodiyot va ta'llim” journali 2022-yil, №3. –B.141.

⁶² Manba: <http://articlekz.com/node/2628>. UzTransGaz.

⁶³ Sadikov A.A. Osnovi regionalnogo razvitiya: teoriya, metodologiya, praktika//Monografiya. Tashkent. «IQTISOD-MOLIYA», 2005. S. 198.

⁶⁴ Raxmatullayev B.SH. Mamlakatimizda investitsion muhitni jozibadorligini oshirishning asosiy yo'naliishlari. Logistika va iqtisod ilmiy elektron journali. №1.2022-yil.

- Koson tumanida “KosonBaxtTekstil” MChJ tomonidan qiymati 35,0 mlrd. so‘m bo‘lgan matodan tayyor trikotaj mahsulot ishlab chiqarish (ish o‘rni 400 ta);

- Muborak tumanida “YeMGIInterInvestments” MChJ tomonidan qiymati 7,7 mlrd. so‘m bo‘lgan un ishlab chiqarish (ish o‘rni 30 ta) loyihasi ishga tushirildi.

Mintaqada investitsiyalardan samarali foydalanish hamda eksport hajmlarini oshirish bo‘yicha “pastdan-yuqoriga” tamoyili asosida, yangi tizim yo‘lga qo‘yilib, ishlar tashkil etilgan. Har bir shahar va tumanlarda istiqbolli loyihalarni ishlab chiquvchi “Loyiha guruhi” tashkil etilib, ular tomonidan hududning yer osti va yer usti imkoniyatlari tahlil qilinib, har bir shahar va tumanlar kesimida investitsiya va eksport Strategiyasi ishlab chiqilmoqda. Shakllantirilgan investitsiya loyihalarini moliyalashtirish maqsadida salohiyatli tadbirdorlar ishtirokida hududlarda “Xolding kompaniyasi” tashkil etilgan⁶⁵.

Qashqadaryo viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ularni alohida tanlab olingen tarmoqlarga emas, balki bozor tan oladigan va qiyosiy ustunliklarga ega tarmoqlar rivojiga qaratish, mintaqaga bo‘yicha oqilonan joylashtirish, investitsiya loyihalari amalga oshirilishini soddalashtirish, axborotlashtirishni kuchaytirish, infratuzilmani rivojlantirish kabilar muhim hisoblanadi⁶⁶. Bizning fikrimzcha mintaqada investitsiyalarni ichki moliyalashtirish manbalari va investitsion resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish va sifatini yaxshilash asosida korxonalarining moliyaviy ahvolini mustahkamlash orqali ularning investitsion imkoniyatlarini kengaytirish;

- tijorat banklarining investitsiya salohiyatini kengaytirish va bank tizimida bozor mexanizmlarini to‘laqonli ishlatish orqali kreditlar samarasini oshirish;

- aholi mablag‘larini ishlab chiqarishga faol jalb qilishda moliya bozori zamonaviy instrumentlaridan keng foydalanishni tashkil etish va boshqalar.

“ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng jopiy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 20-apreldagi №201-son qarori asosida ishlab chiqilgan dasturdan.

“ Rustamova D.D. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xorijiy investitsiyalarni jalb etishning nazariy asoslari va ustuvor yunalishlari, iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, 2006-y., 112-bet

• iqtisodiyotga investitsiyalarni faol jalg qilishda investitsion agentliklar, injiniring kompaniyalari kabi bozor mexanizmi institutlaridan rag'batlantirish orqali davlatning investitsiyalarni jalg qilishdagi mas'uliyatini xususiy sektorga o'tkazib borish;

• hududlar nisbiy ustunliklarini hisobga olgan holda xomashyonni ikkilamchi va uchlamchi qayta ishlash, yuqori fan sig'imli tarmoqlarini rivojlantirishga investitsiyalar jalg qilishni rag'batlantirish va boshqalar⁶⁷.

Qashqadaryo viloyatining barcha shaharlari va tumanlari u yoki bu tarmoqda o'ziga xos qiyosiy ustunliklar, istiqbolli zaxiralar, foydalanilmayotgan yoki bo'sh turgan maydon va ishlab chiqarish obyektlariga egadir. Bu esa chet el investitsiyalarini ishlab chiqarishga faol jalg qilishda mavjud resurs va zaxiralardan oqilona foydalanish uchun aniq vazifa va chora-tadbirlarni ishlab chiqishni talab etadi. Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, Sh.X.Nazarov o'z ilmiy qarashlarida O'zbekiston mintaqalarining mashinasozlik (Andijon, Samarcand, Xorazm, Toshkent sh.), yoqilg'i-energetika (Qoraqalpog'iston, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Surxondaryo, Toshkent v., Farg'ona), qurilish materiallari (Qoraqalpog'iston, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Surxondaryo, Toshkent v., Farg'ona), yog'ochni qayta ishlash (Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Toshkent v., Toshkent sh. Paxtachilik - to'qimachilik va oziq-ovqat klaster korxonalarini rivojlantirish bo'yicha nisbiy ustunliklarga ega ekanligini keltirib o'tadi⁶⁸.


Qashqadaryo viloyatiga xorijiy investitsiyalarni jalg etish va undan samarali foydalanishning strategik yo'nalishlaridan - bu uning iqtisodiyotining tarkibiy tuzilmasini diversifikatsiya qilish asosida agrar-industrial mintaqadan industrial mintaqaga rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Istiqbolda YaHM tarkibida sanoat va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini ustun darajada rivojlantirish asosida industrial mintaqaga aylantirish strategik vazifadir.

Qashqadaryo viloyati agrar-industrial mintaqqa bo'lganligi sababli uning iqtisodiyotida qishloq xo'jaligi muhim o'rinni egallaydi. 2021-yilda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmi 29352,8 mlrd.so'mni yoki o'tgan yilga nisbatan 102,2 foizni tashkil qildi. Qashqadaryo viloyatida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2021-yilda

⁶⁷Aymuxamedova A.K.Milliy iqtisodiyotda ichki investitsiya salohiyatidan samarali foydalanish yo'llari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2020-yil.

"Nazarov SH.X. Metodologicheskiye aspekti povisheniya konkurentospособности регионов//Monografiya. Tashkent: IFMR, 2014.S.151.

504988 tonna sabzavot (102,4 foiz), 181776 tonna kartoshka (102,8 foiz), 172334 tonna meva va rezavorlar (105,6 foiz), 100579 tonna uzum (110,2 foiz) yig‘ib olindi, hamda 310,8 ming tonna go‘sht 102,9 foiz), 1248,4 ming tonna sut (105,8 foiz), 519,3 ming dona tuxum (95,1 foiz) ishlab chiqarildi. Bu mintaqa aholisini oziq-ovqat xavfsizligi ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.



2.1.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi YaIM hamda Qashqadaryo viloyatining YaHM iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibiy tuzilmasi⁶⁹

Qashqadaryo viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi mintaqalarda iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlash, aholi bandligi va turmush farovonligini o'sishining muhim sifat omillaridan biri sanaladi. Mintaqalarda YaHMda xizmatlar sohasining ulushi 2010-yildagi 38,4 %dan 2021-yilda 58,9%gacha o'sdi. Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 262,4 mld.so'mga, o'sish sur'ati 118,4 % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda savdo xizmatlariga (31,9 %), transport xizmatlariga (22,1 %), moliyaviy xizmatlarga (16,2 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (4,5 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

⁶⁹ Manba: muallif ishlansMASI.

Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmida asosiy dastaklardan biri bu soliq tizimi hisoblanadi. Shu munosabat bilan bugungi kunda mintaqaning byudjet taqchilligi masalasi dolzARB hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatining byudjet daromadlari prognozi 2022-yil uchun 3483,0 mlrd.so'm va xarajatlar esa 5534,3 mlrd.so'mni tashkil qilmoqda. Daromadlar bilan xarajatlar o'rtasidagi farq bugungi kunda respublikadan byudjet transfertlari sifatida qoplanadi. Byudjet tushumlarini ko'paytirish, soliq bazasini kengaytirish, soliqlarni yig'ish samaradorligini oshirish orqali byudjetga qo'shimcha 3677,5 mlrd.so'm tushumlarni ta'minlash mintaqani moliyaviy-iqtisodiy xavfsizlik nuqtai-nazaridan dolzARB bo'lib hisoblanadi.

"Ma'lumki, mahalliy konsolidallashigan byudjet daromadlarining salohiyatini shakllantirishda O'zbekiston Respublikasi hududlarining imkoniyatlari tabiiy-iqlim sharoiti, mavjud mehnat taqsimoti tizimi va iqtisodiyot tuzilishi, ishlab chiqarishning rivojlanish darajasi va boshqalardan kelib chiqqan holda farqlanadi. Ko'pgina iqtisodiy muammolarni respublika darajasidan mintaqaviy darajaga "o'tkazish" amaliyoti, ularning yechimlarini moliyalashtirish uchun mintaqalarda yetarli resurslar mavjud bo'limganda, mintaqalarning iqtisodiy rivojlanishining moliyaviy imkoniyatlarini zaiflashtirdi va mintaqaviy differensiatsiyani kuchaytiradi"⁷⁰. "Tahlillar shuni ko'rsatdiki oxirgi besh yilda mahalliy hokimliklar ixtiyorida qoldirilgan mablag'larni eng yuqori o'sish surati Toshkent viloyatida 27 barobar, Navoiy viloyatida 26 barobar hamda Toshkent shahrida 19 barobarni tashkil etib o'rtacha respublika ko'rsatkichidan yuqoriligini tashkil etmoqda. Ushbu davrda eng kam o'sish Qoraqalpog'iston Respublikasida 4,6, Andijon viloyatida 4,8, Buxoro viloyatida 5,8 va Qashqadaryo viloyatida 6,2 ga to'g'ri kelmoqda"⁷¹. Mahalliy byudjetlarning daromadlarini barqarorlashtirish jarayonida soliqlarning ahamiyatini oshirish hamda mahalliy byudjet daromadlari tarkibini tahlil qilish natijasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Mahalliy byudjetlarning o'z daromadlari, jumladan, mahalliy soliqlar hajmini oshirish va ularning asosida mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining moliyaviy bazasini qayta tiklash maqsadga muvofiq;

⁷⁰Muslimov SH.I. Mahalliy byudjetlarning daromad salohiyati; bugungi kunda uni shakllanishining xususiyatlari va muammolari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnalı №2, mart-aprel, 2020-yil.

⁷¹Ergashev J.A. Mahalliy byudjet daromadlarini oshirish yo'llari. Logistika va iqtisod ilmiy elektron jurnalı №1.2022- yil

2. Mahalliy byudjetga biriktirilgan daromad turlari shuningdek qonunchilik asosida mahalliy soliqlar ro'yxatini kengaytirish maqsadga muvofiq;

3. Mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlash maqsadida umum davlat soliqlaridan ajratmalar miqdorlarini har yili qayta ko'rib o'zgartirish kiritmasdan, hech bo'lmaganda 3 yilda bir marta o'zgartirish kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu esa o'z navbatida mahalliy byudjet daromadlari barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyatida 2021-yil yakuni bilan 217,4 mln.dollarlik eksporti amalga oshirilib, o'tgan yilga nisbatan 168 foiz o'sishga va unda eksportbop maxsulotlar soni 120 taga, viloyat bo'yicha o'zlashtirilgan eksport geografiyasi 40 taga yetkazildi. Qashqadaryo viloyatining tashqi savdo aylanmasida eksportning ulushi 40,9%ni va importning ulushi 59,1%ni tashkil qilmoqda. Bu mintaqqa iqtisodiyotini importga qaramligini ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyatida 2022-yil dasturiga ko'ra eksport hajmini 1,4 barobarga oshirish orqali 256,4 mln.AQSH dollariga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun eksport tarkibida qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini 45 foizdan oshirish; viloyatda eksportchi korxonalar soni 2 barobarga ko'paytirish va Yevropa bozorlariga kirish uchun qayta ishlangan meva-sabzavot mahsulotlariga "Qashqadaryo brendi"ni joriy etish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlikka mintaqqa iqtisodiyotini erishishi, uning raqobatbardoshligini o'sishi, mintaqqa iqtisodiyoti jahon bozoriga moslashishi va hokazolarda nomoyon bo'ladi:

- mintaqada tovarlar importi tarkibida mashina va asbob-uskunalar, tovarlar eksporti tarkibida esa xomashyo ustunlik qiladi. Bu esa mamlakat ishlab chiqarish tarmog'ining raqobatbardosh emasligidan dalolat beradi;
- mintaqqa tashqi savdosida import eksportdan ustunlik qilishi tashqi savdo saldosining manfiyligidan dalolat beradi. Shuningdek, manfiy saldoning ortib borishi mintaqqa iqtisodiyotining import mahsulotlariga qaram bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi mintaqaviy siyosat haqida gapirganda, shuni ta'kidlash kerakki, biz siyosatni, birinchi navbatda, aniq rejalar, dasturlar, maqsadlarni amalga oshirish sharoitida jamoatchilikning o'zaro aloqalari sohasi deb hisoblaymiz; ikkinchidan, har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega muammoga nisbatan amalga oshiriladigan harakat dasturi sifatida; uchinchidan, huquqiy normalar yoki mavjud an'analar bilan

belgilanadigan manfaatlarni muvofiqlashtirish institutlari, mexanizmlari, an'analar, urf-odatlar to'plami sifatida.

Bizning fikrimizcha, iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi zamonaviy mintaqaviy siyosatni shakllantirish jarayoniga quyidagi holatlar sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda:

- davlat tomonidan olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar ko'pincha rivojlanishning mintaqaviy darajasi va o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmagan holda ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi;
- davlatning iqtisodiy bloki tomonidan ko'rilgan choralarga mintaqaviy iqtisodiyotning turli xil shart-sharoitlari va munosabati;
- aholining qashshoqlik darajasining oshishi, doimiy ishsizlik, ijtimoiy keskinlik, tizimni shakllantiruvchi tarmoqlarda davlat kapitalning ustunligi, infratuzilmaning notejis rivojlanishi va boshqalar bilan bog'liq mintaqada to'plangan iqtisodiy muammolarning keskinlashuvi va kuchayishi.;
- mintaqaviy iqtisodiyotning bir qator tarmoqlarini kriminallashuvi va yangi turdag'i iqtisodiy tahdidlarning paydo bo'lishi;
- mintaqaga iqtisodiyotini raqamlashtirishga to'siq bo'lувчи axborot xavfsizligiga tahdidlarning o'sishi. .

2.2-§. Aholining kambag'allik darajasi bilan bog'liq ijtimoiy tahdidlar va uning mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'siri

Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida ijtimoiy sohadagi muammolar: kambag'allikni qisqartirish, aholini va ayniqsa unda yoshlarni bandligini oshirish, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va ularning salomatligini saqlash, sog'lom turmush tarzi, jismoniylar tarbiya va sport, ta'lim va tarbiya, ilm-fan va innovatsion taraqqiyot va aholining muhitoj qatlamlariga ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam sifatini oshirishda mavjud muammolarga alohida e'tibor qaratilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasida, "2020-yil shubhasiz, ijtimoiy himoya sohasida burilish nuqtasi bo'ldi. Avvalo, aholining ma'lum toifasining qashshoqligini birinchi marta tan olib, uni kamaytirish uchun katta ishlarni boshladik" deb ta'kidlab o'tdilar.

Kambag'allik - bu umumiyl holatda jamiyatda ijtimoiy noqulaylik, tengsizlik, ijtimoiy ziddiyatlarni kuchayishi kabi hissiyotlarini shakllanishida ifodalananadi. "Kambag'allik-mehnat uchun resurslarni qayta

yaratishning quiyi chegarasi sifatidagi ish qobiliyatini saqlash darajasida ne'matlarni iste'mol qilish”⁷². Daromadlari minimal yashash darajasidan past bo'lgan, mehnat bozorida raqobatbardosh ta'lim bo'lman va o'zlarini kambag'al va aholining quiyi qatlamlariga qo'shganlarni kambag'allar deb hisoblash mumkin. Demak kambag'allik bu mintaqada iqtisodiyotini barqaror xavfsiz rivojlanishi uchun katta to'siq, kishan sifatidagi ijtimoiy tahdiddir. Kambag'allik darajasini o'sishi mintaqada iqtisodiy o'sish sur'atlarini keskin pasayishiga olib keladi.

2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. 20.04.2022-yildagi №201-sonli O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorida 2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyatida ishsizlik darajasini 2022-yildagi 9,2%dan, 2026-yilga kelib 7,6%ga kamaytirish va unda kambag'allik darajaini 2022-yildagi 9,4%dan 2026-yilga kelib 10,6%da saqlab turish, jami bandligi ta'minlanadigan aholini 82,7%dan 93,2%ga chiqarish rejalarini qabul qilingan. Dasturda aholini kambag'allik darajasini 2022-yildagi 9,4%dan 2026-yilga kelib 10,6%darajasida turishi, birinchidan bu mintaqada so'ngi yillarda aholining tug'ilish darajasini keskin o'sishi bilan bog'liq bo'lsa (mintaqada tug'ilish darajasi bo'yicha Respublikada uchinchi o'rinda turadi), ikkinchidan bu mintaqadagi qator ijtimoiy-iqtisodiy muammolar bilan ham bog'liq bo'lib hisoblanadi.

Mintaqada kambag'allikni qisqartirish, aholi daromadlarini tabaqlanishini tartibga soluvchi kopleks chora-tadbirlar soliq og'irligini optimallashtirish, aholini ijtimoiy jihatdan muxtoj qatlamlarini manzilli va maqsadli himoya qilish, iste'mol narxlari va ta'riflarini, minimal iste'mol savatchasini iqtisodiy xavfsiz darajada saqlab turish, byudjet tashkilotlari hodimlariga ish haqi va pensiyani o'z vaqtida va oldindan oshirish ko'rinishida amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida aholini ijtimoiy jixatdan keskin tabaqlanishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida qat'iy kompleks ijtimoiy sug'urta dasturlari, ijtimoiy èrdam dasturlari va mehnat bozori dasturlari amalga oshirilmoqda. Ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash ijtimoiy siyosatning amalga oshirishning ustivor yo'nalishi, mintaqani barqaror sur'atlarda rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ijtimoiy

⁷²Abulqosimov X.P. va boshqalar. O'zbekistonda aholi turmush darajasining barqaror o'sishi. “Akademiya” Toshkent 2011-y.- B.24.

xavfsizlik shaxsni, oila va jamiyatning hayotiy zarur mafaatlarini ichki va tashqi xavf-hatardan himoya qilingan holati hisoblanadi⁷³.

Mintaqada ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash darajasi bu- aholini himoya qilishning asosiy mezoni xavfsizlik darajasi hisoblanadi. Jahan amaliyotida va O'zbekistonda ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning mezon ko'rsatkichlari, ya'ni chegaraviy qiymatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- oziq-ovqat mahsulotlarini importdagi ulushi -30 % ;
- fanga sarflanadigan xarajatlarni YALMdagi ulushi -2% ;
- aholini 10 % eng boy qismi daromadlarini 10 % eng kambag'al aholi guruhi daromadlariga nisbati 10:1 ;
- kambag'allik chegarasidan quyida yashovchi aholining umumiy sonidagi ulushi -10 %;
- minimal va o'rtacha ish haqi nisbati 1:3 ;
- qoplash koeffitsiyenti pensiya miqdori o'rtacha ish haqining 40,0%dan kam bo'lmasligi kerak;
- qayd etilgan va yashirin ishsizlik darajasi 8-10 % ;
- kutilayotgan aholi yashashining davomiyligi va hokazo⁷⁴.

Tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlash darajasi, uning mezon ko'rsatkichlari, ya'ni chegaraviy ko'rsatkichlariga nisbatan qanday og'ishlar borligini va uni mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirini mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini tahlil etish orqali baho berildi. 2021-yil 1-yanvar holatiga mintaqada doimiy aholi soni 3408,3 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 72,9 ming kishiga yoki 1,2 foizga ko'paydi. Aholining tabiiy ko'payishi bo'yicha mintaqaga Respublika ko'rsatkichidan yuqori bo'lib Samarqand 22,0 va Surxondaryo viloyatida 22,7 promildan keyin 21,7 promil bilan Respublikada aholini tabiiy o'sishi bo'yicha uchinchi o'rinda turadi. Bu 2010-2021-yillarda mintaqada keskin demogarifik o'sish bo'lganligini ko'rsatadi⁷⁵. Mintaqada aholi sonini keskin o'sishi bilan kambag'allik darajasini o'sishi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlik mavjud. Viloyat aholisining 42,9% shahar va 57,1% qishloq sharoitida

⁷³ Vaxabov A.V., Davronov I. Covid-19 sharoitida aholi daromadlarini tabaqlanishi muammolari. "Yangi O'zbekiston strategiyasining ijtimoiy sohasidagi tahidilar va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta'sirini baholashning nazariy - metodologik asoslari" mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumanli materiallari. T. 2022-yil 29-aprel JXU.

⁷⁴ Doklad o sostoyanii grajdanskogo obyestva 2020. <https://old.oprf.ru//comissions/>.

⁷⁵ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil –B. 117-118.

istiqomat qiladi. Bu mintaqada urbanizatsiya darajasini ifoda etib, mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga va uning ijtimoiy va iqtisodiy xavsizligiga salbiy ta'sir qiladigan omil bo'lib hisoblanadi. Shu munosabat bilan 2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturida Qashqadaryo viloyatining urbanizatsiya darajasini 50 foizga yetkazish rejalashtirilgan.

Mintaqada mehnat resurslari soni 1811,1 ming kishini, uning 1286,7 ming kishi band hisoblanadi. Band bo'lган mehnat resurslarining 488,2 mingi rasmiy band bo'lsa, 798,5 mingi norasmiy band bo'lib hisoblanadi. 2021-yilda bandlikka ko'maklashuvchi markazlariga ishga joylashtirishda yordam berishni so'rab 147939 nafar fuqaro murojaat qildi, ularning 3847 nafari ishsizlik maqomini olgan. Mintaqada agrar-industrial viloyat bo'lганligi sababli qishloq xo'jaligida yashirin ishsizlik mavjud. Bu mintaqada bandlik sohasidagi muammolar, munosib maosh va ishsizlik darjasini yuqori bo'lган bir paytda ish o'rinnlarining yetishmasligi mehnat bozoridagi tahdidlarni vujudga keltiradi.


Mintaqada mehnatga layoqatli aholi tarkibida iqtisodiy faol aholining ulushi o'rtacha 70 foizni tashkil etadi, ularning bandlik darajasi esa 66-67% darajasida o'zgarib turadi. Shu bois aholining faol bo'lмаган qismini iqtisodiy faol aholi tarkibiga jalb etish dolzarb muammo bo'lib, bu jarayon yashirin bandlikni cheklash, qisman, to'liq bo'lмаган bandlik yoki kasanachilikni rag'batlantirish, davlat tashkilotlarida bandlikni ta'minlashning qonunchilik bazasini takomillashtirish va aholi bandligi, mehnat migrantsiyasini davlat nazorati mexanizmi bilan ta'minlash yo'lli orqali amalga oshirilmoqda⁷⁶.

Qashqadaryo viloyatida 2021-yilda o'lганlar soni 14981 kishini tashkil qildi va o'lim koeffitsiyenti 4,4 promilleni tashkil qildi. Vafot etganlar umumiyligi sonidan 58,8%i qon aylanish tizimi kasalliklaridan; 7,0%i o'simta kasalliklaridan, 4,7%i ovqat hazm qilish organlari kasalliklaridan, 8,5%i nafas olish organlari kasalliklaridan, 5,3%i baxtsiz hodisa, zaharlanish jarohatlardan, 1,8% yuqumli va parazitar kasalliklaridan va 13,9% boshqa kasalliklaridan vafot etgan. Bu mintaqada aholisi genofoni bilan bog'liq o'ziga xos ijtimoiy muammolar va tahdidlar mavjudligidan dalolat beradi.

⁷⁶ Xolmuratov S.E. O'zbekiston Respublikasi hududlarida mehnat resurslaridan samarali foydalanish va aholi bandligini oshirish yo'llari. Iqtisodiyot va ta'lim" 2022-yil №2 son. – B. 218.

2021-yilda FHDYo organlarida 30580 ta nikohlar va 2865 ta ajralishlar ro'yxatga olindi. Ming aholiga nisbatan 9,1 promille nikoh, ajralishlar 0,8 promille to'g'ri keladi. 2021-yilda viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 11580 kishini va migratsiya qoldig'i minus 9146 ming kishiga teng bo'ldi⁷⁷. Mintaqada aholining salbiy migratsiyasiga sabab, asosan yoshlarni yuqori ish haqi va ish sharoitlarini izlab Respublika markazlariga va chet elga ko'chib ketishi sabab bo'lmoqda.

Buning asosiy sabablaridan biri bu 2021-yilda O'zbekiston Respublikasida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 3208,2 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, mintaqada 2500,1 ming so'mni tashkil etdi. Bu Respublika ko'rsatkichining 77,9%ni tashkil etadi. Qashqadaryo viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqini Respublika ko'rsatkichining 77,9%oni tashkil qilishining asosiy sabablaridan biri mintaqada mehnat resurslarining asosiy 30%dan yuqori qismi qishloq xo'jaligida inklyuziv band ekanligi hamda sohada yashirin ishsizlik darajasini yuqori ekanligi bilan bog'liq.



2.2.1-rasm. Qashqadaryo viloyatida tarmoqlar kesimida o'rtacha oylik ish haqi (2021-yil 1-yanvar holatiga ming so'mda)⁷⁸

Mintaqada o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi tarmoqlar kesimida ham keskin farq qiladi. Qashqadaryo viloyatida tarmoqlar kesimida eng yuqori o'rtacha oylik ish haqi moliya va sug'urta faoliyatiga - 6728,3 so'm to'g'ri kelmoqda. Bu viloyat ko'rsatkichidan 269 %ga

⁷⁷Qashqadaryo viloyatinining statistik axborotnomasi. Qurshi 2021-yil –B. 57-58.

⁷⁸O'sha manba.

yuqori ekanligini bildiradi. Eng quyi ko'rsatkich sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish tarmoqlariga to'g'ri kelmoqda. Bu tarmoqda o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi viloyatning o'rtacha ko'rsatkichining 71,0%ni tashkil qilmoqda. Mintaqada eng quyi ish haqi darajasi bilan eng yuqori ish haqi darajasi o'rta sidagi variatsiya koeffisiyent 3,78 to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqada uchun juda katta variatsiya koeffisiyent tashkil qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Hududlarda, ayniqsa, qishloqlarda aholining aksariyat qismi yetarli daromad manbaiga ega emasligi sir emas."⁷⁹ Bugungi kunda O'zbekiston uchun qashshoqlik chizig'i – kuniga 3,2 AQSH dollaridan kam pulga yashash degani, misol uchun besh kishidan iborat oilaning yalpi daromadi oyiga 480 dollar yoki 4,6 million so'mdan kam bo'lsa, bu oilani kambag'al deb hisoblash mumkin⁸⁰. Tahlillarga ko'ra O'zbekistonning ayrim mintaqalarida daromad notejis taqsimlanganligini anglatmoqda. Kambag'allikning yuqori darajasi va o'rta sinf aholining umumiy aholi sonidagi ulushining eng quyi darajasi bo'yicha Qashqadaryo viloyati Respublikada sezilarli darajada yuqori o'rinda turadi.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'mni beqiyosdir. "Tadbirkorlik iqtisodiy faoliyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida iqtisodiy maxovik bo'lib, bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini va iste'mol talablarini e'tiborga olgan holda kengaytirilgan takror ishlab chiqarishning uzuksizligini ta'minlaydi"⁸¹. Fikrimizcha, tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy xavfsizligi – tadbirkorlik subyekti tomonidan amalga oshirilgan huquqiy, tashkiliy-iqtisodiy, moliyaviy, ijtimoiy-iqtisodiy va injener texnik tavsifdagi chora-tadbirlar tizimi tufayli vujudga keltirilgan hayotiy muhim iqtisodiy manfaatlarining ichki va tashqi xavf-xatarlardan himoyalanganlik holatidir.


Mintaqaning asosiy qishloq xo'jaligi korxonalari bo'l mish fermer xo'jaliklarini O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi tomonidan tadbirkorlik subyektlariga qo'shganligi sababli mintaqada kichik biznes va tadbirkorlikning YaHMdag'i ulushi Respublika

⁷⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning 2020-yil 24-yanvardagi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Xalq so'zi, 2020-yil 25-yanvar, № 19 (7521).

⁸⁰ Mustafaqulov SH.I., Murodillayev N., Xamidov R. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 1, yanvar-fevral, 2020-yil.

⁸¹ Mustaydinov K. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida tadbirkorlikni rivojlantirish muammolari. Dok.dis. avtoreferat.-T.: 2004. - S.52.

ko'satkichidan yuqori ekanligini ko'rsatmoqa. YaHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 69,0 %i kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to'g'ri keldi.



2.2.2-rasm. O'zbekiston Respublikasi YaIMda hamda Qashqadaryo viloyati YaHMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushini o'zgarish dinamikasi⁸²

Qashqadaryo viloyati ta'lim sohasida O'zbekiston Respublikasida yetakchi mintaqalardan biri hisoblanadi. Mintaqada 1173 ta umumta'lim maktabi mayjud bo'lib unda 641 ming o'quvchi o'qiydi. Umumta'lim maktablarida 57,1 ming o'qituvchi mehnat qiladi. Mintaqada 524 ta bolalar bog'chalari mavjud bo'lib unda 76,6 ming bola tarbiya oladi va unda 7,7 ming tarbiyachilar mehnat qiladi. Oliy o'quv yurtlari soni 6 ta va unda 28,2 ming talaba tahsil oladi. Mintaqada kasb-hunar kollejlari soni 17 ta, Akademik litseylar soni 7 ta va kasb-hunar maktablari soni 36 tani tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasi eng rivojlangan zamonaviy sog'liqni saqlish tizimiga ega. Unda 88 ta shifoxona, 504 ta ambulatoriya-poliklinikalar mavjud. Ushbu sog'liqni saqlash tizimida vrachlar soni har 10 ming aholiga 19 taga to'g'ri keladi. Mintaqada 63 ta madaniyat markazlari, 14 ta istirohat bog'lari, 63 ta madaniyat va aholi dam olish markazlari, 4 ta teatr, 3 ta muzey va 23 ta axborot resurs markazlari mavjud.

⁸²O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T. 2022-yil, Qashqadaryo viloyatinining statistik axborotnomasi. 2021-yil. 2022-yil ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy xavfsizligiga mintaqadagi barcha xizmat yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlarning soni katta ta'sir qiladi (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval

Barcha xizmat yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlarning bududlar kesimidagi soni⁸³

№	Mintaqalar	Barcha xizmat yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlarning soni	Ulardan			
			Ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatlar	O'ta og'ir jinoyatlar	Uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar	Og'ir jinoyatlar
1.	O'zbekiston Respublikasi	111 082	55 084	27 964	24 527	3 507
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	3 306	1 467	930	800	109
3.	Andijon	6930	3151	1857	1671	251
4.	Buxoro	5267	2509	1304	1341	113
5.	Jizzax	2731	1134	883	651	63
6.	Qashqadaryo	5813	2722	1659	1298	134
7.	Navoiy	2998	1447	853	621	77
8.	Namangan	7054	3327	1926	1646	155
9.	Samarqand	7505	3493	1955	1599	458
10.	Surxondaryo	5041	2412	1295	1130	204
11.	Sirdaryo	3138	1409	952	680	97
12.	Toshkent vil.	11957	5574	3597	2232	554
13.	Farg'ona	19903	10861	4730	3968	344
14.	Xorazm	2929	1224	800	771	134
15.	Toshkent sh.	25543	13971	4866	5933	773

2021-yilda respublikamizda jami 111082 ta jinoyat qayd etilgan. Qayd etilgan jinoyatlarning 5,2% Qashqadaryo viloyatiga to'g'ri keladi. Qashqadaryo viloyati jinoyatchilik darajasi bo'yicha Respublikada quyi o'rnlarni egallaydi, bu ijobjiy holat. Biroq ro'yxatga olingan jinoyatlar soni bo'yicha har 10,0 ming aholiga nisbatan 31,8 ta jinoyat to'g'ri kelmoqda. Oxirgi 3 yilda ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2,4 barobar

■ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T. 2022-yil, ma'lumotlari asosida mualif tomonidan tuzilgan.

oshgan. 2021-yilda barcha xizmat yo'nalishlari bo'yicha ro'yxatga olingan jinoyatlarning 49,6 % i (55084 ta) ijtimoiy xavfi katta bo'limgan jinoyatlar hisoblanib, 25,2 % i (27964 ta) uncha og'ir bo'limgan jinoyatlar, 22,1 % i (24527 ta) og'ir jinoyatlar, 3,2 % i (3507 ta) o'ta og'ir jinoyatlar hissasiga to'g'ri keladi.

Jinoyat sodir etgan voyaga yetmaganlarning 224 nafarni ishlamaydigan va o'qimaydigan voyaga yetmaganlar tashkil etib, umumiy sonining 8,6 % ini tashkil etdi. Ularning soni bo'yicha Toshkent (57 nafar), Qashqadaryo viloyati (21 nafar), Andijon viloyati (25 nafar) va Toshkent shahri (50 nafar) yetakchilik qilmoqda.

Tadqiqot ishida mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlanish holatini ochib berish uchun ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida Qashqadaryo viloyatining SWOT-tahlili amalga oshirildi. Tahlil natijalariga ko'ra mintaqaning kuchli, zaif tomonlari, imkoniyatlari va mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga ta'sir etuvchi tahdidlar aniqlandi.

Kuchli jihatlar

Qashqadaryo viloyati agrar-industrial bo'lib, umumiy yer maydoni 2856,8 ming hektardan iborat bo'lib, uning 81,8 foizidan qishloq xo'jaligida foydalaniladi. Qishloq xo'jaligi yerlarining 28,8 foizi haydab ekin ekiladigan maydonni tashkil etib, uning 62,7 foizi sug'oriladigan yerlardan iborat.

Qashqadaryo viloyati O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotning 6,0 %, sanoat mahsulotlarining 4,1 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larning 9,2 %, chakana savdo tovar aylanmasining 6,5 %, asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 6,6 %, qurilish ishlari hajmining 5,7 %, xizmatlar ishlab chiqarish hajmining 4,7 %, eksportning 1,6 % va importning 1,5 % Qashqadaryo viloyati hissasiga to'g'ri keldi.

Mintaqada xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi 200 dan ortiq korxonalar faoliyat olib bormoqda. Qo'shma korxonalarning umumiy sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi 10,3%ni tashkil etadi.

Mehnat resurslari. 2020-yilning 1- yanvar holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3280,1 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 67,0 ming kishiga yoki 1,2 foizga ko'paydi. Mehnat resurslari 1806,8 ming kishini tashkil etadi. Iqtisodiyotda band bo'lganlar 1232,9 ming kishi. Uning 453,0 ming rasmiy va 769 ming kishi norasmiy band bo'lib hisoblanadi.

**Ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida Qashqadaryo viloyatining
SWOT-tahlili⁸⁴**

Kuchli(strength) jihatlar	Zaif(weaknegr) jihatlar
<p>Mintaqada Respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan 163 ta yirik sanoat korxonalarini 61 turdagidan foydali qazilma boyliklarining zaxiralari mavjud.</p> <p>Qashqadaryo viloyati qishloq xo‘jaligida boy tabiiy yer resurlar va yaaylovlarining mavjudligi.</p> <p>Mintaqa YaHMda kichik biznesning ulushi 60,1%ni, Kichik biznesda jami band bo‘lgan aholining 80% mehnat qilmoqda.</p>	<p>Mintaqada sanoat asosan qazib olish va uni qayta ishlashga ixtisoslashgan, Respublikada xom ashyo eksport modeli xos.</p> <p>Butun viloyat suv xo‘jaligi infratuzilmasi tizimi sezilarli darajada jismoniy va ma’naviy eskirgan.</p> <p>Yerlarning o‘rtacha balbaniteti 51 balni tashkil etadi va umumiye kin maydonining 68,9% yerlar yuqori sho‘rlanish darajasiga ega.</p>
Imkoniyatlar (opportunities)	Taxdidlar (threats)
<p>Mintaqadagi mavjud mineral va qishloq xo‘jalik resurslarini samarali qayta ishlash;</p> <p>yuqori qo‘silgan qiymatga ega bo‘lgan raqobatbardosh sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish;</p> <p>ASMda integratsiya jarayonlarini kuchaytirish asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini 100% qayta ishlashga erishish;</p>	<p>2010-2021-yillarda mintaqqa YaHM Respublika YaIM xajmining o’sish sur’atlaridan ortda qolishi bilan bog‘liq mintaqaning makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarini yomonlashuvii;</p> <p>Resurslarning cheklanganligi tufayli xom ashyo eksport modelini uzoq muddatli rivojlanishning mumkin emasligi.</p>

Zaif (weaknegr) jihatlar

Viloyatda umumiy holatda 47,7 % yerlar sho‘rlangan bo‘lib, shundan 72,4 % past, 22,8 % o‘rtalama va 5,5% yuqori darajada sho‘rlangan. Cho‘l hududlari hissasiga viloyat hududining 2/3 qismi to‘g‘ri keladi. Sug‘oriladigan yerlar barcha cho‘l hududining 20% ni tashkil etadi.

Bozor islohotlari sharoitida Qashqadaryo viloyatida asosiy fondlarning eskirish darajasi juda sust darajada kamaydi: 2010-yildagi 52,7% dan 2021-yilning oxirida 38,4% gacha. Bunday tendensiya asosiy

⁸⁴ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

fondlarning yangilanish koeffisiyent tadqiq etilayotgan davrda 17,1%dan 2021-yilga kelib 12,5%ga tushib qolishi va eskirgan asosiy fondlarni ahamiyatsiz darajada chiqib ketishi 2010-yilda 1,1%dan, 2021-yilga kelib 1,6%ni tashkil qilishi bilan bog'liq. Natijada mintaqqa sanoati texnologik qoloqligi kuzatilmoxqda.

Qashqadaryo viloyatning ma'muriy markazi Qarshi shahri, Respublika poytaxti Toshkent shaxridan 460 km uzoqlikda joylashgan. Qarshi shahridan eng yaqin tuman markazi Qarshi tumani 10 km, eng uzoq tuman markazi Kitob tumani 130 km uzoqlikda joylashgan. Bu mintaqqa aholisini Toshkent sh va mintaqqa tumanlari bo'yicha xarakatida xalqaro hamkorlik munosabatlarda turli tranzaksion xarajatlarni o'sishiga olib kelmoqda.

Xorijiga yuqori intellektual, malakali mehnat resurslarini, ayniqsa yoshlarni chiqib ketishi. Xorijiy tovarlar bozorlardan milliy tovarlarni siqib chiqarishi.

Mintaqada eng quyi ish haqi darajasi bilan eng yuqori ish haqi darajasi o'rtaqidagi variatsiya koeffisiyent 3,78 to'g'ri kelmoqda. Bu mintaqqa uchun juda katta variatsiya koeffisiyentini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyatida bozor infratuzilmasi va unda bank tizimi korxonalar tumanlar kesimida notejis joylashgan. Asoiy bank tizimi korxonalar markazda Qarshi shaxrida

Mintaqada suv, gaz va elektr ta'minoti tizimi uzoq vaqt davomida ta'mirlanmaganligi sababli jismoniy va ma'naviy eskirgan, bu uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Imkoniyatlar (opportunities)

Mintaqa iqtisodiyotini tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish va texnik-texnologik jihatdan modernizatsiyalash asosida uning raqobatbardoshligini oshirish xorijiy investitsiyalarni raqobatbardosh yuqori texnologik bilimlar iqtisodiyotiga yo'naltirish orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish imkoniyati:

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish zarur, bu konsepsiya mintaqaga iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga transformatsiyasi bosqichida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, mintaqaga va uning doimiy yashovchi aholisining iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash sohasida tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha qarashlarni shakllantiradi.

Qashqadaryo viloyatida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan 2021-yilda 504988 tonna sabzavot (102,4 foiz), 181776 tonna kartoshka (102,8

foiz), 172334 tonna meva va rezavorlar (105,6 foiz), 100579 tonna uzum (110,2 foiz) yig‘ib olindi, hamda 310,8 ming tonna go‘sht 102,9 foiz), 1248,4 ming tonna sut (105,8 foiz), 519,3 ming dona tuxum (95,1 foiz) ishlab chiqarildi. Bu mintaqqa aholisini oziq-ovqat xavfsiziligi ta’minlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasining intellektual resurslari-bu aholining yalpi bilim, ko‘nikma, axborot, texnologik va ma’naviy salohiyati, ta’lim darajasi va sifati bo‘lib undan uzoq muddat davomida ijtimoiy.-iqtisodiy boyliklarni ishlab chiqarishda foydalanish tushiniladi.

Qashqadaryo viloyatida ham ITTKI olib boruvchi tashkilotlar soni 2015-yilda 10 tadan 2018-yilda o‘zining maksimal 23 taga yetib keyingi davrlarda byudjetdan moliyalashtirishdagi muammolar sababli kamayib 2021-yilga kelib 6 taga tushib qoldi. ITTKIga qilingan xarajatlarning 0,67% bilan Qashqadaryo viloyati Respublikada quyi o‘rinni egallaydi. Internetga ulangan tashkilotlarning o‘rtacha ulushi 81,1% ni tashkil etadi.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 12 ta paxtachilik-to‘qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda va ularni rivojlantirish bo‘yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda.

Mintaqada “Obod mahalla”, “Obod qishloq”, Aqli shahar” hamda davlatning ta’lim va tarbiyaga oid dasturlarini samarali joriy etish, aholini suv, gaz va elektr energiyasi bilan to‘la ta’minalash;

Mintaqada uy xo‘jaliklarini o‘zini-o‘zi band qilish, oilaviy tadbirkorlikni, kasanachilikni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini yaratishni qo‘llab-quvvatlash;

Tahdidlar (threats)

Mintaqa iqtisodiyoti qazib olish sanoatiga bog‘liqligi, noqulay biznes va investitsiya muhiti; mintaqaning respublika markazidan keladigan transfert o‘tkazmalarga moliyaviy bog‘liqligi; mintaqaviy zaxira fondining yo‘qligi; mintaqadagi ekologik vaziyat; oziq-ovqat importiga bog‘liqlik; mintaqadagi tabiiy resurslardan shafqatsiz foydalanish kabi iqtisodiy tahdidlarni keltirish mumkin.

Mintaqaning byudjet taqchilligi masalasi dolzarb hisoblanadi. Qashqadaryo viloyatinining byudjet daromadlari prognozi 2022-yil uchun 3483,0 mlrd so‘m va xarajatlar esa 5534,3 mlrd so‘mni tashkil qilmoqda. Daromadlar bilan xarajatlar o‘rtasidagi farq bugungi kunda respublika byudjetidan byudjet transfertlari sifatida qoplanadi.

2021-yilda mintaqada 3847 nafar fuqoro ishsizlik maqomini olgan. Mintaqada bandlik sohasidagi muammolar, munosib maosh va ishsizlik

darjasasi yuqori bo'lgan bir paytda ish o'rinalining yetishmasligi mehnat bozoridagi tahdidlarni vujudga keltiradi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini Respublika ko'rsatkichlaridan ortda qolishi natijasida aholining turmush darjasasi va sifatini pasayishi; mulk va daromad bo'yicha tabaqalanishining yuqori darjasasi tufayli jamiyatda ijtimoiy tabaqalanishni kuchayishi, hududiy, tarmoq va kasbiy jihatdan ish haqida tabaqalanishni kuchayishi, ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lgan o'rta sinfni qisqarishi; mehnat resurslarining katta qismi qishloq xo'jaligi mehnatida band ekanligi; oliy ma'lumot olgan mintaqadan yoshlarning chiqib ketishi; migratsiya oqimlari tufayli aholi sonini pasayishi, bularning barchasi mintaqada ichki ijtimoiy tahidilar darajasini oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida turli xil firibgarliklar, shaxsiy ma'lumotlar yoki tijorat resurslari xavfsizligining yetishmasligi kabi yangi tendensiyalarini paydo bo'lishi.

Qashqadaryo viloyatida aksariyat kishilarning robotlar bilan aloqa qilish istiqbollari bilan bog'liq insonlarda boqimandalik yoki ishyoqmaslik kayfiyatini kuchayishi va shundan kelib chiqib, ta'lim va tarbiya darajasining pasayishi, o'zini-o'zi rivojlantirish uchun rag'batlantirishning yetishmasligi, insonlar muloqotini tanqisligi, zarar yetkazishi yoki xavfsizlik standartlarini buzgan holda qasddan xavfli vaziyatni yaratishi tufayli jamiyatning tanazzulidir.

Tabiiy resurslarning cheklangan zaxiralari tufayli xomashyo eksport modelini uzoq muddatli rivojlanishning mumkin emasligi. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy tadqiqotlar markazi ma'lumotlariga ko'ra, resurs iste'molining hozirgi tendensiyalarini va hajmlari davom etsa, Qashqadaryo mintaqasida tabiiy gaz va ko'mir zaxiralari keyingi 20-30 yil davom etadi, neft zaxiralari esa deyarli yaroqsiz holatga kelishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati jinoyatchilik darjasasi bo'yicha Respublikada quiy o'rinalni egallaydi. Ro'yxatga olingan jinoyatlar soni bo'yicha har 10,0 ming aholiga nisbatan 31,8 ta jinoyat to'g'ri kelmoqda. Oxirgi 3 yilda ro'yxatga olingan jinoyatlar soni 2,4 barobar oshgan. Bu mintaqadagi o'ziga xos ijtimoiy tahididlardan dalolat beradi.

Mintaqaning irrigatsiya va meloratsiya tizimini ishdan chiqishi natijasida viloyatda yer osti yopiq drenaj tizimlari ham ishdan chiqqan. Masalan viloyatda bugungi kunda 660,8 km yopiq drenaj tizimlari to'la ta'mirlashga muhtoj. Mintaqaning 300 ming ga yerlarni sug'orishda

foydalaniadigan 60% ichki xo'jalik nasos agregatlari jismoniy va ma'nnaviy eskirgan.

Tadqiqot ishida Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasi va unda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash holati tahili asosida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahlidlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Qashqadaryo viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy barqaror taraqqiy etishiga salbiy ta'sir etuvchi ichki tahlidlarga quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- O'zbekiston Respublikasi subyektlarida ilmiy asoslangan mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasining shakllanmaganligi;
- mintaqaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi normativ-huquqiy bazaning zaifligi;
- mintaqada qazib chiqarish tarmoqlari ulushining ustunligi bilan milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning tarkibiy deformatsiyasini saqlanib qolishi;
- mintaqada mehnat resurslarining asosiy qismi qishloq xo'jaligi sohasida bandligi va unda qo'l mehnatin ustanligi;
- iqtisodiyotning fuqarolik sohalarida ilmiy-texnik salohiyatni va texnologik qoloqlik;
- iqtisodiy tizimni tartibga solish uchun bozor va institutsional instrumentlarni zaifligi;
- mintaqalararo va mintaqaga ichidagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidagi farqlarda nomoyon bo'lувчи O'zbekiston Respublikasi va uning mintaqalari subyektlari o'rtasida tartibga solinmagan iqtisodiy munosabatlarning mavjudligi;
- oziq-ovqat xavfsizligi nuqtai nazaridan ayrim mintaqalarda 20-25%gacha bo'lgan oziq-ovqat importining katta ulushini mavjudligi. O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2020-yilda oziq - ovqat va yirik hayvonlar importi 1 851,3 million AQSh dollarini, 2021-yilda esa 2 509,6 million AQSh dollarini o'sishi 135,6%ni tashkil etdi⁸⁵;
- ijtimoiy qutblanish, mulkiy tabaqalanishning mustahkamlanishi va ishsizlik, yashirin ishsizlikni ko'payishi, aholi daromadlarining keskin tabaqalanishi, aholi genofonini yomonlashuvi va jinoyatchilikni ko'payishi

⁸⁵ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.

bilan bog‘liq ijtimoiy tahdidlarni kuchayishi;

- investitsiya muhitining yomonlashishi va ishbilarmonlik faolligining pasayishi;

- asosiy fondlarning yuqori darajada ma’naviy va jismoniy eskirishi;

• mintaqada importning eksportdan ustunligi va iqtisodiyotni yuqori texnologik ishlab chiqarish vositalariga qaramligi;

• mintaqadan kapitalni ruxsatsiz chiqib ketishi aholi va biznes uchun moliyaviy resurslarga chiqish imkoniyatini kamayishi;

- mintaqada byudjet xaratjatlarini uning daromadlaridan yuqoriligi sababli byudjet taqchilligini mavjudligi;

- mintaqalarning tabiiy resurslariga yirtqichdek munosabatda bo‘lish.

Qashqadaryo viloyat mintaqasining iqtisodiy xavfsizligiga salbiy ta’sir etuvchi tashqi tahididlari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- Jahon iqtisodiy tizimida o‘sib borayotgan nobarqarorliklar va miqdor jihatdan tez o‘sib boruvchi turli xil ziddiyatlar, tavakkalchilik va tahididlari, global hamda mintaqaviy tavsifdagi xavf-xatarlar;

- Mustaqil O‘zbekiston hamda uning Qashqadaryo viloyat mintaqasining taraqqiyotini, iqtisodiy qudratini o‘sishini, buyuk davlat sifatida jahon geosiyosi, geoijtisodiy va mintaqaviy jihatdan rolini oshishini ko‘ra olmaydigan G‘arb davlatlarining ta’siri;

- Qashqadaryo viloyatga nisbatan formal va noformal shaklda olib borilayotgan axborot, moliyaviy va iqtisodiy urushlarni kuchayishi;

- HVF va boshqa xalqaro tashkilotlar, ularning ekspertlari, mutaxassislari va maslahatchilari orqali mamlakat milliy boyligini tashkil etuvchi intellektual kadrlarni, g‘oyalari, innovatsiyalarni va boshqa potensial resurslarni, mamlakatdan chiqib ketishini tashkil etish maqsadida mamlakat iqtisodiyotiga ta’sir etish;

- Xalqaro mehnat taqsimotida va xalqaro savdo-iqtisodiy munosabatlarda noekvivalent tovar ayirboshlashuvi;

- Rivojlanishni iqtisodiy-xomashyo modeliga va tashqi iqtisodiy konyunkturaga nisbatan yuqori darajada qaramlikni saqlanib qolishi;

- Xorijga yuqori intellektual, malakali mehnat resurslarini, ayniqsa yoshlarni chiqib ketishi;

- Xorijiy tovarlar bozorlardan milliy tovarlarni siqib chiqarishi;

- Mintaqada faoliyat yurituvchi xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalarining maqsadlarini milliy manfaatlarga mos tushmasligi;

- AQSh dollari kursini mustahkamlanishi;
- Qashqadaryo viloyatini O'zbekiston Respublikasi poytaxtidan uzoqligi sababli xalqaro hamkorlik munosabatlarda turli tranzaksion xarajatlarni o'sishi;
- Transport infratuzilmasini eksport-import operatsiyalarda yetarli darajada rivojlanmaganligi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash nuqtai nazaridan amalga oshirilgan tahlil mintaqqa hayot-faoliyatining muhim yo'nalishlaridagi asosiy tahdidlarni aniqlashga imkon beradi. Bu mintaqqa iqtisodiyoti qazib olish sanoatiga bog'liqligi, noqulay biznes va investitsiya muhiti; mintaqaning respublika markazidan keladigan transfert o'tkazmalarga moliyaviy bog'liqligi; mintaqaviy zaxira fondining yo'qligi; mintaqadagi ekologik vaziyat; oziq-ovqat importiga bog'liqlik; mintaqaning xomashyo yo'nalishi.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy o'sish sur'atlarini Respublika ko'rsatkichidan ortda qolishi natijasida aholining turmush darajasi va sifatini pasayishi; mulk va daromad bo'yicha tabaqlanishining yuqori darajasi tufayli jamiyatda ijtimoiy tabaqlanishni kuchayishi, hududiy, tarmoq va kasbiy jihatdan ish haqida tabaqlanishni kuchayishi, ijtimoiy barqarorlikning asosi bo'lgan o'rta sinfni qisqarishi; ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan bir paytda ish o'rinalining yetishmasligi; mexnat resurslarining katta qismi qishloq xo'jaligi mehnatida band ekanligi; oliy ma'lumot olgan yoshlarning mintaqadan chiqib ketishi; migratsiya oqimlari tufayli aholi sonini pasayishi; umr ko'rish davrini ahamiyatsiz darajada o'sish sur'ati, shuningdek, aholining emigratsiya jarayonini jadallahuvchi; sog'liqni saqlash va ta'lim sohasida ijtimoiy xizmatlarning sifatini pastligi va uni olishdagi muammolar; vertikal ijtimoiy mobillik tizimini hamda jamiyatda gorizontal harakatlanish jarayonlarining deformatsiyalanishi; jinoyatchilik darajasining oshishi, bularning barchasi mintaqada ichki va tashqi tahdidlar darajasini oshib borayotganligidan dalolat beradi.

Iqtisodiy xavfsizlikka nisbatan xavf va tahidlarning kuchayishi tendensiyasini hisobga olgan holda, mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishning mavjud tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish asosida uni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Shu bilan birga Qashqadaryo viloyatida viloyat hokimligi huzuridagi mintaqaviy kengash iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha idoralararo komissiyani tuzishni, uning funksiyalariga mintaqaning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat boshqaruva-

organlari faoliyatini huquqni muhofaza qilish va boshqa tuzilmalari, shuningdek respublika iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish organlari faoiyati bilan muvofiqlashtirish lozim deb hisoblaymiz.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish zarur, bu konsepsiya mintaqasi iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga transformatsiyasi bosqichida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, mintaqasi va uning doimiy yashovchi aholisining iqtisodiy manfaatlarni ta'minlash sohasida tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo'yicha qarashlarni shakllantiradi. Shuningdek, mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik tizimini rivojlantirishning strategik ustuvor yo'nalishlarini belgilaydigan iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish dasturini ishlab chiqish zarurati mavjud.

2.3-§. Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizlik darajasi va uni baholash uslubiyati

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini aniqlash uchun iqtisodiy xavfsizlikka tahdid soladigan chegara qiymatlarini aniqlash uchun ilmiy asoslangan mezon ko'rsatkichlari ro'yxati zarur va undan chiqish esa iqtisodiy xavfsizlikka signal bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kun ilmiy tadqiqot ishlarida barcha mintaqalar uchun mos miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari to'plamiga ega bo'lgan iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining universal tizimi mavjud emas.

"Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun mintaqalarning holati va muammolarini, depressiv, inqirozli hamda istiqbolli mintaqalarni aniqlash zarur. Buning uchun mintaqalarning barqarorlik indikatorlarini aniqlash kerak"⁸⁶. Mintaqada iqtisodiy xavfsizlik ko'rsatkichlarining asosiy ro'yxatini umumlashtirish katta hajmdagi axborot va monitoringni tahlil qilishni talab qiladi (№2 Ilova). Iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilish va baholashning mavjud usullari, ularning o'ziga xos kamchiliklari va afzalliklarini tadqiq etish asosida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholashning integral usuli deb nomlanadi. Integral metodologiya qo'llash va uni amalga oshirishning quyidagi bosqichlarini o'z ichiga oladi:

* Xasanov S.X. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash. Iqtisodiyot va ta'lif jurnali 2022-yil №2 son. B.-374.

1. Soha faoliyatining bir qancha strategik muhim yo'nalishlarini aniqlash.
2. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holati ko'rsatkichlarini ushbu hududning rivojlanishi va faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash va ularni yo'nalishlar ro'yxatiga muvofiq guruhlash.
3. Har bir tanlangan yo'nalish uchun vazn koeffitsiyentini aniqlash.
4. Integral ko'rsatkichlar uchun mezon chegaralarini shakllantirish.
5. Muhimlik koeffitsiyenti har bir aniq ko'rsatkich uchun hisoblash.
6. Har bir strategik yo'nalish uchun integral koeffitsiyent hisoblash.
7. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligining yakuniy qiymatini hisoblash.
8. Natijalarni baholash va sharhlash.

Ushbu metodologiyadan foydalangan holda Qashqadaryo viloyati mintaqasi misolida keyingi hisob-kitoblar uchun biz quyidagi ko'rsatkichlar guruhlarini aniqladik: Mintaqaning iqtisodiy barqarorligi; Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish darajasi; Aholining ijtimoiy ta'minoti; Demografik barqarorlik;

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash uchun shakllangan ko'rsatkichlar tizimi va ularning chegaraviy qiymatlari aniqlandi. Har bir strategik yo'nalish bo'yicha vazn koeffitsiyentlarini belgilashda mintaqaning hozirgi holati, uning geografik va resurs xususiyatlari, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qashqadaryo viloyati misolida, ekspert baholash orqali og'irlik omillari aniqlandi:

1. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligi - 0,2
2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish darajasi -0,15
3. Aholining ijtimoiy ta'minoti - 0,25
4. Demografik barqarorlik - 0,25

Eng katta vazn koeffitsiyentlari har qanday mintaqqa va uning qismlari faoliyatidagi asosiy funksiya ijtimoiy funksiya ekanligini hisobga olib, aholining ijtimoiy ta'minoti va resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligiga mos kelishi resurs komponenti tanlangan mintaqaning xususiyatlariga bog'liq. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga pastroq og'irlik koeffitsiyenti berildi, chunki ushbu sohaga kiritilgan ko'rsatkichlar ro'yxati ko'plab omillarga, shu jumladan milliy omillarga bog'liq bo'lган umumlashtirilgan jarayonlarni aks ettiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tavsiflovchi ko'rsatkichlar guruhi ham eng kichik vazn koeffitsiyentiga ega, bu ko'rsatkichlar to'plamiga bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, vazn koeffitsiyentlari bir-

biridan kichik og'ishlardan iborat bo'lib, mos ravishda har bir strategik yo'nalish berilgan mintaqaga uchun bevosita ahamiyatga ega.

Taklif etilgan metodologiya doirasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ko'rsatkichlarni normallashtirish kerak, chunki ular turli o'lchamlarga ega, bu esa ularni qo'shimcha o'zgartirishlarsiz to'g'ridan-to'g'ri foydalanishga imkon bermaydi. Normallashtirish, ya'ni ma'lum bir ko'rsatkichning ahamiyatlilik koeffitsiyentini topish, agar tegishli ko'rsatkichning qiymatini oshirish maqsadga muvofiq bo'lsa, ko'rsatkichning haqiqiy qiymatining chegara qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_{i1} = \frac{F_i}{I_i}$$

Agar chegara qiymatiga nisbatan indikator qiymatining pasayishi kerak bo'lsa, quyidagi formula qo'llaniladi:

$$K_{i2} = \frac{I_i}{F_i}$$

Bu yerda, F_i -ko'rsatkichning haqiqiy qiymati;

I_i -indikatorning chegara qiymati.

Natijalarni solishtirish uchun normallashtirish usulini ham ko'rib chiqildi. Bu usulda ikki xil funksiyalar ajratiladi. Haqiqiy ko'rsatkichni chegara qiymatidan oshirish kerak bo'lsa quyidagi funksiya qo'llaniladi:

$$y = \begin{cases} 2^{\frac{(1-\frac{x}{a})}{\ln \frac{10}{3}}}, & \text{agap } \frac{x}{a} > 1 \\ 2^{-\log_{\frac{10}{3}} \frac{x}{a}}, & \text{agap } \frac{x}{a} \leq 1 \end{cases}$$

bu yerda x - ko'rsatkichning haqiqiy qiymati;

a - indikatorning chegara qiymati;

y - indikatorning normallashtirilgan qiymati.

Agar indikatorning haqiqiy qiymati chegara qiymatidan oshmasligi, ya'ni pasayish tendensiyasi qalayotganda quyidagi funksiya qo'llaniladi:

$$y = \begin{cases} 2^{\frac{(1-\frac{x}{a})}{\ln \frac{10}{3}}}, & \text{agap } \frac{x}{a} < 1 \\ 2^{-\log_{\frac{10}{3}} \frac{x}{a}}, & \text{agap } \frac{x}{a} \geq 1 \end{cases}$$

Yuqoridagi usul bilan olingen ma'lumotlarni radar diagrammasi shaklida qaralganda ko'rsatkichlarning chegara qiymatlari $y = 1$ qatorida ko'rsatiladi, indikatorlarning kiruvchi qiymatlari $y = 1$ chizig'i bilan chegaralangan sektor ichidaligi yaqqol ko'rindi. Radar diagrammasida keltirilgan sektorlar beshta "xavf zonasasi" ga bo'lingan:

1. Halokatli xavf $y = 0,25$ chiziq bilan chegaralangan sektor. Ushbu zonadagi indikatorning qiymati mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas deb hisoblanadi va oqibatlarni minimallashtirish va sabablarni lokalizatsiya qilish uchun darhol choralar ko'rish talab etiladi. Agar hisoblash uchun o'sishga moyil bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat kerakli qiymatdan 10 baravar kam ekanligini ko'rsatadi. Teskari funksiyani qo'llashda - haqiqiy qiymat chegaradan 10 baravar yuqori bo'ladi;

2. Halokat arafasidagi xavf $y = 0,25$ va $y = 0,5$ chiziqlari bilan chegaralangan sektordir. Ushbu sektorda bo'lish inqirozli vaziyat mavjudligidan dalolat beradi. Agar hisoblash uchun o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat kerakli qiymatdan 3 dan 10 baravargacha kam ekanligini ko'rsatadi.

3. Ekstremal xavf $y = 0,5$ va $y = 0,75$ chiziqlari bilan chegaralangan sektor. Belgilangan sektorda indikatorning mavjudligi vaziyatni barqarorlashtirish uchun boshqaruq qarorlari yetarli darajada tezkor qabul qilinmaganligini ko'rsatadi, shuningdek, o'z vaqtida monitoring va ma'lumotlarni yangilash zarurligini ta'kidlaydi. Agar hisoblash uchun o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasi ishlatilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat istalgan qiymatdan 3 dan 1,6 baravar kam ekanligini ko'rsatadi.

4. Normal xavf $y = 0,75$ va $y = 0,99$ chiziqlari bilan chegaralangan sektor. Ushbu sektorda bo'lish maqbul deb hisoblanadi. Bu holat eng keng tarqalgan va hududning har qanday faoliyati uning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligidan dalolat beradi. Agar hisoblash uchun o'sish ko'rsatkichlar funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, u holda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymatning 1,6 baravar kamligini ko'rsatadi;

5. Barqarorlik $y = 1$ chiziqdan tashqarida joylashgan sektordir. Diagrammadagi bunday joylashuv barqaror rivojlanishni, yagona hududga nisbatan o'rganilayotgan hududda olib borilayotgan boshqaruq siyosatining yetarli darajada barqarorligini va samaradorligini ko'rsatadi.

$y = 1$ chizig'i ko'rsatkichning haqiqiy qiymatining chegara qiymati bilan mos kelishini ko'rsatadi. Agar ko'rsatkich uchun o'sish talab qilinsa va hisobda tegishli funksiyadan foydalilanigan bo'lsa, u holda $y = 1,25$ chiziq chegara qiymatidan 1,6 marta, $y = 1,5$ chiziq esa 3,3 marta oshib ketganligini bildiradi.

Normallashtirilgan ma'lumotlarni "burilishlar" usulidan foydalangan holda bitta integral ko'rsatkichga birlashtirganda, oddiy o'rtacha arifmetik formuladan foydalanish taklif etiladi, uni qo'llashda barcha asosiy ko'rsatkichlar bir-birining o'rmini bosishi nazarda tutiladi. Normallashtirilgan ko'rsatkichlar integral baholashda normallashtirilgan ko'rsatkich qiymatining yana bir ijobiy o'zgarishi bilan to'liq qoplanadi. O'rtacha arifmetikdan foydalanish matematik nuqtai nazardan to'ri hisoblanadi, chunki funksional bog'liqlikda bo'limgan va bir xil og'irlilikdagi ko'rsatkichlar tizimi ko'rib chiqiladi va bu ko'rsatkichlarni tanlash sharti bilan belgilanadi. Har bir ko'rsatkichlar guruhi uchun ko'rsatkichning o'rtacha qiymati hisoblanadi:

$$K_g = \frac{\sum K_i}{n}$$

bu yerda n - mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilishning tanlangan yo'nalishidagi ko'rsatkichlarning umumiy soni.

Bundan tashqari, yuqorida ko'rsatilgan amalga oshirish rejasi va muayyan tortish omillari asosida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatining yakuniy integral ko'rsatkichi aniqlanadi:

$$IX_h = 0,2K_{gi} + 0,15K_{gch} + 0,25K_{pt} + 0,25K_{gd}$$

bu yerda $0 < IX_h$

K_{gi} - mintaqaning guruh iqtisodiy barqarorligi uchun o'rtacha qiymat;

K_{gch} - mahsulot ishlab chiqarish va sotishning guruh darajasi bo'yicha o'rtacha qiymat;

K_{pt} -pt aholining ijtimoiy ta'minoti guruhi uchun o'rtacha qiymat;

K_{gd} -gd guruh bo'yicha o'rtacha demografik barqarorlik;

Integral ko'rsatkich uchun mezon chegaralari tizimi 2.3.1-jadvalda keltirilgan besh daraja bilan belgilanadi. Kritik daraja juda past va vaziyatni barqarorlashtirish uchun boshqaruv organlarining zudlik bilan aralashuvini talab qiladi. Inqiroz darajasi ham va o'rganilayotgan barcha sohalarda pasayishdan dalolat beradi. Potensial va rivojlanish darajasi yuqori bo'lgan hududlar uchun past darajaga yo'l qo'yib bo'lmaydi, depressiyaga uchragan hududlar uchun esa qisqa vaqt ichida yaxshilanish

tendensiyasi bilan qoniqarli ko‘rinishga o‘tkaziladi. O‘rtta va yuqori darajalar eng maqbul bo‘lib, hududni boshqarishning samarali faoliyatini ko‘rsatadi.

Taklif etilayotgan usul mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatining integral ko‘rsatkichini hisoblashdan iborat bo‘lib, u vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda to‘rtta strategik sohada xususiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha normallashtirilgan qiymatlaridan iborat bo‘ladi.

2.3.1-jadval

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash darajalari⁸⁷

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasi	Integral indikatorning mezon chegaralari
1. Yuqori darajada	1.05 va undan yuqori
2. Normal darajada	1.00-1.04
3. Inqiroz oldi darajada	0,70 - 0,99
4. Inqipoz darajasida	0,5-0,69
5. Depressiv darajada	0,49 va undan past

Ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirgan holda, biz taklif qilingan integral metodologiya asosida Qashqadaryo viloyat tumanlarining iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholadik. Eng ishonchli ma'lumotni olish uchun biz o‘rganilayotgan mintaqadagi nisbiy va mutlaq ko‘rsatkichlarni hisobga olamiz. Ko‘rsatkichlarning o‘ziga xos qiymatlarini mumkin bo‘lgan sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha 2021-yilgi ma'lumotlar olindi.

Birinchi guruh ko‘rsatkichlari-mintaqaning iqtisodiy barqarorligi. Guruh mintaqadagi umumiyligi iqtisodiy vaziyatni aks ettiruvchi to‘rtta ko‘rsatkich bilan ifodalandi. Taqdim etilgan butun davr uchun aholi jon boshiga YaHMning qiymati Qarshi shahar, G‘uzor tuman hamda Nishon tumanlarida yuqori, Mirishkor, Kitob, Yakkabog‘ hamda Muborak tamanlarida ko‘rsatkichlar nisbatan past.

Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi YaHMga nisbatan beqaror bo‘lib, pasayish tendensiyasi kuzatilmoxda, bu mintaqadagi umumiyligi moliyaviy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Budan o‘z navbatida investitsiyalarning kamayishi mintaqada chuqurroq moliyaviy muammo, ya’ni o‘z-o‘zini moliyalashning yo‘q degan xulosaga kelish mumkin. Tuman tashkilotlarning umumiyligi sonida zarar ko‘rayotgan

⁸⁷ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

tashkilotlarning salmoqli qismi tadbirkorlik faoliyatidagi og‘ir vaziyatdan dalolat beradi, bu esa o‘z navbatida soliq tushumlari pasayishiga olib kelganidan dalolat beradi.

Integral ko‘rsatkichni hisoblashning eng samarali usulini tanlash uchun bиринчи гурух ко‘рсаткичлари - мінтақаның іктисодија баркарорлығы місолыда биз паралел рашыда иккита нормаллаштырыш үсуларынін оқылладык.

Kо‘рсаткіч қыматынан ошиши юки камайышы кераклігінә қараб, мінтақа үчун ма’лумоттар мутаносибликка ерішіш үә мұтлақ қыматлардан узоqlashish үчун chegara қыматлары bilan bog‘lanadi.


Kо‘рсаткіchlarning ikkinchi guruhi - mahsulot ishlab chiqarish va sotish darajasi. Bu hududda ishlab chiqarishning rivojlanish darajasini tavsiflovchi oltita ko‘rsatkich bilan ifodalanadi, chunki ushbu sohaning yillik dinamikasini aks ettiruvchi sanoat ishlab chiqarish indeksi barcaror ijobjiy tendensiyaga ega bo‘lib, bu hududning mumkin bo‘lgan barcarorligi үчун асослардан біріdir.

Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha past ko‘rsatkich Muborak, Mirishkor, Dehqonobod hamda Shaxrisabz tumanlariga to‘g‘ri keladi. Keyingi vaqtarda tumanlarda chorvachilik va o‘simlikchilik bo‘yicha samarali ishlar olib borilishi natijasida sohada ijobjiy dinamika ta‘minlamoqda. Shuningdek, keyingi yillarda mahalliy hokimliklар томондан qishloqni qo‘llab-quvvatlash siyosati amalga oshirilib, uning doirasida fermer xo‘jaliklariga mahsulot ishlab chiqarishdan то to‘g‘ridan-to‘g‘ri bozorga chiqarishgacha ko‘maklashilmoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlari indeksining қымати viloyat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan qoniqarli. Aholi jon boshiga pullik xizmatlar hajmi davlat hokimiyyati va mahalliy hokimiyyat органлари томондан ko‘rsatiladigan xizmatlar doirasini ifodalaydi. Qiymatlar Mirishkor tumanidan tashqari barcha tumanlar ko‘rsatkichlari barcaror, bunda qonunchilik islohotlari tufayli biroz oshgani bundan mustasno.

Qashqadaryo viloyat tumanlarida innovatsion soha qoniqarsizligicha qolmoqda. Mavjud vaziyatni tahlil qilar ekanmiz, viloyat markazidan uzoqda joylashgan tumanlarda, tog‘-kon sanoati va qishloq xo‘jaligiga ixtisoslashgan hudud dastlab innovatsion yo‘nalishlarni rivojlantirish үчун qulay muhit emasligini ta‘kidlash lozim. Bundan tashqari, yetarli mablag‘ yetishmasligi tufayli ko‘rsatkichlar ayrim tumanlarda pastligicha qolmoqda.

Aholi jon boshiga YaHM, million so'm



2.3.1-rasm. Qashqadaryo viloyatida o'rtacha iqtisodiy barqarorlik ko'rsatkichlari⁸⁸

Ko'rsatkichlarning uchinchi guruhi - aholining ijtimoiy ta'minlanishi. Ushbu yo'nalish barcha tuman ma'muriy birligi uchun asosiy hisoblanadi. Ushbu guruh ko'rsatkichlari hududdagi aholining turmush darajasini tavsiflaydi. Aholi jon boshiga o'rtacha daromad Mirishkor, Qamashi, Yakkabog' va Koson tumanlarida pastligini ko'rish mumkin.


Ishsizlik darajasi mamlakat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan oshmaydi, lekin ayrim tumanlarda chegarasidan yuqori, bundan tashqari, statistik ma'lumotlar ishsizlik darajasi vaziyatni yetarlicha obyektiv aks ettirmasligini tushunish kerak. Aholining ixtiyorida bo'lgan real daromadlari indeksi past ko'rsatkichga ega, ya'ni 100% dan past qiymat aholining iste'mol va jamg'arish uchun ortiqcha pullari yildan-yilga kamayib borayotganligini ko'rsatadi.

Aholi jon boshiga o'rtacha pul daromadlari hajmi, agar tahlil o'sib borayotgan inflyatsiya hisobga olinsa, deyarli o'zgarishsiz qolmoqda. Aholiga to'g'ri keladigan turar-joy binolarining umumiy maydoni Respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori ekanligini ko'rish mumkin.

⁸⁸ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

**Aholi jon boshiga o'rtacha pul daromadlarning
yashash minimumiga nisbati, ...**

**Aboliga to'g'ri keladigan
turar-joy binolarining
umumiyl maydoni**



**Aholi jon boshiga o'rtacha pul
daromadlari (oyiga), so'm**

Ishsizlik darajasi, %


**Aholining ixtiyoridagi real
daromadlari indeksi, %**

**2.3.2-rasm. Qashqadaryo viloyatida o'rtacha mahsulot ishlab
chiqarish va sotish darajasi ko'rsatkichlari⁸⁹**

**Innovation toralar,
ishlar, xizmatlar hajmi,
banjardigan ishlar,
xizmatlar, jo'natilgan
tovarlarning umumiyl
hajmiga nisbatan...**

Sanoct ishlab chiqarish indeksi, %

**Aholi jon boshiga pullik
xizmatlar hajmi, min so'm**



**Aholi jon boshiga qishloq
xo'jaligi mahsulotlari,
min so'm**

**Aholi jon boshiga chakana tovar
syirioslash, min so'm**


**2.3.3-rasm. Qashqadaryo viloyatida o'rtacha aholini
ijtimoiy himoya qilish ko'rsatkichlari⁹⁰**

⁸⁹ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

⁹⁰ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Aholining ijtimoiy himoyalanish darajasi bugungi kunda qoniqarli, deb baholanmoqda. Biroq, mutlaq qiymatlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ba'zi ko'rsatkichlarning qabul qilinishi mumkin bo'limagan qiymatlari boshqalar tomonidan qoplanadi. Ko'rsatkichlarning to'rtinchi guruhi - bu inson resurslari bilan ta'minlanishning eng muhim sohasini tavsiylovchi demografik barqarorlik. Tumanlarda o'rtacha umr ko'rish doimiy so'nggi yillarda biroz o'sish kuzatildi. Ta'kidlash joizki, 2017-yil Respublika Prezidenti tashabbusi bilan Respublikada chaqaloqlar o'limiga qarshi faol kurash olib borilmoqda, mazkur faoliyat doirasida barcha hudud markazlarida zamonaviy perinatal markaz barpo etilmoqda. Shuningdek, sog'liqni saqlash tizimini isloh qilish va tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan.

Tug'ilganda kutilayotgan umr ko'rish, yillar



Migratsiya o'sish sur'ati 10000 aholiga, marta

2.3.4-rasm. Qashqadaryo viloyatida o'rtacha demografik barqarorlik ko'rsatkichlari⁹¹

Qashqadaryo viloyatining tumanlarida iqtisodiy xavfsizlik darajasining integral ko'rsatkichini hisoblab chiqildi hamda iqtisodiy xavfsizlik darajasining integral ko'rsatkichining qiymati 1-jadvalga muvofiq tumanlar bo'yicha aniqlandi. 2021-yildagi davr uchun iqtisodiy

⁹¹ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

xavfsizlik darajasining integral ko'rsatkichi dinamikasini quyidagi jadvalda berilgan.

Baholash natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyat tumanlaridan Qarshi tumani yuqori, Koson tumani o'rta, Mirishkor tumani kritik va qolgan tumanlar iqtisodiy xavfsizligi darajasi inqirozdan oldi holat sifatida belgilandi. Mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha eng obyektiv xulosalar uchun biz integral metodologiyani hisoblash jarayonida ta'sir qilmagan bir nechta sohalarni qo'shimcha ravishda ko'rib chiqishni taklif qiliamiz. Integral ko'rsatkichning olingan qiymati ko'rsatkichlarning butun majmuasini hisobga oladi va vaziyatni jamlangan holda ko'rsatadi.

2.3.2-jadval

Qashqadaryo viloyat tumanlarida iqtisodiy dapajaning integral ko'rsatkichi qiymatlari, 2021-yil⁹²

Nº	Tumanlar	Integral indikatorning qiymati	Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi dapajasi
1	Qarshi shahar	0,76	O'rta darajada
2	Koson	1,00	Normal darajada
3	Chiroqchi	0,94	O'rta darajadan yuqori
4	Shaxrisabz	0,93	O'rta darajadan yuqori
5	Yakkabog'	0,76	O'rta darajadan yuqori
6	G'uzor	0,95	O'rta darajadan yuqori
7	Dehqonobod	0,80	O'rta darajada
8	Kitob	0,95	O'rta darajadan yuqori
9	Qarshi tumani	1,05	Yuqopi darajada
10	Qamashi	0,80	O'rta darajada
11	Kasbi	0,86	O'rta darajadan yuqori
12	Nishon	0,92	O'rta darajadan yuqori
13	Mirishkor	0,46	Past darajada
14	Muborak	0,96	O'rta darajadan yuqori
	Qashqadaryo viloyati	0,87	O'rta darajadan yuqori

⁹² Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

Tadqiqot ishida integral metodologiya asosida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligi dapajacini baholash uslubiyati ishlab chiqildi. Baholash natijalariga ko'pa, Qashqadaryo viloyati tumanlaridan Qarshi tumani yuqori, Koson tumani o'rta, Mirishkor tumani depressiv va qolgan tumanlar iqtisodiy xavfsizligi darajaci o'rtachadan yuqori ekanligi aniqlandi.

Tumanlarda iqtisodiy xavfsizlik darajasini saqlab qolish va barqrarlashtirish uchun strategik yo'nalishlarni belgilash va har bir alohida hududni uning ahamiyati va mavjud salohiyatidan kelib chiqqan holda batafsil o'rganish zarur. Baholash natijalariga ko'ra demografik soha salbiy natijaga ega. Aholining tabiiy o'sishi, migratsiya harakati tufayli kamayishi bilan bog'liq. Biroq, dinamikada ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega Bu yo'nalishda ham mamlakatda, ham mintaqada tug'ilish darajasini qo'llab-quvvatlash siyosatini davom ettirish tavsiya etiladi. Qo'shimcha loyihalar tavsiya etilmaydi, chunki bu katta moliyaviy investitsiyalarni talab qiladi va mintaqa byudjetning xarajatlar qismini optimallashtirishi lozim bo'ladi.

Bundan tashqari xo'jalik faoliyatini rag'batlantrish boshqaruv organlarining eng muhim faoliyati bo'lishi kerak. Boshlang'ich tashkilotlarga ko'mak mahalliy hokimiyat organlaridan faoliyatni amalga oshirish uchun ruxsatnoma olishdan tortib, mavjud savdo maydonchalarida mahsulot sotishni osonlashtirishgacha bo'lgan barcha bosqichgacha xizmat ko'rsatilishi kerak. Mahalliy kompaniyalar va tadbirkorlarning tovarlari, ishlari va xizmatlariga nisbatan proteksionizm siyosati zarur. Byudjetning daromad qismiga va uni oshirishning mumkin bo'lgan usullariga kelsak, ro'yxatdan o'tgan yirik soliq to'lovchilar bilan kelishuvga erishishdir, ularni qayta ro'yxatdan o'tkazish va soliq to'lovlarini tuman byudjetiga yo'naltirish tumanning moliyaviy ahvolini sezilarli darajada yaxshilashga erishishga olib keladi.

Mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish ko'rsatkichlarining normallashtirilgan qiymatlari ham xavf zonasida. Mayjud vaziyatni yaxshilash uchun, biznesni rivojlantirishga keng ko'lami yordam berish kerak. Ushbu ko'rsatkichlar blokida innovatsion faoliyat sezilarli darajada past, albatta bu nazariy nuqtai nazardan qoniqarsiz. Hozirgi sharoitda uzoq muddatli loyihalarga sarmoya kiritishdan ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan hududlarni mustahkamlash uchun mablag'lar va boshqa resurslardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ishlab chiqarishga kelsak, qishloq xo'jaligiga e'tiborni davom ettirish kerak, chunki geografik va hududiy

jihatdan mintaqaga chovvachilik va o'simlikchilikning turli sohalari uchun juda mos keladi. O'tgan yillar davomida qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmi bir necha barobar ortgani yo'nalish muvaffaqiyati va samaradorligini tasdiqlaydi. Hokimiyat fermerlikni qo'llab-quvvatlash siyosatini amalga oshirmoqda, uni davom ettirish va modernizatsiya qilish zarur. Aynan agrar sohaga boshqa sohalarda iqtisod qilingan mablag'larni yo'naltirish mumkin.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning o'rtacha qiymati nisbatan maqbuldir. Ammo batafsil tahlil aholining keskin tabaqalanishini ko'rsatadi. Shundan ko'rinish turibdiki, o'rtacha daromad ko'rsatkichlari vaziyatni bir oz o'zgartirib aks ettiradi. Shu bois viloyat mutasaddilarining bu masalaga jiddiy e'tibor qaratishlari zarur. Hududiy moliyalashtirish bo'yicha davlat va munitsipal muassasalarda ishlayotgan fuqarolarga to'lovlardan miqdorini kamaytirishga yo'l qo'ymaslik tavsiya etiladi. Bundan tashqari, mansabdar shaxslarning apparatini saqlash xarajatlarini optimallashtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Tumanlarda resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligiga kelsak, natijalar ijobjiy. Resurs samaradorligining oshirishda ekologik vaziyatga e'tibor qaratish lozim. Bu yerda hokimiyat tomonidan doimiy monitoring va kerak bo'lganda tezkor choralar ko'rish zarur.

Tumanlarda ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ayrim yo'nalishlari ijobjiy natijalar bermoqda, ularni amalga oshirishni davom ettirish, lekin strategik rivojlanish rejasini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Maqsad va vazifalarni belgilash, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavflarni hisobga olgan holda va faoliyatning asosiy yo'nalishlarini tahlil qilish bilan bunday rejani yaratish o'rganilayotgan hududni boshqarishda tavsiya etilgan qadamdir. Shuningdek, vaziyatga tezkor javob berish va o'z vaqtida baho berish uchun ko'rsatkichlar guruhi asosida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholash metodologiyasini tasdiqlash tavsiya etiladi. Bundan tashqari, tashqi qarz hajmi kabi bir qancha qo'shimcha yo'nalishlarning belgilanishi vaziyatni har tomonlama baholash imkonini beradi. Bu samarali monitoring tizimini hamda muvaffaqiyatli boshqaruvni yaratadi.

III BOB. QASHQADARYO VILOYATINING IQTISODIY XAVFSIZLIK DARAJASINI OSHIRISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI

3.1-§. Mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional jihatlarini takomillashtirish

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bu uning iqtisodiy manfaatlarini yalpi ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish hamda tegishli shart-sharoitlar, mexanizmlar va institutlarni shakllantirish orqali aholi turmush darajasini oshirish bo'yicha tadbirlar majmui sifatida baholash mumkin. Uning maqsadi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy tizimiga yetkazilgan zararni o'z vaqtida aniqlash va ularni oldini olish uchun iqtisodiy xavfsizligining potensial va real xatarlar va tahdidlariga qarshi kurashishi tushiniladi.

O'zbekiston Respublikasi va Qashqadaryo viloyati davlat hokimiyati vakillik organlari mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun institutsional muhitni shakllantiradigan iqtisodiy xavfsizlikni boshqaruv subyektlariga tegishlidir. Xavfsizlikni ta'minlash sohasidagi institutsional muhitning, tegishli mezonlarini o'rnatish, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning maqsadlari va ustuvor yo'nalishlarini muvofiqlashtirish bugungi kun ilmiy tadqiqot ishlarining dolzarb yo'nalishi bo'lib hisoblanadi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun uning institutsional asoslari doirasini belgilab beradigan, mezo-va mikroiqtisodiy darajasida ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratuvchi institutlar zarur. Mavjud tuzilmalar jamoat tartibini va ijtimoiy majburlash omillaridan kelib chiqadigan cheklovlarini, standartlarni o'zida mujassam etgan, ularning o'zaro ta'siri mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik tizimining samarali faoliyatini ta'minlaydi.

Ushbu institutlarning asosiy vazifasi jamiyatda mutlaqo yangi munosabatlarni o'rnatishdir. Ular huquqlar, majburiyatlar, ma'suliyatlar, cheklovlar, ruxsatnomalarni o'rnatganligi sababli yangi imkoniyatlar yaratadilar, ya'ni ular yangi munosabatlarni tuzilmalarini shakllantiradilar.

An'anaviy va yangi institutsional yo'nalishdagi olimlarning ilmiy tadqiqotlarini tahlil qilish asosida iqtisodiy xulq-atvorga ta'sir qilishning

uch turini aniqlashga imkon berdi. Bu ta'sir institutlarning funksiyalari orqali nomoyon bo'ladi⁹³:

- cheklovchi funksiya-bozorda o'rnatilgan o'zaro munosabatlar qoidalar orqali xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun muayyan xulq-atvor doirasini yaratadi;
- axborot va kognitiv funksiya-iqtisodiy subyektlarga axborotni qabul qilishni shakllangan manbalari orqali tahlil qilish, tanlash va idrok etish imkoniyatini beradi;
- teleologik yoki motivatsion funksiya - iqtisodiy subyektlarning yakuniy natijalariga, maqsadlariga ta'sir qilish orqali amalgalashadi.

Amerikalik iqtisodchi D.S.Nort institutlarni ijtimoiy faoliyatni rivojlantirish uchun zaruriy cheklovlar va shart-sharoitlarni shakllantiradigan "o'yin qoidalari" deb ta'riflagan⁹⁴. Institutlar, mamlakat subyektlari sifatida uning mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlovchi, xulq-atvor, o'zaro munosabatlar, motivlarni va qoidalari shakllantiruvchi qonun va qoidalardir. Institutsionalizm asoschisi T.B.Veblen institutlarni "ma'lum bir insonlar jamoasi uchun umumiylashning belgilangan urfadatlari" deb tushunadi⁹⁵. Institutlarga "qoidalari" sifatida yondashish ham huquqiy normalarni uning yadrosi, uning tashkil etuvchi elementi deb atagan Dj.R.Kommons, g'oyalariga asoslanadi⁹⁶. Institutlar rasmiy (Konstitutsiya, respublika qonunlari, normativ-huquqiy hujjatlar) va norasmiy (shartnomalar, qoidalari, an'analar) qoidalari yoki cheklovlarining "standartlari" dir. Ular birgalikda jamiyat va iqtisodiyotning rag'batlantiruvchi tarkibiy tuzilmasini tashkil qiladi.

Iqtisodchi L.S.Gurvis institut tushunchasini D.S.Nort ta'rifiga mazmunan o'xshash bo'lgan iqtisodiy mexanizm⁹⁷ tushunchasi asosida shakllantirishga harakat qilgan. Ushbu yondashuvning mohiyati institutlarni "o'yin shakllari tizimi sifatida" taqdim etishdan iborat bo'lib,

93 Вольчик, В.В. Институциональная экономика: учеб. пособие для вузов / В.В. Вольчик. - Москва: Юрайт, 2016. – С.11.

94 Норт, Д.С. Институты, институциональные изменения и функционирование экономики / Д.С. Норт; пер. с англ. А.Н. Нестеренко. - Москва: Фонд экономической книги «Начала», 1997.-С.17.

95 Веблен, Т.Б. Теория праздного класса: пер. с англ. / Т.Б. Веблен. - Москва: Прогресс, 1984. – С.202.

96 Коммонс, Дж.Р. Правовые основания капитализма / Дж.Р. Коммонс / пер. с англ. А. Апполонова, А. Маркова; под ред. М. Одинцовой. - Москва: Изд. дом Высшей школы экономики, 2011. - 413 с.

97 Hurwicz, L. Institutions as families of game forms / L. Hurwicz. - // The Japanese Economic Review. - 1996. - Vol. 47, No. 1. - P. 113-132.

ya'ni ular xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun xulq-atvor qoidalarini va uning keyingi natijalari bilan turli xil muqobil variantlar orasidan tanlashni belgilaydilar.

Keng ma'noda institutlarni birlashtiradigan rasmiy qoidalar, norasmiy me'yorlar va mexanizmlar to'plami sifatida aniqlash mumkin. Ular axborot xususiyatiga ega bo'lib ular belgilangan doirada iqtisodiy subyektlar harakatlарining xulq-atvorini anglash va bilish modellarini shakllantirishga xizmat qiladi. "Ushbu institutsional yondashuvga ko'ra iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun muassasalar, xo'jalik tuzilmalari belgilangan qonun-qoidalar, zararli faoliyatlarini cheklashlar orqali o'zaro bog'liqlikda, bir-birlari bilan aloqadorlikda faoliyat qilishlari uchun muhit yaratilishi muhim ahamiyatga ega bo'ladi"⁹⁸. Iqtisodiy xavfsizlikni davlat tomonidan ta'minlash tizimining eng muhim elementlaridan biri bu institutsional - huquqiy omil bo'lib, shu jumladan mamlakatda va mintaqalarda iqtisodiy xavfsizlikni shakllantirish va qo'llab-quvvatlashni qonunchilik va me'yoriy qo'llab-quvvatlashdir.

Institutsional muhitni transformatsiyasi va texnologik rivojlanish jarayonlari o'zaro bog'liq bo'lib: ilmiy va texnologik rivojlanishning yuqori sur'atlari, tegishli institutsional shart-sharoitlarni ta'lab qiladi. Institutsional tuzilmani transformatsiyasi ekzogen, endogen va kombinatsion omillar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin. "Raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida real institutlarning virtual shaklga ega bo'lish tendensiyasini qayd etishni mumkin. Institutlarni amalga oshirishning yangi shaklining kutilayotgan ijobjiy samarasini byurokratik tartiblarni soddallashtirish, vaqt va moddiy xarajatlarni kamaytirishda ifodalash mumkin"⁹⁹.

Huquqiy sohada eng muhimi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 29-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni asosida tasdiqlangan "2022-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida jamoat xavfsizligini ta'minlash tizimini rivojlantirish strategiya"sidir, bu davlat xavfsizligi, jamoat xavfsizligi, ekologik xavfsizlik, shaxs xavfsizligi va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan xavfsizlikning boshqa turlarini ta'minlash

⁹⁸Abulqosimov X., Abulqosimov M. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot" T. 2019-yil. "Noshirlik yog'dusi" nashriyoti. -B.75.

⁹⁹ Erkayev A.N. Iqtisodiyotning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishning nazariy jihatlari. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Avtoreferati. T. 2022-yil. B.15.

bo'yicha faoliyatning asosiy tamoyillari va mazmunini belgilaydi. Ushbu strategiya O'zbekiston Respublikasi subyektlarining davlat hokimiyati organlari, xavfsizlik sohasidagi mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining vakolatlari va funksiyalarini, shuningdek mamlakat xavfsizlik Kengashining maqomini belgilaydi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasi darajasida iqtisodiy munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida, qonunchilikda va mintaqaning iqtisodiy tizimini ta'minlash uchun mustaqil instrumentlar sonini cheklaydigan yagona iqtisodiy makon tamoyillarida nazarda tutilgan "o'yin qoidalari" bilan tartibga solinadi. Mintaqani mustaqil ravishda ma'muriy funksiyalarni amalga oshirish davlatning mintaqaviy rivojlanish siyosati bilan tartibga solinadigan rasmiy va norasmiy institutlar tomonidan ta'minlanadi.

Mintaqa darajasida davlat boshqaruvining asosiy maqsadi mintaqaning normal va xavfsiz faoliyat yuritishini ta'minlash va aholining turmush sifatini oshirish uchun iqtisodiyotning turli faoliyat turlariga ta'sir ko'rsatishdir. Shu bilan birga, mintaqaga davlat boshqaruv organlarining aralashuvlari bozorni o'zini-o'zi tashkil etish jarayonida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligiga asosiy tahdidlarni va ularning manbalarini aniqlash va ularni identifikatsiyalash muhimdir. O'zbekiston va uning Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizligiga ichki va tashqi tahidlarning ta'sirini aniqlash va ularni oldini olish iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning institutsional mexanizmining muhim elementidir.

Yangi iqtisodiy munosabatlar tizimida institutsional tuzilmaning transformatsiya jarayonini professor D.Tojiboyeva tomonidan ham keng tadqiq etilgan. "Raqamli iqtisodiyot faqatgina insonning intellektual salohiyati tufayligina emas, balki institutsional muhit yaratilishi, bu muhitning biznes va iste'molchilar amaliyoti, iqtisodiy agentlarning axborot va kommunikatsion komponentlar bilan ta'minlanishining shakli, usullarini o'zgartirishiga ta'sir ko'rsatishi ham muhim o'rinn tutadi"¹⁰⁰. Bu jihatdan raqamli iqtisodiyotga yondashish muhim ahamiyatga ega bo'lib, unga berilgan ta'riflarda aks etadi.

Institutsional tuzilma transformatsiyasi ekzogen, endogen omillar va kombinatsion omillar ta'sirida sodir bo'lishi mumkin. Ekzogen omillar deganda, tashqi sharoitdan kelib chiqadigan omillar: inqirozlar va boshqa iqtisodiy hodisalar, tabiiy va iqlimiylar hodisalar tushuniladi. Endogen

¹⁰⁰ Tojiboyeva D. Raqamli iqtisodiyot institutsional nazariyaning yangi yo'nalishi sifatida. // "Iqtisod va moliya" jurnali, 2021, 1-son. 95-b.

omillar institutsional o'zgarishlarning ichki sabablari: iqtisodiyotning davriy tabiatni, yangi kashfiyotlar, texnologiyalarning paydo bo'lishi. Kombinatsion tavsifdagi omillar sinergetik ta'sir orqali institutsional tuzilmalarga ta'sir etuvchi ichki va tashqi omillar majmuasidir¹⁰¹. Biroq globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning institutsional tuzilmasini takomillashtirishda milliy innovatsion tizimning ta'sirini tadqiq etish va uni baholashga qaratilgan ilmiy izlanishlarni olib borish taqozo etilmoqda.

Milliy iqtisodiyotning institutsional tarkibiy tuzilmasini takomillashtirishda mamlakatda milliy innovatsion tizimni shakllantirish va uni rivojlantirish muhim o'rinni tutadi. Milliy innovatsion tizimlar (MIT), aksariyat hollarda, texnologik ukladlar almashinadigan davrlarda shakllanadi. MIT shakllanayotgan boshlang'ich davrda investitsion faoliyat subyektlari o'rtasidagi aloqalarning yaxlit tizimi mavjud bo'lmaydi. Ushbu aloqalarni yo'lga qo'yish va umumiy investitsion strategiyani rivojlantirishda davlat alohida o'rinni tutadi. Keyinchalik aksariyat sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lganidek, ushbu sohada biznes yetakchi mavqega ega bo'lib boradi. Ammo aynan qaysi model u yoki bu MIT uchun samarali bo'lishi noma'lum¹⁰².

Iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlar-bu mamlakatdagi iqtisodiy tizim va ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan, shaxs, jamiyat va davlatning iqtisodiy manfaatlariga putur yetkazadigan hodisalar va jarayonlardir. Tashqi iqtisodiy faoliyatni erkinlashtirish jarayonida O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lish istiqboli va MDH davlatlari erkin savdo zonasini, Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga kuzatuvchi sifatida kirishi sharoitida Qashqadaryo viloyatining milliy mahsulotlarning raqobatbardoshligi va innovatsionligiga alohida e'tibor berish talab etilmoqda. Chunki davlatning iqtisodiy xavfsizligi nuqtai nazaridan qaralsa, bunday sharoitda mintaqaning tashqi iqtisodiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tahidlar paydo bo'lishi mumkin.

Tashqi iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi siyosat mamlakatning yaxlit iqtisodiy tuzilmasi sifatida barqaror, mustaqil rivojlanishi, samarali va oqilona tashqi iqtisodiy aloqalarga asoslangan tabiiy iqtisodiy o'sishi,

¹⁰¹ Erkayev A.N. Yalpi ichki mahsulotning tarmoq tarkibi va uni belgilovchi omillar.// "Iqtisodiyot va ta'lim" jurnali, 3-soni. 2015-yil. 21-b.

¹⁰² Xoziyev B.D. Mamatov M.A. O'zbekistonda iqtisodiyotning institutsional tuzilmasinitakomillashtirishda milliy innovatsion tizimning ta'siri. Iqtisodiyot va ta'lim" 2022-yil. №2 son. -B.11.

inson faoliyatining aksariyat sohalarida innovatsion inqilobni ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak¹⁰³.

Qashqadaryo viloyati mintaqasining tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xavfsizligini ta'minlashga doir quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- import tovarlariga bo'lgan qaramlikni kamaytirib borish maqsadga muvofiq. Jumladan, import qilinayotgan tovarlarning mintaqada ishlab chiqarilishini yo'lga qo'yish. Masalan, mashina va asbob-uskunalarning importini qisqartirish, mintaqaga ehtiyojidagi mashina va asbob-uskunalarни ishlab chiqaruvchi korxonalarga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga imtiyozlar berish, ishlab chiqarishda foydalilaniladigan xomashyoning import bojlarini va yig'implari, qo'shimcha qiymat solig'isiz olib kirilishiga imkoniyat taqdim etish;

- O'zbekiston JSTga a'zo bo'lganidan so'ng, raqobatbardosh bo'limgan, amnio mamlakat iqtisodiyotida ahamiyatli bo'lgan korxonalarning faoliyati to'xtatilishi mumkin. Shu sababli tashkilot bilan muzokaralar jarayonida mintaqaga iqtisodiyoti uchun ahamiyatli bo'lgan korxonalariga imtiyozlarni saqlab qolish lozim. Bu yuzaga kelishi mumkin bo'lgan iqtisodiy xavflarni kamaytiradi;

- mamlakatning xalqaro iqtisodiy tashkilotlarga a'zo bo'lishi unga boshqa xorijiy mamlakatlar bilan teng huquqda iqtisodiy aloqalarni olib borish, arzon tovarlar va xomashyoga ega bo'lish imkonini beradi. Ammo strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmoqlarni himoya qilmasdan va ustuvor manfaatdagи import mahsulotlarni aniqlab olmasdan turib, a'zolik va integratsiyalashuvni amalga oshirish mintaqaga iqtisodiyoti, ishlab chiqarish korxonalarini va aholining iqtisodiy ta'minlanish darajasini xavf ostiga qo'yishi mumkin. Shu sababdan ham puxta o'ylangan, strategik rejorashtirilgan integratsiyalashuvni amalga oshirish zarur.

"Mamlakatni milliy iqtisoiy xavfsizligini ta'minlashning tashqi iqtisodiy mexanizmi to'g'ri amalga oshirilishi natijasida milliy iqtisodiyotning tashqi tahdidlarga qarshi turish qobiliyatini yanada oshirish imkonini beradi"¹⁰⁴. Ma'lumki, har qanday ierarxik tizim ertami-kechmi beqarorlik holatiga o'tadi va mavjud tizimning o'zgarishi eng oldindan aytib bo'lmaydigan tarzda sodir bo'ladi. Biroq, ushbu o'zgarishlar natijasida yuqori darajadagi tartibga ega bo'lgan yanada murakkab

103Asabaev A.S. O'zbekistonning tashqi iqtisodiy faoliyatidagi xavfsizligi: integratsiyalashuv va tahidlar. "Iqtisodiyot va ta'l'im" jurnali 2022-yil №3. –B.143.

¹⁰⁴Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matba uyi" 2021-yil. –B.42.

neoplazmalar, tuzilmalar paydo bo'ladi. Sinergetika nuqtai nazaridan tizimning barqarorligini yo'qotishni faqat yuqori darajadagi barqarorlikni shakllantirish bilan asoslash mumkin.

Shu sababli, iqtisodiyotning rivojlanishini samarali boshqarish va Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun mintaqa rivojlanishining ijobiy traektoriyalarini "jalb qila oladigan" jalb qiluvchi tuzilma-atraktorlarni shakllantirish g'oyalari asosida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning yangi paradigmasini shakllantirish lozim. Mintaka iqtisodiy tizimining o'z-o'zini tashkil etish jarayonida, yuqorida aytib o'tilganidek, atraktorni jalb qilish sohasida barqarorlikning yangi sifatiga ega bo'ladi.

"Attraktor" atamasi matematikadan olingan bo'lib va aniq fanlar sohasida to'plamni o'ziga jalb qilishini anglatadi. Sinergetikada attraktor deganda nochiziqli muhitdagi barcha evolyutsion jarayoni oraliq jarayonlarning susayishi natijasida kelib chiqadigan haqiqiy barqaror tuzilma tushuniladi.

Attraktorning o'ziga xosligi u tomonidan olingan axborotning to'planishi va saqlanib qolishidir, natijada u keyingi barcha voqealarni o'ziga "jalb qiladi". Agar attraktor shakllangan bo'lsa, unda tizim endi asl holatiga qayta olmaydi yoki boshqa ijobiy attraktorga o'ta olmaydi. Mayjud iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlarning kuchayishi va yangi global iqtisodiy va ijtimoiy tahdidlarning o'sishi sharoitida mamlakat va uning alohida mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi uchun ijobiy "attraktorni" shakllantirish strategik muhim vazifaga aylanadi, uni hal qilish iqtisodiyot va jamiyatning beqaror holatdan, yangi sifat holatga, iqtisodiy xavfsizlikning yangi darajasiga o'tishini samarali ta'minlaydi.

Qashqadaryo viloyatida individual mehnat va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan, tadbirkorlar va iqtisodiy faoliyat olib borayotgan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatuvchi korxonalar mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi obyekti bo'lib xizmat qiladi. Iqtisodiy xavfsizlik subyektlari bo'lib mintaqaning ijro etuvchi va qonun chiqaruvchi hokimiyat organlari hisoblanadi. Qashqadaryo viloyati mintaqasining ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi attraktor sifatida mintaqada rasmiy shakllangan institutlar; Qashqadaryo viloyati hokimligi, tuman va shahar hokimliklari, Viloyat va tuman ichki ishlar organlari, milliy gvardiya, prokuratura, davlat xavfsizligi organlari va boshqa davlat va ijtimoiy tashkilotlar tashkil etadi. Ushbu institutlarning funksional maqsad va vazifalaridan kelib chiqib mintaqada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlarni

amalga oshiradi. Ijtimoiy-iqtisodiy tizimdagi attraktor tarkibiy o'zini-o'zi tashkil etishni rag'batlantirish yoki iqtisodiy xavfsizlik darajasining oshirishga olib keladigan endogen sifat o'zgarishlarini amalga oshirishi mumkin.

Iqtisodiy xavfsizlikka nisbatan xavf va tahdidlarning kuchayishi tendensiyasini hisobga olgan holda, shuningdek mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishning mavjud tarkibiy tuzilmasini tahlil qilish asosida uni takomillashtirish zarur deb hisoblaymiz. Qashqadaryo viloyatida viloyat hokimligi huzurida Qashqadaryo viloyati hokimining iqtisodiy masalalari bo'yicha o'rnibosari rahbarligida iqtisodiy xavfsizlik bo'yicha jamoatchilik asosida idoralararo ishchi komissiyani tuzishni, uning funksiyalariga mintaqaning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi hokimiyat boshqaruvi organlari faoliyatini huquqni muhofaza qilish va boshqa tuzilmalari, shuningdek respublika iqtisodiy xavfsizlikni boshqarish organlari faoliyati bilan muvofiqlashtirish kiradi.

Bu idoralararo ishchi komissiyaga rahbarlikni Qashqadaryo viloyati hokimining iqtisodiy masalalari bo'yicha o'rnibosariga yuklatish va unga viloyatning moliya-iqtisod tashkilot rahbarlaridan tashkil topgan "Qashqadaryo viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" idoralararo ishchi komissiyani tashkil etish maqsadga muvofiq bo'lar edi. "Qashqadaryo viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" idoralararo ishchi komissiyaga mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha vakolat va masuliyatiga quyidagilar kiritilishi tavsiya etiladi:

- mintaqqa iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash sohasida samarali mintaqaviy siyosatni shakllantirish;
- mintaqqa aholisining huquq va manfaatlarini himoya qilishni ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish;
- mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirishni tashkil etish;
- fuqaro mudofaasi, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ogohlantirish uning oqibatlarini bartaraf etish, suv havzalarida yong'in xavfsizligi va inson xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari;
- "Qashqadaryo viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" idoralararo ishchi komissiya mintaqada quyidagi: Aholi va hududlarni muhofaza qilish boshqarmasi, Hokimiyatning jamoat xavfsizligi qo'mitasi, Hokimiyatni safarbar etish qo'mitasi, Jamoatchilik sudyalari faoliyatini ta'minlash qo'mitasi, Mintaqaning aksilterror

komissiyasi faoliyatini ta'minlash bo'limi va Hokimiyatning xavfsizlik Kengashi faoliyatini muvofiqlashtirish ishlarini olib borish;

• iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalari bo'yicha viloyat hokimligining boshqaruvi organlarining respublika davlat hokimiyati va viloyatning mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash.

"Qashqadaro viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash" idoralararo ishchi komissiyasi mintaqada iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bo'yicha quyidagi yo'nalishlarda institutsional islohotlarni olib borishi lozim:

• iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ta'sirini minimallashtirish maqsadida xavflarni, global muammolarni tizimli monitoring qilish va sifatli tahlil qilish;

• mulk huquqini himoya qilish, xususiy mulk institutini sifatli rivojlantirish;

• iqtisodiy sohadagi byurokratiyaning ijobjiy o'zgarishlarga to'sqinlik qiluvchi korruption harakatlarini bartaraf etish;

• tadbirkorlik va innovatsion faoliyat ko'lamini kengaytirishga qodir moliya bozorlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish;

• inson kapitali sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislarni innovatsion faoliyatga jalb qilish;

• kapital, texnologiya va "tajribali" kadrlarni xalqaro almashinuvi tajribasini rivojlantirish;

• investitsiya bozorlari samaradorligini oshirish, tadbirkorlarning moliyaviy va investitsiya resurslaridan erkin foydalanishini ta'minlash.

Shunday qilib, iqtisodiy xavfsizlik sohasidagi mintaqaviy siyosat mintaqada qonun va tartibni ta'minlash, iqtisodiy manfaatlari va mulknii himoya qilish, yashirin iqtisodiyotni, yirik oligarxik kapitalning monopolizmi, iqtisodiyotda uyushgan jinoyatchilik, inqirozli vaziyatlarning paydo bo'lishi va boshqalar kabi yangi tahdidlarga qarshi kurashish uchun zarur institutsional shart-sharoit va mexanizmlarni yaratishdir. Iqtisodiy xavfsizlik uchun mavjud va potensial tahdidlarning oldini olish uchun tegishli Qonunchilik va me'yoriy-normativ hujjatlarni yaratish, shuningdek iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini shakllantirish, yashirin iqtisodiyotga, iqtisodiy jinoyatchilikka qarshi kurashish, mintaqadagi bir qator tumanlarni iqtisodiy differensatsiyasini chuqurlashuvini oldini olish, ishsizlik, qashshoqlik, raqamlashtirish jarayonlari natijasida yuzaga keladigan yangi turdag'i iqtisodiy

tahdidlarning paydo bo‘lishi kabi eng keskin ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan davlat dasturiy chora-tadbirlarni ishlab chiqish kerak.

Bundan tashqari, Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashning ilmiy asoslangan konsepsiyasini ishlab chiqish zarur, bu konsepsiya mintaqasi iqtisodiyotini raqamli iqtisodiyotga transformatsiyasi bosqichida iqtisodiy xavfsizlikni ta’minlash, mintaqasi va uning doimiy yashovchi aholisining iqtisodiy manfaatlarni ta’minlash sohasida tezkor chora-tadbirlarni ishlab chiqish bo‘yicha qarashlarni shakkantiradi. Shuningdek, mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik tizimini rivojlantirishning strategik ustuvor yo‘nalishlarini belgilaydigan iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish dasturini ishlab chiqish zarurati mavjud.

Ushbu institutlar o‘z funksiyalarini to‘liq bajarmaydilar va ba’zilarining mavjudligi iqtisodiyotni rivojlantirish uchun jiddiy institutsional to‘sinq bo‘lishi mumkin. Zotan, iqtisodiyotning barcha darajadagi ichki nomutanosibligi uning rivojlanishiga to‘sinqlik qiladigan va iqtisodiy xavfsizlikni oshirishning asosiy muammolardan biridir.

3.2-§. Raqamli iqtisodiyotga o‘tish sharoitida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 28-apreldagi PQ-4699-son “Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjalarda belgilangan vazifalarni amalga oshipish orqali O‘zbekistonda hamda uning Qashqadaryo viloyatida keng ko‘lamli raqamli iqtisodiyot dasturi ishga tushirildi.

“Global innovatsiyalar indeksi”ning hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2021-yilda 7 ta pog‘onaga ko‘tarilib, 132 ta o‘rindan 86-o‘rinni egallagan, shu sababli eng yuqori pog‘onalardagi mamlakatlar Top-10 taligiga kiritilgan¹⁰⁵. “Raqamli O‘zbekiston - 2030” dasturi rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan holda amalga oshirilishi natijasida mamlakatimiz “Raqamli dunyo”da o‘zining munosib o‘rniga ega bo‘ladi. “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Bu bizga yuksalishning eng qisqa yo‘lidan

¹⁰⁵ Manba: <https://www.globalinnovationindex.org/gii-2021-report>.

borish imkoniyatlarini beradi. Zero, butun dunyoda barcha sohalarga axborot texnologiyalari chuqur kirib bormoqda”¹⁰⁶.

Raqamli iqtisodiyot - bu raqamli ma'lumotlarning katta hajmda tarmoqlarga tatbiq etishni, korxonaning faoliyatini, aholining ijtimoiy hayotidagi iqtisodiy munosabatlarni anglatadi. Raqamli iqtisodiyot subyektlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir doirasini ijtimoiy va savdo-tijorat maqsadlarga erishish yo'lida imkon beruvchi raqamli platforma vazifasini bajaradi¹⁰⁷. Raqamlashtirish jarayonida iqtisodiy xavfsizlik sohasida yangi xavf va tahdidlar paydo bo'lib, ular iqtisodiyotning muvozanatsiz holatlarining asosiy manbalari bo'lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, tadqiqotchilar raqamlashtirishdan kutilayotgan ijobjiy ta'sirni, masalan, real vaqt rejimida axborot makonining ishtirokchilari o'rtasida keng ko'lamli ma'lumotlar almashinuvi, iqtisodiy boshqaruv sifatini yaxshilash, mamlakatdagi mintaqalararo va mintaqqa ichidagi farqlarni tekislash va h.k ta'kidlab o'tadi.

Axborot jamiyati va raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, mamlakatning raqobatbardoshligini belgilaydigan va iqtisodiy samaradorlikni oshirishning asosiy omili sifatida faoliyat yurituvchi intellektual resurslardir. Qashqadaryo viloyati mintaqasining intellektual resurslari-bu aholining yalpi bilim, ko'nikma, axborot, texnologik va ma'naviy salohiyati, ta'lim darajasi va sifati bo'lib undan uzoq muddat davomida ijtimoiy.-iqtisodiy boyliklarni ishlab chiqarishda foydalanish tushiniladi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasida yuqori malakali ishchilar ulushining yillik o'sishiga ushbu mintaqalardagi ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlarini (ITTKI) olib boruvchi tashkilotlar soni to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rindaniki O'zbekiston Respublikasida bugungi kunda ITTKI olib boruvchi tashkilotlar soni 2015-yilda 323 tadan 2018-yilda o'zining maksimal 668 taga yetib keyingi davrlarda ushbu turagi tashkilotlarni byudjetdan moliyalashtirishdagi muammolar sababli kamayib 2021-yilga kelib 332 taga tushib qoldi.

¹⁰⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar. Namangan haqiqati 2020-yil 25-yanvar. № 7 (19626).

¹⁰⁷ Xoshimov E.A., Exsonov J.R. Raqamlashtirish sharoitida transport sektorida korporativ forsayt texnologiyasidan foydalanish yo'llari. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №2, aprel', 2021-yil. ISSN: 2181-1016.

3.2.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarida ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik faoliyatini olib boruvchi tashkilotlar soni¹⁰⁸

Nº	Hududlar	2015	2017	2018	2019	2021
1.	O'zbekiston Respublikasi	323	389	668	304	332
2.	Qoraqalpog'iston Respublikasi	19	24	30	9	12
3.	Andijon viloyati	9	10	22	5	10
4.	Buxoro viloyati	12	12	24	10	12
5.	Jizzax viloyati	12	10	10	7	8
6.	Qashqadaryo viloyati	10	15	23	4	6
7.	Navvoiyl viloyati	10	9	11	6	7
8.	Namangan viloyati	10	10	10	9	11
9.	Samarqand viloyati	18	18	34	14	16
10.	Surxondaryo viloyati	5	13	19	8	9
11.	Sirdaryo viloyati	12	6	10	4	5
12.	Toshkent viloyati	31	32	59	25	28
13.	Farg'ona viloyati	17	21	36	15	18
14.	Xorazm viloyati	6	9	15	7	9
15.	Toshkent sh.	152	200	365	181	181


Qashqadaryo viloyatida ham ITTKI olib boruvchi tashkilotlar soni 2015-yilda 10 tadan 2018-yilda o'zining maksimal 23 taga yetib keyingi davrlarda ushbu turagi tashkilotlarni byudjetdan moliyalashtirishdagi muammolar sababli kamayib 2021-yilga kelib 6 taga tushib qoldi. Bu davrda Surxondaryo viloyatida 9 ta va Samarqand viloyatida 16 ta ITTKI olib boruvchi tashkilotlar mavjud. O'zbekiston Respublikasida ITTKI olib boruvchi tashkilotlarning asosiy 62,9% foizi Toshkent sh (54,5%) va Toshkent viloyatida (8,4%) to'g'ri kelmoqda. Bu holat Qashqadaryo viloyatida ITTKI olib boruvchi institutlarning Respublikadagi o'mni sezilarsiz darajada ekanligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi ma'lumotlariga ko'ra, respublikada tahlil qilinayotgan davrda jami 14976 ta ilmiy daraja olganlardan 2408 (16%) nafari fan doktori, 12568 (84%) fan nomzodlari ekanligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida ilmiy darajaga ega tadqiqotchilar soni

¹⁰⁸O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T. 2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovations faoliyat statistik to'plam. –Toshkent, 2021. asosida muallif tomonidan tuzilgan.

bo'yicha 2015-yilda (3514 kidan) 2021-yilga kelib (14976 kishiga) o'sdi. Uning asosi qismi 46,2% yoki (6922 kishi) Toshkent shahri to'g'ri kelmoqda va Samarqand viloyati 14,3% (2154 kishi) yildan-yilga yetakchi o'rirlarni saqlab qolishmoqda. O'zbekiston Respublikasi mintaqalari o'rtasda uchinchi o'rinni Buxoro viloyati (986 kishi), to'rtinchini o'rinni Farg'onalar viloyati (842 kishi) va beshinchi o'rinni Qashqadaryo viloyati (786 kishi) bilan egalaydi. Eng quyi o'rirlarni Navoiy viloyati (254 kishi) va Sidaryo viloyati (423 kishi) bilan egallaydi. Bu Qashqadaryo viloyatida ilmiy darajali mutaxassislar soni bo'yicha

OTM professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy darajalilar soni



3.2.1-rasm. OTM professor-o'qituvchilar tarkibida ilmiy darajalilar soni¹⁰⁹


Respublikada quyi o'rirlardan birini egallashi va bu mintaqada raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda o'ziga xos tahdidlarni yuzaga keltiradi.

"Fan-ta'lum-ishlab chiqarish" integratsion tizimining subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish va iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirishda mintaqaning innovatsion salohiyatidan foydalanish uchun shart-sharoitlarni yaratish hisoblanadi"¹¹⁰.

¹⁰⁹ Manba: muallif tomonidan hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. T.2021-y.-B.124.

¹¹⁰ Otajonov SH.I., Daliyev X.X. Ilmiy-texnik ishlanchalmalarni tijoratlashtirishasosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №6, dekabr, 2021-yil.

Taqiqotimizda raqamli iqtisoiyotni rivojlanishida faoliyat olib boruvchi oliy ta'lim muassasalarining (OTM) bitiruvchi-magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi muhim ahamiyat kasb etadi. Tahlillarga ko'ra Respublikamizda OTMlarning bitiruvchi-magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi bo'yicha eng yuqori o'rinda Jizzax viloyati raqobatbardoshlik darajasi 100%ni tashkil qiladi. Ikkinchi o'rinda Farg'ona viloyati 94,8% va uchinchi o'rinda Namangan viloyati 92,5%, to'rtinchi o'rinda Buxoro vioyati 91,4% va beshinchi o'rinda Qashqadaryo viloyati 89,7% bilan egallamoqda. Qashqadaryo viloyatida bitiruvchi-magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi 2015-yilda 92,5%dan, 2019-yiga klib 84,5%ga kamaygan va 2021-yilga kelib 89,7%ga o'sgan. Respublikamizning poytaxti Toshkent shaxri oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchi - magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi 2015-yilda 86,1%dan 2021-yilga kelib barqaror 89,4%gacha o'sib borgan. Samarqand sh. oliy ta'lim muassasalarining bitiruvchi-magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi 2015-yilda 81,9%dan 2021-yilga kelib barqaror 86,6%gacha o'sib borgan¹¹¹.



3.2.2-rasm. Ta'lim muassasalari bitiruvchi-magistrlarning raqobatbardoshlik darajasi (%da)¹¹²

¹¹¹ Manba: muallif tomonidan hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. T.2021-y.-B.124.


¹¹² Manba: muallif tomonidan hisoblandi. O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. T.2021-y.-B.124.

Qashqadaryo viloyatida bulutli texnologiyalar rivojlanayotgan raqamli iqtisodiyotning poydevoriga muhim hissa qo'shdi. Bunday texnologiyalar dasturiy ta'minotdan foydalangan holda ma'lumotlarni qayta ishlash, uzatish va saqlash imkoniyatini beradi. Bulutli texnologiyalarning axborot texnologiyalari konsepsiysi bu - konfiguratsiyali hisoblash resurslarining umumiy hajmi talablariga binoan minimal operatsion xarajatlar asosida tarmoqli tuzilmalarga doimiy kirish imkoniyatidan iborat ta'minlanganlik bo'lib hisoblanadi. Masalan, serverlar, saqlash qurilmalari, ma'lumotlarni tarmoqli uzatish, dasturlar va boshqalar.

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida axborot texnologiyalarining yana bir sohasi - Big Data faol rivojlanmoqda. Ushbu texnologiya tezkor samarali qarorlarni qabul qilishga imkon beradigan ishonchli natijalarga erishish uchun katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlashga mo'ljallangan yondashuvlar, instrumentlar va usullar to'plamini o'z ichiga oladi. Raqamli iqtisodiyotni Buyumlar Internetisiz va buyumlar sanoati Internetisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Texnologiyaning instrumental ko'rsatkichlari sifatida ushbu texnologiyalar juda o'xshash, chunki ular real vaqtda jarayonlarni masofadan monitoring qilish, nazorat qilish, va boshqarish imkonini beradigan ko'plab texnologiyalarni birlashtiradi.

Milliy iqtisodiyotning raqamli iqtisodiyotga transformatsiyalashuvi sharoitida ITTKIga yo'naltirilgan investitsiyalarning roli katta. Iqtisodiyotda ITTKI ishlanmalarini amalda qo'llashning daromadlilik ehtimoli iqtisodiy o'sish sifati xususiyatlarini belgilab beradi va natijada iqtisodiy o'sish yuz beradi¹¹³. Tadqiqotimizda ITTKIga qilingan xarajatlarning mintaqalar bo'yicha tahlili muhim o'rinni egallaydi. O'zbekiston Respublikasi mintaqalari bo'yicha ITTKIga qilingan xarajatlarning asosiy 62,3% Toshkent shahriga to'g'ri kelmoqda. Tadqiq etilayotgan davrda uning ulushi 64,4%dan 2015-yilda 62,3%gacha o'zgarib turgan. ITTKIga qilingan xarajatlarda mintaqalar bo'yicha ikkinchi o'rinda Farg'ona viloyati 10,0%, uchinchi o'rinda Toshkent viloyati 9,5% va to'rtinchi o'rinda Navoiy viloyati 7,5% bilan egallaydi. Eng quyi o'rinda Surxondaryo viloyati 0,12%, Sirdaryo viloyati 0,15% va Qashqadaryo viloyati 0,67% bilan egallaydi.

¹¹³Mamatov M.A. Innovatsion investitsiyalapning iqtisodiy o'sish sifatiga ta'sipini oshishning nazapiy asoslaphini takomillashtipish// Monografiya. –Tashkent: "Iqtisod-Moliya", 2017. –65 b.



3.2.3-rasm. Oʻzbekiston Respublikasi mintaqalarida ilmiy tadqiqot va tajriba-konstrukturlik ishlariiga xarajatlar¹¹⁴

Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida yangi texnologik ukladning takror ishlab chiqarish tarkibiy tuzilmasini shakllantirish, yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, bilimlarni bozorda aniq mahsulotga jadal uzatish, mavjud resurslarni qayta taqsimlashga imkon beruvchi vakolatli moliyalashtirish mexanizmini yaratish, hamda raqamli iqtisodiyot infratuzilmasi boʻlgan texnopark, tadqiqot va muhandislik markazlarini innovatsion mintaqaviy klasterlarini rivojlantrish dolzarb boʻlib hisoblanadi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasining 2021-yildagi ixtirochilik faoliyatini tahlil qilish shuni koʼrsatdiki, ixtiolar uchun patent talabnomalarining umumiy soni 2015-yilga nisbatan deyarli yarmiga koʼpaygan va 145 ta arizani tashkil etgan. Sanoat namunalari uchun patent talabnomalarining umumiy soni kamaydi. Umuman olganda, oʼrganish davrida mintaqada intellektual mulk oʼsishi dinamikasi beqaror ekanligini

114 Manba: muallif tomonidan hisoblangan. Oʼzbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, Oʼzbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat statistik toʼplam. –Toshkent, 2021.

ko'rsatmoqda. "Olimlarimiz tomonidan yaratilgan va patentlangan ixtiolar tijoratlashtirilishi yiliga 1 foiziga ham yetmagan, sababi patent aksariyat hollarda doktorlik dissertatsiyalarni himoya qilishda, hisobotlarda aks ettirish maqsadida olinmoqda"¹¹⁵. O'zbekiston Respublikasi mintaqalari orasida Toshkent sh, Toshkent, Samarqand, Buxoro va Farg'ona viloyatlari intellektual mulk obyektlaridan foydalanish bo'yicha bo'lib qolmoqda.

Qashqadaryo viloyatida mintaqaviy klasterlarning turli xil tarmoq tuzilmalarini tashkil etish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilangan. Klasterlarni yaratish nafaqat unda faoliyat yuritayotgan kompaniyalarni balki, hududni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirishni ta'minlovchi tizim bo'lganligi uchun "klaster tashabbuskorlari" yildan-yilga ko'payib bormoqda. Bugungi kunda Qashqadaryo viloyatida 12 ta paxtachilik-to'qimachilik klasterlari faoliyat yuritmoqda va ularni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari qabul qilinmoqda. "Paxta va to'qimachilik sanoati - bu yagona texnologik bo'g'inga ulangan korxonalar majmuasi bo'lib, u fan yutuqlari va eng yangi texnologiyalarni amaliy faoliyatga joriy etish hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashni o'z ichiga oladi"¹¹⁶.

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarini to'qimachilik sanoatining hududiy mujassamlashuv va ixtisoslashuv darajasiga qarab, ularni bir nechta guruhga ajratish mumkin. Masalan, hududiy mujassamlashuv ko'rsatkichi yuqori bo'lgan guruhga Namangan, Farg'ona va Andijon, viloyatlari kiradi. Ushbu ko'rsatkich Buxoro, Xorazm, Samarqand, Toshkent viloyatlarida o'rta, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy viloyatlarida quyi darajada. Hududiy ixtisoslashuv darajasiga ko'ra, ixtisoslashuv darajasi yuqori bo'lgan viloyatlar - Andijon, Farg'ona, Namangan, Buxoro va Xorazm; ixtisoslashuv darajasi o'rta bo'lgan hududlar - Toshkent shahri, Toshkent va Samarqand viloyatlari; ixtisoslashuv darajasi quyi bo'lganlarga Qoraqalpog'iston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxondaryo, Sirdaryo, Navoiy viloyatlaridir¹¹⁷. Bundan ko'rindaniki Qashqadaryo viloyatida klasterlarni mujassamlashuvi va

¹¹⁵ Otajonov SH.I., Daliev X.X. Ilmiy-texnik ishlannimalarni tijoratlashtirishasosida iqtisodiyotni innovatsion rivojlantirish. "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy jurnali. №6, dekabr', 2021-yil.

¹¹⁶ Rahmatov M.A., Zaripov B.Z. Klasterintegratsiya, innovatsiya va iqtisodiy o'sish. RisolaT."Zamin Nashr" nashriyoti 2018- y.-B.38.

¹¹⁷ Yuldashev S.N., Davlyatov B.A. Klaster tuzilmalarini tashkil etish va faoliyat olib borish samaradorligini oshirishda hududlar iqtisodiyotining asosiy yo'nalishlari. Ligistika va iqtisod jurnali №3-son. 2021-yil.

ixtisoslashuvi quyi darajani tashkil etib bu mintaqada fan yutuqlari va eng yangi texnologiyalarni joriy etish hamda ta'limni ishlab chiqarish bilan integratsiyalashda qator muammlarni vujudga keltiradi.

Bizning fikrimzcha, Qashqadaryo viloyati mintaqasida davlat-xususiy sherikchiliginı rivojlantirish uchun quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish va amaliyotda alohida loyiha ustida parallel tadqiqotlarni olib borish;
- ilg'or xorijiy tajribalarni chuqur o'rganish va xalqaro amaliyotda yo'l qo'yilgan kamchiliklarni takrorlamaslik choralarini ko'rish;
- milliy iqtisodiyotda DXSh investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini baholash;
- davlat va xususiy biznes o'rtasida axborotlar almashinuvini ta'minlash;
- soha uchun malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish.

Bugungi kunda axborot va aloqani izlab topishning asosiy instrumenti internet bo'lib, u jamiyatdagi kommunikatsiya usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Raqamlari platformalardan foydalanish to'g'ridan-to'g'ri kommunikatsion aloqa qilish imkoniyatini beradi va uning ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro aloqa qilish jarayonini osonlashtiradi. Global ma'lumotlar uzatish tarmog'iga kirish imkoniyati yo'q bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar, ma'lumotlarni boshqa mamlakatlar bozorlari va texnologiyalariga o'tish imkoniyatiga ega bo'lmay jahon taraqqiyotidan "tashqarida" bo'lib qoladilar va raqobatbardoshligini yo'qotadilar.

Qashqadaryo viloyatida 2015-yildan 2021-yilgacha bo'lgan davrda internetdan foydalanuvchi tashkilotlar sonining barqaror o'sish dinamikasiga ega. 2021-yilga kelib Internetga ulangan tashkilotlarning o'rtacha ulushi 81,1% ni tashkil etadi. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi mintaqalari orasida shaxsiy kompyuterlardan foydalangan tashkilotlarning ulushi quyidagi subyektlar bo'yicha kamayib bormoqda: Surxondaryo (1%) va Xorazm (4,8%), Jizzax (1,5%), Navoiy (6,2%), va Qashqadaryo viloyatlari (1,7%)¹¹⁸. Bu mintaqaga ishlab chiqarish tashkilotlar va aholini internetga ulanish ishlarini faollashtirishni ta'lاب etadi. Shu bilan birga mintaqada raqamlashtirish dasturining ijobiy roliga qaramay, uning quyidagi kamchiliklarini ta'kidlab o'tish kerak:

¹¹⁸ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T. 2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat statistik to'plam. -Toshkent, 2021.

Birinchidan, dasturda Qashqadaryo viloyatining texnologik jihatdan qoloqligi, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish nuqtai nazaridan mintaqalararo differensatsiyani mavjudligi va boshqalar hisobga olinmagan;

Ikkinchidan, Qashqadaryo viloyati mintaqasining raqamli iqtisodiyotga o'tishga tayyorlik monitoringi mavjud emas;

Uchinchidan, strategiyada istiqbolda axborot jamiyati va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi oqibatlari bilan bog'liq mumkin bo'lgan xavflar, tahdidlar ochib berilmagan.

O'zbekiston Respublikasi hukumati mintaqalarga iqtisodiy xavfsizlik sohasida o'z dasturlari va strategiyalarini mustaqil ravishda ishlab chiqish va amalga oshirish huquqini bergen, shuningdek milliy iqtisodiyot manfaatlarini hisobga olgan holda har bir mintaqaga uchun miqdoriy parametrlarni va iqtisodiy xavfsizlik mezonlarini aniqlash imkoniyatini bergen.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi №201сон, "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qarori"¹¹⁹ asosida tasdiqlangan dastur Qashqadaryo viloyati mintaqasini 2022-2026-yillarga mo'ljallangan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash strategiyasi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, strategiya umumiy g'oyani belgilaydi va obyektning rivojlanish yo'nalishini, vektorini asoslaydi. Taktika strategiyani amalga oshirishda instrument bo'lib, uning ajralmas qismi hisoblanadi. Bitta strategiya doirasida rejalarни amalga oshirish instrumenti bo'lgan turli xil taktikalar to'plamidan foydalanish mumkin.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyada belgilangan ustuvor maqsadlarga e'tibor beradigan bo'lsak unda 2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotini 1,5 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmini 1,5 barobarga, qishloq xo'jalik maxsuotlarini ishlab chiqarish 1,21 barobar, xizmatlar hajmini 2,9 barobar hamda qurilish ishlari xajmini 1,2 barobarga oshirish ko'rsatkichlari tasdiqlangan. Bizning yuqorida olib borgan tahlillarimizga ko'ra Qashqadaryo viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda keyingi o'n yilda Respublika ko'rsatkichlaridan orqada qolish tendensiyasiga ega.

¹¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 20-apreldagi №201сон, "2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarni kompleks iqtisodiy rivojlantirish ijtimoiy va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida qarori".

Tahlillarimizga ko'ra mintaqada 2010-2021-yilda yalpi hududiy mahsulot Respublika YalMni o'sish sur'atlaridan ortda qolmoqda. Respublika YalM hajmi 2010-2021-yillarda 206,6%ga o'sgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyati YaHM 138,4%ga o'sdi. YaHMning Respublikadagi ulushi 2010-yilda 7,5%dan 2019-yilga kelib 6,1%ni va 2021-yilga kelib respublika ko'rsatkichining 6,0%ni tashkil etmoqda. Yalpi hududiy mahsulot ishlab chiqarish tarkibida sanoat mahsulotidagi ulushi 13,0 foizdan 4,1 foizga kamaygan¹²⁰. Yangi O'zbekiston Strategiyasida 2030-yilga qadar yalpi ichki mahsulot hajmini 2,5 baravar ko'paytirish, milliy iqtisodiyot tarkibida sanoatning ulushini 40 foizga yetkazish¹²¹ bo'yicha aniq maqsadli dasturlar belgilangan bo'lib Qashqadaryo viloyati ko'rsatkichlari ushbu strategiyaga mos kelishi uchun 2022-2026-yillarda Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotini 2,0 barobarga, sanoat mahsulotlari hajmini 2,0 barobarga, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish 1,6 barobar, xizmatlar hajmini 2,9 barobar hamda qurilish ishlari hajmini 1,7 barobarga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Mintaqa iqtisodiyotini raqamlashtirish sharoitida Qashqadaryo viloyati uchun iqtisodiy xavfsizlikning quyidagi asosiy tahdidlarni ta'kidlab o'tish mumkin:

1. Mintaqa iqtisodiyotda ish o'rinalining sezilarli darajada qisqarishi, bu umumiy talablarni oshirish orqali mehnat bozorida raqobatning kuchayishiga olib keladi IT texnologiyalari sohasida ixtisoslashgan vakolatlarning mavjudligi sababli ishchi kasblarning status "holati"ning pasayishi, tor profilli yangi kasblarning paydo bo'lishi, ixtisoslashtirilgan o'quv markazlarining kamligi va boshqa tahdidlarning yuzaga kelish ehtimoli orqali baholash mumkin.

2. Qashqadaryo viloyatida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishini ta'minlaydigan me'yoriy-huquqiy bazani va iqtisodiy mexanizmni nomukammalligi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayonida yangi tendensiyalarning paydo bo'lishi va joriy etilishi turli xil firibgarliklar, shaxsiy ma'lumotlar yoki tijorat resurslari xavfsizligining yetishmasligi, IT sohasidagi institutsional tartibga solish jarayonini nomukammalligi, Internetda shaxsiy va ijtimoiy javobgarlikning yetishmasligi ehtimolini keltirib chiqarishi mumkin.

3. Qashqadaryo viloyatida aksariyat insonlarning robotlar bilan aloqa qilish istiqbollari bilan bog'liq ijtimoiy va gumanitar muammolar.

¹²⁰ Qashqadaryo viloyatining statistik axborotnomasi. Qarshi 2021-yil. -B.18.

121 Mipziyoyev SH.M. "Yangi O'zbekiston Strategiyasi". -T.: O'zbekiston nashriyoti. 2021-y. - 464 b.

Robotlarning jamiyatning kundalik hayotiga kiritilishi insonlarda ommaviy qaramlik, boqimandalik yoki ishyoqmaslik kayfiyatini kuchayishi va shundan kelib chiqib turli tahdidlarga olib kelishi mumkin. Masalan, ta'lim va tarbiya darajasining pasayishi, o'zini-o'zi rivojlantirish uchun rag'batlantirishning yetishmasligi, insonlar muloqotini tanqisligi, zarar yetkazishi yoki xavfsizlik standartlarini buzgan holda qasddan xavfli vaziyatni yaratishi tufayli jamiyatning tanazzulidir.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlik tizimida aniqlangan tahdidlar, bizga amaliy harakatlar to'plamini ishlab chiqish uchun boshlang'ich nuqta bo'lib hisoblanadi. Shunday qilib, iqtisodiyotni raqamlashtirish bosqichida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash muammolarini tahlil qilish va tizimlashtirish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning aniqlangan omillari va institutsional jihatlari bizga Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konseptual modelini ishlab chiqish imkonini berdi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konseptual modelining kirish qismida mintaqaning institutsional shart-sharoitlari, xususiyatlari va iqtisodiy xavfsizlik omillari hamda mintaqani iqtisodiy xavfsizligi tizimining tashkiliy tuzilmasi turadi. Chiqish qismida mintaqani xavfsiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish shart-sharoitlari turadi.


Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha taklif etilayotgan model tizimining eng muhim tarkibiy qismlarini unda ifoda etilganligi bilan tavsiflanadi:

1) Jarayonli, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning eng muhim yo'nalishlarida resurslarni tartibga solish, nazorat qilish, konsentratsiyalashni ta'minlaydi;

2) Tarkibiy tuzilmani shakllantiruvchi, bo'limlar va xizmatlardan iborat bo'lgan yalpi boshqaruv organlarining to'plami bo'lib mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik tizimini normativ-huquqiy, axborot, tashkiliy, kadrlar va texnik ta'minoti funksiyalarini amalgaga oshiradi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash modelining konstruksiyasini shakllantirish jarayonida tizimli va institutsional-evolyutsion yondashuvlar instrumentlaridan hamda mintaqaviy iqtisodiy tizimning murakkabligini, iqtisodiy xavfsizlik omillarining xilma-xilligini, shuningdek mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini boshqarish funksiyalari va mexanizmlarini hisobga olish imkonini beradigan asosiy tashkiliy tamoyillardan foydalanildi.

¹²¹ Manba: mualif tomonidan tuzilgan.



3.2.4-rasm. Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta' minlashning konseptual modeli¹²²

Davlat tomonidan Respublika darajasida amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning umumiy mexanizmlaridan tashqari, modelda mintaqaviy darajada amalga oshiriladigan iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashning maxsus mexanizmlari: tartibga soluvchi, moliyaviy, tashkiliy va ma'muriy, ijtimoiy sheriklik mexanizmlari, infratuzilma, axborot, o'z-o'zini tashkil etish va konvergensiya mexanizmlari keltirigan. Maxsus iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi majmuali qo'llanilishi va mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash tizimining bir qismi bo'lishi kerak.

Bizningcha Qashqadaryo viloyat mintaqasida raqamli innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirishda davlatning faoliyati quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirilishi lozim:

- to'g'ridan-to'g'ri byudjetni moliyalashtirish orqali innovatsion loyihalarni amalga oshirish;
- innovatsion yo'naltirilgan biznes subyektlaridan davlat buyurtmalari ulushini majburiy joylashtirish;
- innovatsion yo'naltirilgan biznes uchun imtiyozli soliqqa tortish tizimini o'rnatish;
- innovatsion korxonalar tomonidan (davlat mulkini ijaraga olishda) ijara to'lovlarini to'lash bo'yicha imtiyozlar berish;
- ilmiy tadqiqot ishlarini bajarish va innovatsion ishlamalarni amalga oshirish uchun tanlov asosida grantlar ajratadigan maxsus fondlarni tashkil etish;
- Venchur fondlarni rivojlantirishni tashkil etish va ko'maklashish;
- intellektual va boshqa mulk huquqlarini himoya qilishni ta'minlash;
- innovatsion klasterlarga preferensiyalar berish;
- innovatsion infratuzilmani yaratish.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash modeli konvergensiya mexanizmi kabi o'ziga xos mexanizmni o'z ichiga oladi, uni amalda qo'llanishi FTTni rag'batlantirish orqali iqtisodiyotni tarkibiy transformatsiyalash va iqtisodiyotni raqamlashtirish, mintaqalararo infratuzilma loyihalarini amalga oshirish orqali mintaqalararo va ichki mintaqaviy differensiatsiya darajasini sezilarli darajada pasayishiga olib keladi.

Xorijiy iqtisodiy adabiyotlarni tahlil qilish va olib borilgan tadqiqot natijalariga asosan mintaqalarni konvergent rivojlantirish mexanizmini aniqlash va tavsiflash imkonini berdi. Ushbu mexanizmga quyidagilar

kiradi: iqtisodiyotni raqamlashtirish; mintaqalarda innovatsion faoliyatni rag'batlantirish; ishlab chiqarish omillarining (mehnat, kapital) texnologik transferti va harakatchanligini rag'batlantirish; iqtisodiyotni tarkibiy transformatsiyalash; mintaqalararo, ichki mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni rivojlanadirish; institutsional islohotlar va boshqalar.

Ushbu mexanizmlar va ularni amalga oshirish doirasida qabul qilingan boshqaruv chora-tadbirlari mintaqalararo va ichki mintaqaviy nomunatosiblik darajasini pasaytirishga yordam beradi va mamlakat va mintaqalarning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasining ajralmas qismiga aylanishi kerak. Shunday qilib, ushbu tadqiqot ishida tasvirlangan konvergensiya mexanizmlari, innovatsion va raqamli iqtisodiyot instrumentlari orqali mintaqalararo va ichki mintaqaviy tengsizlikni kamaytirishga yordam beradigan boshqaruv chora-tadbirlari O'zbekiston Respublikasi hamda uning Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi sifatida ko'rib chiqilgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, iqtisodiyotni transformatsiyalash va yagona raqamli makonni shakllantirish strategiyasi sharoitida Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizligini samarali ta'minlash nafaqat mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishda, hamda mintaqaviy darajada raqamli iqtisodiyotning iqtisodiy va ijtimoiy afzalliliklaridan samarali foydalanish uchun ham muhimdir.

3.3-§. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish mexanizmini takomillashtirish yo'nalishlari

"Iqtisodiy xavfsizlik mamlakatning iqtisodiy salohiyati, dunyo iqtisodiyotida tutgan o'rni, tabiiy, moddiy va insoniy resurslar bilan ta'minlanishi, ilmiy texnologik salohiyati, iqtisodiyotni tartiblab turuvchi mexanizmlarni naqadar yaxshi ishlashiga qarab turli darajada ta'minlanadi"¹²³. O'zbekiston Respublikasi hamda uning mintaqalarining nomunatosib iqtisodiy rivojlanish darjasи, mintaqaviy iqtisodiy tizimlarning turli darajadagi dinamizmi va tashqi muhitning turbulentligi, shuningdek ichki va tashqi tahdidlar darajasini beqarorligini o'sishi tendensiyasi bizni Qashqadaryo viloyat mintaqasi uchun iqtisodiy

¹²³ O'limasov A., Vahobov A. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU.-T.: "Iqtisodiyot-moliya" nashriyoti", 2014- yil –B.312.

xavfsizlikni ta'minlashning yangi mexanizmlarini izlashga va mavjud mexanizmlar va dastaklarni takomillashtirishni ta'lab qiladi.

Eng umumiy ma'noda, mexanizm insonlarning maqsadli faoliyati natijasidir va belgilangan maqsadlarga erishishni ta'minlaydigan ma'lum dastaklar, shart-shartlar, me'yorlar, qoidalarni anglatadi. "Davlatning iqtisodiyotga aralashuvi ko'lami va darajasi uning imkoniyatlari mos ravishda bo'lib, bozor mexanizmlari, xo'jalik subyektlarining erkin faoliyat yuritishi uchun qulay iqtisodiy muhit yaratilishiga imkon berilishi lozim bo'ladi"¹²⁴. Demak, mintaqaviy tizimning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi yangi paydo bo'lishi mumkin bo'lgan tahdidlarni oldini olish, mavjud xavf va tahdidlarning darajasini pasaytirish, shuningdek mintaqaviy tizimini strategik rivojlanish maqsadiga erishishni ta'minlashga qaratilgan tizimlashtirilgan yalpi instrumentlar, institutsional tartiblar va shart-sharoitlar to'plami sifatida tushunilishi kerak. "Mamlakatning milliy iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning ichki mexanizmiga, mamlakatda bozor o'zgarishlari, islohotlarni amalga oshirish, iqtisodiyotni boshqarishning bozor va davlat dastaklari usullaridan foydalanishni uyg'unlashtirish, strategik zaxirani jamg'arishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirishni ko'zlaydi"¹²⁵.


Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmi elementlariga mintaqani iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini shakllantiradigan tashkiliy-dasturiy hujjatlar tizimi taalluqli bo'lishi kerak; iqtisodiy xavfsizlik uchun mas'ul bo'lgan tashkiliy-boshqaruv tuzilmalari; mintaqaning iqtisodiy tizim xavfsizligini boshqarish usullari, shu jumladan instrumentlar, iqtisodiy xavfsizlik sohasida belgilangan maqsadga erishish dastaklari, yo'llari, instrumentlaridir. Turli xil iqtisodiy va xo'jalik mexanizmlarini shakllantirish va takomillashtirish tajribasini o'rganish va umumlashtirish asosida Qashqadaryo viloyati mintaqasini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirishga mualliflik yondashuvimizni ishlab chiqdik.

Bu yondashuvning asl mohiyati shundan iborat bo'lib, unda an'anaviy mexanizmlari (huquqiy-normativ, tashkiliy-ma'muriy, moliyaviy-iqtisodiy, axborot, ijtimoiy sherikchilik mexanizmi) iqtisodiy

¹²⁴Abulqosimov X., Abulqosimov M. Iqtisodiy xavfsizlik: nazariya va amaliyot" T. 2019-yil "Noshirlik yog'dusi" nashriyoti. –B.78.

¹²⁵ Tursunov B.O. Iqtisodiy xavfsizlik. O'quv qo'llanma. T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-ma'ba uyi" 2021-yil. – B.41.

rivojlanish darajasi bo'yicha mintaqaga tumanlarining hududiy rivojlanish darajasi bir xil bo'limganligi va ularning iqtisodiy rivojlanish darajasi bo'yicha qutblanishini o'sishi sharoitida mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishda nointegratsyalashuv va assimetriya riskini kamaytirishga yordam beradigan o'z-o'zini tashkil etish va konvergensiya mexanizmlari bilan to'ldirishi taklif etiladi. Mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarining takomillashtirilgan tarkibiy tuzilishi quyidagi rasmda keltirilgan (3.3.1-rasm). Taqdim etilgan mexanizmlarni batafsil ko'rib chiqamiz.



3.3.1-rasm. Qashqadaryo viloyatini iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash mexanizmlari¹²⁶

Normativ-huquqiy tartibga solish mexanizmining faoliyati iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash maqsadida mintaqani rivojlantirishning strategik

¹²⁶Manba: muallif tadqiqotlari asosida tuzilgan.

ustuvor yo'nalishlariga muvofiq normativ-huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirishga qaratilgan. Ushbu mexanizm yordamida ijtimoiy-iqtisodiy tizimni boshqarishning boshqa mexanizmlari orqali amalga oshiriladigan barcha jarayonlar va funksiyalar mintaqada huquqiy norma sifatida mustahkamlanadi.

Tashkiliy va ma'muriy mexanizm bu asosiy maqsadga erishishga qaratilgan joriy va strategik funksiyalarini bevosita amalga oshirish - mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasi va unda yashovchi aholining turmush sifatini oshirish bilan bog'liq Qashqadaryo viloyat hokimligining kundalik ish faoliyatni bo'lib hisoblanadi.

Moliyaviy-iqtisodiy mexanizm instrumentlariga strategik va ustuvor taktik vazifalarni hisobga olgan holda byudjetini shakllantirish, Qashqadaryo viloyatini rivojlantirishning umumiyligi strategiyasi doirasida mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash, investitsion faoliyatni, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish, innovatsion faoliyat va boshqalarni moliyalashtirish jarayonlarini tashkil etish kiradi. Mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy xavfsizlik risklariga birinchi navbatda investitsiya masalasi kiradi.

Axborot-kommunikatsiya mexanizmining asosiy vazifasi mintaqada axborot makonini shakllantirishdir, unda o'z vaqtida tahdidlarni aniqlash va ularning oldini olish, mavjud xavf va tahidilar darajasini pasaytirish, shuningdek mintaqaviy rivojlanishning strategik maqsadlariga erishishni ta'minlash uchun zarur bo'lgan axborot oqimlari tashkil etish bo'lib hisoblanadi.

Ushbu mexanizm iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash jarayonlariga kerakli ma'lumotlarni taqdim etishga, hujjatlar aylanishini tartibga solishga, Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash manfaatlari uchun ichki va tashqi muhit bilan aloqalarni va axborot aloqalarini tashkil etishga yo'naltirilgan. Ushbu mexanizm bilan, o'z vaqtida axborot almashish, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mintaqaligining faoliyatini bo'yicha nisbatan fikr va xulosalarni hisobga olish maqsadida aholi, biznes va keng jamoatchilik bilan bevosita to'g'ridan-to'g'ri va teskari aloqa tashkil etiladi.

Ijtimoiy sheriklik mexanizmi viloyat va mahalliy hokimiyatni mintaqaga hududida yashovchi Oliy majlis, viloyat, tuman deputatlari, senatorlari, faol aholi guruhlarini mintaqani iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash masalalarini hal qilishga jalb qilish uchun muntazam o'zaro hamkorlik aloqalarini tashkil etishni o'z ichiga oladi.

O‘zini-o‘zi tashkil etish mexanizmi tizimdagi qarama-qarshiliklarning ziddiyatini kamaytiradigan, uning barqarorligini oshiradigan va shu bilan mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini oshirishga hissa qo‘sadigan ichki tashkiliy o‘zgarishlar jarayonlarini rag‘batlantirishga qaratilgan.

Konvergensiya mexanizmi mintaqada yashovchi aholining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va daromad darajasi nuqtai nazaridan o‘sib borayotgan mintaqalararo differensatsiyani kamaytirishga qaratilgan. Konvergensiya (lotincha - "yaqinlashish") umumiy ma’noda jarayonlar o‘rtasidagi umumiy yaqinlashish jarayonlarini anglatadi¹²⁷. Boshqacha qilib aytganda, konvergensiyaning mohiyati turli xil tizimlardagi o‘xshash belgilarning turli shart-sharoitlarga moslashishi jarayonida shakllanishi orqali ochib beriladi. Konvergent texnologiyalar tushunchasi M.Kastels tomonidan joriy etilgan¹²⁸. Iqtisodiyotdagi konvergensiya vaqt o‘tishi bilan mamlakatlar yoki mintaqalarning rivojlanish darajalarining yaqinlashishini anglatadi.

Konvergensiyaning teskari jarayoni divergensiya deyiladi. Divergensiya (lotincha - "uzoqlashish, og‘moq") hodisa va jarayonlar o‘rtasidagi umumiy uzoqlashish tomon og‘ish jarayonidir. Divergensiya, mavjudlik uchun raqobat kurashidan kelib chiqadi. Misol uchun, resurs va infratuzilma bilan ta’milnish ko‘rsatkichlari juda quyi bo‘lgan va ijtimoiy-iqtisodiy sohada qaloq rivojlangan O‘zbekistonda o‘rtacha rivojlanish darajasidan orqada qolgan qaloq mintaqalarda bir qator muammolar mavjud. Shu sababli, ular FTTdagi o‘zgarishlarga va mintaqaviy, milliy va jahon bozorlaridagi innovatsion rivojlanish ta’lablariga tezda javob bera olmaydilar. Ularning iqtisodiy taraqqiyotga moslashishi jarayoni juda sust amalga oshadi va natijada lider mintaqalar bilan "qoloq" mintaqalar o‘rtasidagi tafovut ortadi, ya’ni divergensiya jarayoni sodir bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, investitsion faoliik bo‘yicha “lider” mintaqalar va “qoloq” mintaqalar o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish bo‘yicha ijobjiy tendensiya mavjud. Agar 2010-yilda aholi jon boshiga investitsiyalarning maksimal hajmi (Navoiy viloyati) bo‘lgan bo‘lsa minimal (Namangan viloyati) uning

¹²⁷ Xasanov S.X. Yangi iqtisodiy ukladga o‘tish davrida konvergent texnologiyalar. Yangi O‘zbekiston strategiyasining ijtimoiy sohasidagi tahdidlar va uning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga ta’sirini baholashning nazariy - metodologik asoslari. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari to‘plami. T. 2022-yil 29 aprel’. JXU.- B 143-147.

¹²⁸ Кастельс М. Информационная эпоха. –М.: ГУ ВШЭ, 2000. –С.78.

18,0%ni tashkil qilgan, keyin 2021-yilda bu ko'rsatkich farq 24,6%ga teng bo'ldi¹²⁹.

O'zbekiston Respublikasida tadqiq etilayotgan davrda aholi jon boshiga YaHM, aholi jon boshiga sanoat mahsuloti va aholi jon boshiga investitsiya xajmi bo'yicha Navoiy, Toshkent sh, Toshkent viloyati, Samarqand viloyatlari lider mintaqalarga tarkibida o'rinni olgan bo'lsa, qaloq mintaqalarga Surxondaryo, Namangan, Xorazm viloyatlari o'rinni olgan. Qashqadaryo viloyati ushbu tizimda o'rtalagi bo'g'inni egallab turibdi.

3.3.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi mintaqalarining iqtisodiy rivojlanishidagi disproportsiyalar dinamikasi¹³⁰

Iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichlari	“Lider” va “qaloq” mintaqalar o'rtaisdagi iqtisodiy rivojlanishdagi farq darajasi			
	2010	2015	2019	2021
Aholi jon boshiga YaHM	28,3	31,6	23,2	19,1
Aholi jon boshiga sanoat mahsuloti	11,5	10,7	12,6	8,2
Aholi jon boshiga O'zbekiston mintaqalarning konsolidlashgan byudjet daromadlari	50	35,1	60,5	66,1
Aholi jon boshiga investitsiya xajmi	18,0	22,3	23,2	24,6

Qashqadaryo viloyati mintaqasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish muayyan tamoyillar asosida amalga oshirilishi kerak, masalan:

- tizimlilik tamoyili, ya'ni iqtisodiy xavfsizlik mexanizmining barcha tarkibiy elementlari o'zaro bog'liq va bog'liqlikda ko'rib chiqilishi va mexanizmni takomillashtirish maqsadlari va mezonlari va uning alohida elementlarini alohida holda belgilanishi kerak;

- vaziyatli yondashuv tamoyili, ya'ni boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida o'zgarishi ma'lum bir vaziyatda iqtisodiy xavfsizlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish kerak, ya'ni mintaqada tashqi o'zgarishlarga moslashish dastaklarini ishlab chiqish kerak;

¹²⁹ O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil.- B.146.

¹³⁰ Manba: Muallif tomonidan xisoblandi.O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy holati. 2021-yil. T.2022-yil, O'zbekistonda ilm-fan va innovatsion faoliyat. T.2021-y.- B.124.

- uzluksizlik tamoyili ya'ni tizimning murakkabligi oshgan taqdirda, tizimda yangi elementlarning paydo bo'lishi, yangi xavf va tahdidlar, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari o'zgarishi va takomillashishi kerakligidan iborat uzluksizlik tamoyili. Ya'ni, mintaqaning iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi mintaqaning rivojlanishi bilan birga rivojlanishi va takomillashishi kerak, aks holda u unga mos kelmay qoladi;

- iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmining, o'zi yaratgan mintaqaviy tizimning o'ziga muvofiqligi. Bu shuni anglatadiki, iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash mexanizmi mintaqaviy tizimning barcha elementlarini qamrab olishi, mintaqa sharoitida ularning faoliyat xususiyatlari obyektiv ravishda hisobga olishi kerak, ularning o'zgarishi ehtimolliklariga real yondashuvi kerak;

- teskari aloqa tamoyili, uning mohiyati mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash natijalarini doimiy ravishda monitoring qilib borishdan iborat, chunki boshqaruv jarayonida doimiy tahlil, monitoring va tuzatishni talab qiladigan turli xil og'ishlar paydo bo'lishi mumkin.

Qashqadaryo viloyati mintaqasida iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun foydalilaniladigan mexanizmlar va instrumentlar 3.Ilovada keltirilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun shart-sharoit yaratish mintaqaviy davlat hokimiyyat organlarining asosiy vazifasi bo'lib, uni faqat iqtisodiy xavfsizlikni oshirish strategiyasida belgilangan o'zaro bog'liq boshqaruv mexanizmlarini tizimli qo'llash orqali hal qilish mumkin.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy rivojlanishida o'rtacha darajaga ega bo'lgan mintaqasi sifatida Qashqadaryo viloyatining pilot loyiha sifatida iqtisodiyotini raqamli transformatsiyalash bosqichida iqtisodiy xavfsizlikni takomillashtirish bo'yicha strategik dasturni ishlab chiqish taklif etiladi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishning strategik dasturi quyidagi ustuvor bo'limlardan iborat bo'lishi lozim:

- hududdagi subyektlar faoliyatining xavfsizligini oshirish;
- mintaqada amalga oshayotgan jarayonlar xavfsizligini oshirish;
- loyihalarni joriy etish xavfsizligini oshirish;
- mintaqaviy muhit xavfsizligini oshirish;

Ushbu ustuvor bo'limlar o'z navbatida uni amalga oshirishning ustuvor chora-tadbirlardan iborat yo'naliishlardan tashkil topadi. Masalan mintaqadagi amalga oshayotgan jarayonlar xavfsizligini oshirish bo'limi

o‘z navbatida: takror ishlab chiqarish jarayoni, ijtimoiy jarayonlar, iqtisodiy jarayonlar, innovatsion jarayonlar, investitsion jarayonlar, integratsion jarayonlar, migratsion jarayonlar va ekologik jarayonlardan tashkil topadi.

Dasturni mintaqada mavjud bo‘lgan o‘ziga xos xususiyatlar, mintaqani aniqlangan salohiyati va institutsional shart-sharoitlarni hisobga olgan holda ishlab chiqish tavsija etiladi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini oshirish bo‘yicha strategik dastur modelini shakllantirish ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida mintaqaning obyektni, loyihiyiy, jarayonli va ekologik xususiyatlarining samarali uyg‘un kombinatsiyasi g‘oyasi asosida amalga oshirilishi taklif etiladi. Bu g‘oya G.B.Kleyner tomonidan taklif etilgan tizim iqtisodiyoti metodologiyasiga asoslanadi¹³¹. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish dasturining taklif etilayotgan modeli mintaqadagi iqtisodiy rivojlanishni boshqarish tizimiga juda yaxshi mos keladi, bu esa o‘z navbatida mintaqani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy strategiyasiga organik ravishda qo‘shilishi kerak.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish dasturining taklif etilayotgan modeli kontekstida mintaqaning bir qismi bo‘lgan tumanlarining konvergent rivojlanishini rag‘batlantiradigan mexanizmlarni joriy etish muhim rol o‘ynaydi, chunki bu uzoq muddatli istiqbolda innovatsion va raqamli iqtisodiyot, infratuzilma va institutsional choratadbirlari orqali aniq mintaqalararo differensiatsiyani yumshatish, barqarorlashtirish imkonini beradi.

Taklif etilgan yondashuv asosida ishlab chiqilgan mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishning strategik dasturi mintaqalari iqtisodiy tizimini muvofiqlashtirishga olib keladi. Albatta, mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimda vaqt vaqt bilan paydo bo‘ladigan tahdidlarni butunlay bartarf etishning iloji yo‘q, ammo mintaqaning ichki salohiyatini shakllantirish va uni to‘la amalga oshirish, uning faoliyati va rivojlanishi jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatlarni bartaraf etish mumkin. Taklif etilayotgan yondashuv zamонавиy ichki va tashqi tahdidlarga, mintaqaning salohiyati va resurslariga mos ravishda javob bera oladigan mintaqalari.

¹³¹ Kleyner, G.B. Sistemnaya ustoychivost natsionalnoy ekonomiki / G.B. Kleyner. - Tekst: neposredstvennyi // Perspektivi i ogranicheniya ustoychivogo sotsioxozyaystvennogo razvitiya Rossii: ekonomicheskiye i pravovye aspekti / pod red. G.B. Kleynera, X.A. Konstantinidi, A.O. Inshakovoy. - Moskva: Nauchno-issledovatel’skiy institut istorii, ekonomiki i prava, 2016. - S. 19-40.

tizimning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash uchun yanada yaxshi va qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

An'anaviy mexanizmlar bilan bir qatorda (tartibga solish, tashkiliy, ma'muriy, axborot, moliyaviy-iqtisodiy bilan bir qatorda bugungi kunning zamonaviy mexanizmlari Qashqadaryo mintaqasining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash muammosini hal qilish sharoitida konvergensiya mexanizmlari kabi zamonaviy mexanizmlardan foydalanish taklif etilgan uning salohiyati bugungi kunda to'la ochib berilmagan va keyingi tadqiqot mulohazalarni talab qiladi.


Tadqiqotimizda Qashqadaryo viloyati hokimligi uchun mintaqada iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish bo'yicha rivojlanish strategiyalari va kompleks chora-tadbirlar tayyorlash va baholashda qo'llanilishi mumkin bo'lgan yondashuvlar ishlab chiqildi. Iqtisodiyotni rivojlantirishda eng asosiy xususiyatlardan biri u yoki bu sohaning omilli ko'rsatkichlarini natijaviy ko'rsatkichlariga ta'siri aniqlash muhim hisoblanadi.

An'anaga ko'ra, iqtisodiy xavfsizlik miqdoriy ko'rsatkichlar yoki ko'rsatkichlarning qiymatlari va ularga mos keladigan chegaralar bilan baholanadi. Ma'lumki, ko'p omilli ekonometrik modellarni tuzishda natijaviy omilga bir qator omillar ta'sir etishi vaqtli qatorlar ko'rinishidagi aks ettiriladi.

Vaqtli qatorlarni prognoz qilish muammosining mohiyati ma'lum statistik qiymatlardan vaqtning nuqtalarida qiymatlarni hisoblashdir. Vaqt qatori-bu vaqtga ko'ra ketma-ket joylashgan sonli ko'rsatkichlar qatori bo'lib, ular hodisa yoki jarayon holati va o'zgarishining darajasini tavsiflaydi. Shu bilan birga, statistik xulosalar teng vaqt oralig'ida (kun, oy, chorak, yil) ma'lum bo'ladi, bundan tashqari statistikada mavsumiylikni ham hisobga olish mumkin.

Muayyan hududning individual ko'rsatkichlarini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi umuman uning iqtisodiy xavfsizligiga qanday ta'sir qilishini baholashni qarab chiqamiz. Tadqiqot sohaning "asosiy" ko'rsatkichilar bo'yicha ularning qiymatlarini optimal qiymatini aniqlash hamda ko'rsatkichlarni rejada ko'rsatilgan qiymatlarni prognoz va iqtisodiy xavfsizlikni baholashga ajratilgan.

3.3.2-rasm. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishning strategik dasturining tarkibiy tuzilishi³²



Bunda biz regressiya tahlilidan foydaladik. To'g'ri tahlil qilish uchun asosiy ko'rsatkichga ta'sir ko'rsatadigan ko'rsatkichlar ro'yxatini tanlash kerak, omillar orasida multikollinearlik bor yoki yo'qligini aniqlash lozim (ilova №4). Chiziqli regressiya modeli quyidagicha ifodalanadi:

$$Y = \alpha_0 + \alpha_1 x_1 + \alpha_2 x_2 + \dots + \alpha_n x_n + \varepsilon$$

bu yerda α_0 – o'zgarmas; $\alpha_i, i = 1, 2, \dots, n$, i –chi regressiya koeffitsiyenti; ε – model xatosi. ε ning qiymati qanchalik kichik bo'lsa chiziqli modelning qiymatlari haqiqiyga imkon qadar yaqin bo'ladi. Chiziqli regressiya modeli adekvat bo'lishligi uchun avtokorrelyatsiya mavjud bo'lmasligi lozim.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi ko'rsatkichlari tizimi odatda ijtimoiy-iqtisodiy, oziq-ovqat, moliyaviy va boshqa ko'plab sohalarni o'z ichiga oladi. Tadqiqotda Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy sohasi va jadvalda keltirilgan ushbu sohaning ko'rsatkichlari to'plami ko'rib chiqildi. Ko'rsatkichlar to'plami butun iqtisodiy sohani baholash nuqtai nazaridan to'liq deb da've qilmaydi, balki ekspert bahosi bilan va ular bo'yicha statistik ma'lumotlar asosida tanlab olingan.

Qashqadaryo viloyatida 2010-2021-yilgi statistik ma'lumotlar asosida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotga ta'sir etuvchi omillar ko'p omilli ekonometrik modellarini tuzish orqali mazkur xo'jalik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlarini baholash lozim. Bunda natijaviy omil: aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot, mln. so'm (Y) hisoblanadi. Ta'sir etuvchi omillar esa - aholi jon boshiga sanoat mahsuloti, mln. so'm (X_1), aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari, mln. so'm (X_2), asosiy kapitalga investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulotga nisbatan %, (X_3), asosiy kapitalga investitsiyalar umumiylajmida xorijiy investitsiyalar ulushi, % (X_4), sanoat ishlab chiqarish indeksi, % (X_5), yuborilgan innovatsion mahsulotlarning barcha jo'natilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi, % (X_6) va yillik inflatsiya darajasi, % (X_7).

Dastlab Stata dasturidan foydalaniib X_1, X_2, \dots, X_7 ikki xil korrelyatsiya koeffitsiyentlarini aniqlab olishdi: xususiy va juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari.

3.3.2-jadval

Omillar o'rtasida korrelyatsion matritsa¹³³

. correlate Y X1 X2 X3 X4 X5 X6 X7

[obs=12]

	Y	X1	X2	X3	X4	X5	X6	X7
Y	1.0000							
X1	0.9959	1.0000						
X2	0.9413	0.9396	1.0000					
X3	-0.1539	0.0401	-0.1653	1.0000				
X4	0.2629	0.0538	0.2716	0.1757	1.0000			
X5	0.0592	-0.1434	0.0340	-0.0315	0.2147	1.0000		
X6	-0.6607	-0.6735	-0.7033	-0.0567	-0.0671	0.5913	1.0000	
X7	-0.3115	-0.2772	-0.2001	0.0235	0.5234	-0.5333	-0.0422	1.0000

Xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu natijaviy omilning (Y) ta'sir etuvchi har bir omil bilan alohida bog'lanishini aks ettiradi. Juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari – bu ta'sir etuvchi omillar o'rtasida bog'lanishlarni aks ettiradi. Demak, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (X₁) o'rtasida bog'lanish zichligi 0,9959 ga tengligini ko'rish mumkin. Bu esa mazkur ko'rsatkichlar o'rtasida o'rtachadan zich bog'lanish mavjudligini ko'rsatadi. Xuddi shuningdek, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va aholi jon boshiga qishloq xo'jaligi mahsulotlari (X₂) o'rtasida zich aloqa mavjud ekan, ya'ni ular o'rtasidagi xususiy korrelyatsiya koeffitsiyentining qiymati 0,9413 teng ekan. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va asosiy kapitalga investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulotga nisbatan (X₃) o'rtasida o'rtachadan sust teskari aloqa mavjud. Ushbu omillar o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti -0,1539 ga teng. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy investitsiyalar ulushi (X₄) o'rtasida sust aloqa mavjud. Ushbu omillar o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,2629 ga teng. Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va sanoat ishlab chiqarish indeksi (X₅) o'rtasida sust aloqa mavjud ekan. Ushbu omillar o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti 0,0592 ga teng. Bundan tashqari aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va yuborilgan innovatsion mahsulotlarning barcha jo'natilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi (X₆) o'rtasida yuqori teskari aloqa mavjud bo'lib, ular o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti -0.6607 ga teng. Aholi jon

¹³³ Manba: Statistik ma'lumotlar asosida muallif hisob-kitobi.

boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) va yillik inflyatsiya darajasi (X_7) o'rtasida sust teskari aloqa mavjud bo'lib, ular o'rtasida xususiy korrelyatsiya koeffitsiyenti -0.3115 ga teng.


Demak, korrelyatsion matritsa tahlili shuni ko'rsatadiki, Aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotga (Y) asosiy kapitalga investitsiyalar, yalpi hududiy mahsulotga nisbatan (X_3), yuborilgan innovations mahsulotlarning barcha jo'natilgan sanoat mahsulotlaridagi ulushi (X_6) va yillik inflyatsiya darajasi (X_7) omillar teskari ta'sir ko'rsatar ekan. Qolgan omillar ega to'g'ri ta'sir ko'rsatar ekan.

Korrelyatsion matritsadagi juft korrelyatsiya koeffitsiyentlari qiymatlari shuni ko'rsatadiki, taddiq qilinayotgan ta'sir etuvchi omillar o'rtasida multikolleniarlik mavjud bo'lib X_2 , X_3 , X_5 , X_6 omillar dastlabki to'plamidan chiqarib tashlandi va natijada ko'rsatkichlar to'plamining chiziqli regressiya tenlamasi qo'yidagi ko'rinishda ifodalandi.

$$Y = -3,5922 + 1,8626X_1 + 0,2529X_4 - 0,8123X_7,$$

Bunda korrelyatsiya koeffitsiyenti $r = 0,9871$ ga teng bo'lib, hisoblangan determinatsiya koeffitsiyenti (R^2 - R-squared) $0,9744$ ga teng. Bu esa aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotga (Y) $97,44$ foizi ko'p omilli ekonometrik modelga kiritilgan omillardan tashkil topishini ko'rsatmoqda. Qolgan $2,56$ foizi ($100,0-97,44$) esa hisobga olinmagan omillar ta'siri ekanligini ko'rsatmoqda. Darbin-Uotson testi bo'yicha qoldiqlarni tahlil qilinganda avtokorrelyatsiyasi mavjud emasligini ko'rsatdi.

Chiziqli regressiya tenglamasi orqali hisoblangan yalpi hududiy mahsulotning qiymatlari haqiqiy statistik qiymatlarga juda yaqin (aniqlik 95%). Chiziqli regressiya modeli ixtisoslashtirilgan maxsus dasturlardan foydalangan holda prognozlash ko'rsatkichlari qiymatlari hisoblab topildi. Bu ma'lum sharoitlarda mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash uchun prognozni hisoblashda, ya'ni huddi shunday ssenariy bo'yicha hisob-kitoblarni, shuningdek, ma'lum ko'rsatkichlardagi o'zgarishlarni va unga bog'liq ko'rsatkichlarni aniqlash imkonini beradi



3.3.3-rasm. Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulotning prognoz ko'rsatkichlari¹³⁴

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, regressiya tenglamasidan agar aholi jon boshiga sanoat mahsuloti (X_1) bir millionga oshirilsa, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y) 1,8628 millionga oshishga erishiladi. Asosiy kapitalga investitsiyalar umumiy hajmida xorijiy investitsiyalar ulushi (X_4)ni 1 foizga oshishi aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y)ni 0,2529 milionga oshishiga olib keladi. Yillik inflyatsiya darajasini (X_7) bir foizga oshishi aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot (Y)ni 0,8123 millionga kamayishi kuzatiladi. Prognoz ko'rsatkichlaridan ko'rinish turibdiki 2022-yilda Qashqadaryo viloyatida aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot 17,107 million so'mni tashkil etsa 2025-yilga borib 20,772 millionni tashkil etadi.

¹³⁴ Manba: muallif tomonidan tuzilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Dissertatsiyada olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Iqtisodiy xavfsizlik bu mamlakatni xavf va tahdidlardan himoyalanganligi bilan bog'liq uning iqtisodiy salohiyatining izchil rivojlanishini belgilaydigan va jamiyatning barcha a'zolarining turmush farovonligini oshirishni ta'minlaydigan iqtisodiy munosabatlardir.

Mintaqa bu ichki yaxlitlik va o'ziga xos integratsiyaning maxsus turi bilan ajralib turadigan murakkab hududiy-ishlab chiqarish majmuasi bo'lib iqtisodiy nomutanosibliklarni yuzaga kelmasligi va mustaqil ravishda barqaror rivojlanishni amalga oshirish hamda mavjud resurslardan samarali foydalangan holda mintaqaning ishlab chiqaruvchi kuchlarini barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bu uning ijtimoiy-iqtisodiy tizimini intensiv rivojlanishini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilish, undagi salbiy, negativ oqibatlarni aniqlash, oldini olish va zararsizlantirish, shu jumladan noqulay tashqi va ichki omillar mavjud bo'lganda mintqa aholisining hayotiy ehtiyojlarini to'la qondirish deb tushunish mumkin.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi bir qator tarkibiy ya'ni: moliyavyi, ijtimoiy, kadrlar, resurs, sanoat, innovatsion xavfsizlik va boshqa qismlarni o'z ichiga oladi.

Mintaqa iqtisodiyoti tizimli xususiyatga ega bo'lib, ko'plab o'zaro bog'liq kichik tizimlar va ular o'rtaida tobora murakkab aloqalardan tashkil topgan, ochiq, nochiziq tizim bo'lib, ierarxik tuzilma va dinamik elementlar bilan tavsiflanadi.

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirish uchun ikki turdag'i mexanizmlar harakatini hisobga olish kerak: o'z-o'zini tashkil etuvchi va tashkiliy. Birinchisi tizim elementlari o'rtafiga lokal o'zaro ta'sirlarning bir turi sifatida, ikkinchisi tashqi muhitning ta'siri natijasida yuz bergen sifat o'zgarishlari bo'lgan tashkiliy jarayon shaklida namoyon bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarni: boshqaruv darajalari bo'yicha; mintaqaviy tizim tashkil

qiluvchi elementlari bo'yicha; mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy muhitiga nisbatan; mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik obyektlariga ta'sirining tabiatini bo'yicha tasniflash taklif etiladi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasining iqtisodiy xavfsizlik darajasiga asosiy fondlarning eskirish darjasasi, mintqa sanoatining texnologik qolqoligi va mintaqaning xomashyo eksport modeli katta ta'sir qiladi.

Qashqadaryo viloyati mintaqasini iqtisodiy xavfsizligi darjasasi ilmiy asoslangan mezon ko'rsatkichlari va ularning chegaraviy qiymatlari bo'yicha baholash natijalariga ko'ra, Qashqadaryo viloyat tumanlaridan Qarshi tumani yuqori, Koson tumani normal, Mirishkor tumani depressiv va qolgan tumanlar inqiroz oldi darajasida ekanligi aniqlandi.

Mintaqaviy tizimning iqtisodiy xavfsizligi omillarining tasnifini ishlab chiqish orqali uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash shart-sharoitlarini tashkil etish asoslari aniqlandi.

Qashqadaryo viloyat mintaqasining intellektual resurslari-bu aholining yalpi bilim, ko'nikma, axborot, texnologik va ma'naviy salohiyati, ta'lim darjasasi va sifati bo'lib undan uzoq muddat davomida ijtimoiy.-iqtisodiy boyliklarni ishlab chiqarishda foydalanish tushiniladi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konseptual modelining kirish qismida mintaqaning institutsional shart-sharoitlari va xususiyatlari, omillari hamda tizimning tashkiliy tuzilmasi turadi. Chiqish qismida mintaqani xavfsiz rivojlanish shart-sharoitlari turadi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash modelining konstruksiyasini shakllantirish jarayonida tizimli va institutsional-evolyutsion yondashuvlar, instrumentlaridan hamda mintaqaviy iqtisodiy tizimning murakkabligini, iqtisodiy xavfsizlik omillarining xilma-xilligini, boshqarish funksiyalari va mexanizmlarini hisobga olish imkonini beradigan asosiy tashkiliy tamoyillardan foydalanildi.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizlik darajasini oshirishning an'anaviy mexanizmlar bilan bir qatorda tartibga solish, tashkiliy,

ma'muriy, axborot, moliyaviy-iqtisodiy bilan bir qatorda konvergensiya mexanizmlari kabi zamonaviy mexanizmlardan foydalanish taklif etilgan.

“Qashqadaryo viloyati iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash” idoralararo ishchi komissiyasi mintaqada iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha quyidagi yo‘nalishlarda institutsional islohotlarni olib borishi lozim:

- iqtisodiy xavfsizlikka tahdidlarning ta’sirini minimallashtirish maqsadida xavflarni, global muammolarni tizimli monitoring qilish va sifatli tahlil qilish;
- mulk huquqini himoya qilish, xususiy mulk institutini sifatli rivojlantirish;
- iqtisodiy sohadagi byurokratiyaning ijobiyligi o‘zgarishlarga to‘sqinlik qiluvchi korruption harakatlarini bartaraf etish;
- tadbirkorlik va innovatsion faoliyat ko‘lamini kengaytirishga qodir moliya bozorlarini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish;
- inson kapitali sifatini yaxshilash, malakali mutaxassislarni innovatsion faoliyatga jalg qilish;
- kapital, texnologiya va "tajribali" kadrlarni xalqaro almashinuvi tajribasini rivojlantirish;
- investitsiya bozorlari samaradorligini oshirish, tadbirkorlarning moliyaviy va investitsiya resurslaridan erkin foydalanishini ta’minlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. Normativ- huquqiy hujjatlap va metodologik ahamiyatga molik nashrlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –T.:O'zbekiston, 2017. –40 b.
2. O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston yangi Qonunlari. I tom. –T.: Adolat, 1991.
3. O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston yangi Qonunlari. 2 tom. –T.: Adolat, 1991.
4. O'zbekiston Respublikasining "Korxona to'g'risida"gi Qonuni. O'zbekiston yangi Qonunlari. –T.: Adolat, 1992.
5. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi Qonuni. 2012 yil 16 aprel.
6. O'zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to'g'risida" gi 2020 yil 24 iyuldagli O'RQ-630-sonli Qonuni
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli iqtisodiyot va elektron hukumatni keng joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 28 apreldagi PQ-4699 -son qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2020 yil 5 oktabrdagi PF 6079-son farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 oktabrdagi "Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi PF-6097-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 1 aprel 6 kungi "Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo'yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to'g'risida" gi PF-6198 son Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 30 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining «2020 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budgeti to'g'risida"gi qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4555-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni.
- 13.. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrdagi O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida PF-5853-son farmoni.
14. 2022-2026 yillarda Qashqadaryo viloyati hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2022 yil 20 aprel kungi №201 qarori.
15. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. T:// Xalq so‘zi, 2017 yil 23 dekabr.
16. Mirziyoev SH.M. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. // Xalq so‘zi, 2020 yil 24 yanvar.
17. Mirziyoev SH.M. «Yangi O‘zbekiston» gazetasi bosh muharririga bergen intervysi. [httrs://daryo.uz/k/2021/08/17/](https://daryo.uz/k/2021/08/17/).
18. Mirziyoev SH.M. “Yangi O‘zbekiston Strategiyasi”. –T.: O‘zbekiston nashriyoti. 2021 y. –464 b.

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, Ilmiy to‘plamlar

1. Alimova G.A., Islamov A.A., Kazakov A.A. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. Toshkent: 2020 y. -B. 34.
2. Abulqosimov X.P.,Abulqosimov M.X. Iqtisodiy xavfsizlik:Nazariya va amaliyot Darslik.T. 2019 y.-B.455.
3. Axmedov T.M., Xasandjanov K.A., Xakimov N.X. Regionalnaya ekonomika. Uchebnoye posobiye. – M.: izd. REA im.G.V.Plexanova. 2006. – 231 s.

4. Afonasova, M.A. Innovatsionnaya modernizatsiya ekonomiki Rossii: regionalniy aspekt: monografiya / M.A. Afonasova. - Tomsk: Tomsk. gos. un-t sistem upravleniya i radioelektroniki, 2009. – S.140.
5. Ayupov R.X., Baltabayeva G.R. Rakamli valyutalar bozori: innovatsiyalar va rivojlanish istiqbollari. –T: Fan va texnologiya 2018, 172 b.
- 6.Arthur, W.B. Somplexity esonomiss: a different framework for esonomis thought / W.B. Arthur // Santa Fe Institute Working rarer: 2013-04-012. - 22 r.
